

**M.D. Tursunboyeva,
L.K. Narimbayeva,
N.H. Maripova, N.A. Xidoyatova**

**MAKTABGACHA TA'LIMDA
BOLALAR NUTQINI O`STIRISH**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TAILIM
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

M.D.Tursunboyeva, L.K.Narimbayeva, N.H.Marifova, N.A.Xidoyatova

**MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR NUTQINI
O'STIRISH**
O'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TAILIM,
FAN VA INNOVATSIONAL VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

CHIRCHIQ-2022
«Book trade 2022»

YDK-376
KEK-74.102
T-91

**M.D.Tursunboyeva, L.K.Narimbayeva, N.H.Maripova, N.A.Xidoyatova, /
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish / O'quv qo'llanma. — Chirchiq:
«Book tarde 2022», 2022. — 144 bet.**

Nutqni rivojlantirish bolaning ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishga oid o'ta murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, u yakkama-yakka ruxan rivojlanishda markaziy o'rin tutadi. Bu pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon bo'lib, u to'satdan yuz bermaydi. Bolalarda nutqni rivojlantirishga va boshqa tilga o'rganishga oid ishlarni yaxshi nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'zida bolaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantira olgan mutaxassisgina uyushtirishi va amalga oshirishi lozim.

Fanning asosiy maqsadi va vazifalari. Nutqni rivojlantirish—bolaning ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishga oid o'ta murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, u yakkama-yakka ruxan rivojlanishda markaziy o'rin tutadi. Bu pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon bo'lib, u to'satdan yuz bermaydi. Bolalarda nutqni rivojlantirishga va boshqa tilga o'rganishga oid ishlarni yaxshi nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'zida bolaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantira olgan mutaxassisgina uyushtirishi va amalga oshirishi lozim.

Taqrizchilar:

A. A. Abdullayev - "Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim "fakulteti" Maktabgacha ta'lim " kafedrası mudiri dotsent

T. L. Xurvaliyeva - Nizomiy nomidagi TDPI doktoranti p.f.n. dotsent

ISBN 978-9943-9240-3-1

© M.D.Tursunboyeva va b., 2022
©«Book tarde 2022», 2022

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH FANNING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI

REJA:

1. Nutqni rivojlantirish fan sifatida shakllanish tarixi 2. Fanning rivojlanishi va taraqqiyoti
3. Sharq va g'arb mutafakkirlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlari

Sharqda Ta'lim va tarbiya muammosi juda qadimdan beri mavjud. U o'z asrlardagi sharq mutafakkirlarining asarlarida ko'rib chiqilgan. O'sha davrlarning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugniy, Alisher Navoiy va boshqalar jahon fani, madaniyatiga beqiyos hissa qo'shdilar.

O'tgan davrlarda mehnatkashlarning o'z munosabatlari uning yoshlarga tarbiyaviy ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadida yo'lga qo'yish borasidagi tajribalarini nafqat xalq pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi obektiv umumiy ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham o'rganish lozim.

O'rta asrlar sharqining qomusiy mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy (873-950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt-saodadga etaklash yo'llari va usullarini o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markaziga qo'yadi, bu esa uning dunyovqarashlarining unuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi.

Aynan shunday maqsadlar Forobiyning shaxsni tarbiyalash va ta'lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol roliga nisbatan dunyovqarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi.

Forobiy fikriga ko'ra - ta'lim - bu nafqat aqily rivojlanish, balki umuman ma'naviy rivojlanish, shu jumladan axloqan rivojlanish poydevoridir. Ta'lim va tarbiya o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, ular shaxsni ma'nan kamolotga etkazuvchi turli yo'llar hisoblanadi.

Forobiy ijtimoiy tarbiyani tartibga solish, uni boshqarish masalalariga alohida e'tibor bergan. U mehnat faoliyati tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi, degan xulosaga keladi.

Abu Rayhon Beruniy qomusiy olim sifatida tarixga kirgan. Beruniy o'z asarlarida ta'limning uzluksiz, ko'rganmali, aniq maqsadga yo'naltirishi lozimligini va uning muayyan tizim asosida o'tkazilishi zarurligini ta'kidlagan.

Beruniy yosh yigirda shaxs tarbiya jarayonida shakllanadi, deb hisoblagan. Bunda u mehnatga alohida o'rin bergan.

Beruniy fan va bilim jamiyat taraqqiyotida mulqat ahamiyatga ega deb bilgan. Biroq fan, bilim, mehnatning ahamiyati haqidagi fikrlarining o'zi to'g'ri edi. Bilim olishning o'zini Beruniy kuch, vaqt va sabr-toqat talab qiladigan mehnat, deb hisoblagan.

Ibn Sino pedagogika masalalariga ijodiy yondoshgan. U bola tabiatini nafoqat tabib, balki etuk pedagog sifatida ham chuqur bilishini namoyon qilgan. Olimning bolalarga ta'lim va tarbiya berish haqidagi ko'plab fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilganligi va tarbiyadek murakkab muammorni to'g'ri talqin qilishi bilan ajralib turadi.

Ibn Sino taklif qilgan tarbiya va ta'lim mazmuni aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlashirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va hunar o'rganishlarni o'z ichiga oladi. Ibn Sino bola tarbiyasining butun mashqati va murakkabliklarini juda chuqur tushungan. «Tib qonunlarining» «Tarbiya haqida» nomi bo'limida qo'yilgan masalalar aniq hal etiladi, bola xarakterini tarbiyalash haqida qimmatli fikrlar bildiriladi. Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik ijodiyotida oliyiy tarbiya alohida e'tibor qaratiladi va bunda bosh rol oila boshlig'i — ya'ni otaga beriladi. Ibn Sino nima uchun bolani onasi emas, balki otasi tarbiyalashi lozimligini tushuntirib beradi. Uning fikrlariga qaraganda, bolaning onasi o'z farzandi tarbiyasida ko'proq hissiyotlarga beriladi va bola tarbiyasida to'g'ri yo'lni tanlay olmaydi. Ibn Sino tarbiyachi oldiga aniq vazifalarni qo'yadi: u o'z shogirdini gachon jazolashi yoki rag'batlantirishi mumkinligini yaxshi bilmog'i lozim.

Ibn Sino bola shaxsini hurmat qilish, bolaning tabiiy yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uning qiziqishlarini o'rganishga chaqiradi. U yoshga qarab davrlarga bo'lib chiqishga harakat qilgan.

O'smirlik davrini u beshta davrga bo'lgan:

chagalqlik (bola tug'ilganidan boshlab yo'lga yurib ketgunicha bo'lgan davr); bolalik davri (yo'lga yurgandan so'ng); organizm chiniqani va qoziq tishlari chiqqanidan keyingi davr; o'smirlik va jinsiy etilish davri; o'smirlik davri (o'sish to'xtatgancha bo'lgan davr).

Ibn Sino bola tarbiyasining barcha murakkabliklari va qiyinchiliklarini tushungan. U jismoniy jazoning me'yoridan ortib ketishiga qarshi chiqqan. Uning fikriga ko'ra, risoladagidek tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolalarga insoniy munosabatta bo'lish dardkor. Tarbiyachining o'zi bola shaxsini hurmat qilishi, uni sevishi va bola bilan yaxshi munosabatta bo'lishi lozim.

Ibn Sino tarbiya omilining ahamiyatini chuqur anglagan va ijobiy omil ahamiyatini juda qadrlagan, uni tarbiyaning asosiy vositalaridan biri deb bilgan.

Yusuf Xos Hojib o'rta asrning boshqa ko'plab olimlari singari musulmon Sharq xalqlarining madaniy rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Sharqning «Taqvodorlar tuhfatlari» devoni insonni axloqan tarbiyalash muammolari ko'rib chiqqan dastlabki didaktik asarlaridan biri hisoblanadi. Uning so'zlashishdagi bostiqlik va odob qoidalariga haqida bildirgan fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan: «Marifatli kishining so'zlarini tingla. Tarbiya qoidalaridagi asosiy narsa — bu til, unga ehtiyot bo'lmog' lozim. Yaxshi so'zli kishi hurmatga, tili zahar kishilar esa nafatlanishga loyiqdir. Kishining ustidan kulma va uning jahlini chiqarma: o'q etkazgan zahmat bitadi, so'z bilan etkazilgan zahmat esa hech gachon bitmaydi».

Biroq, o'z tasavvurida shoir kishilarda oliy axloq sifatlarini tarbiyalash orqali umumiy farovonlikka erishish mumkin, deya hisoblagani holda o'sha davrda hukmron bo'lgan dunyoqarashlardan yuqori ko'tarilmaydi.

O'zbekistonda XVI asrdan keyingi asosiy pedagogik fikr yo'nalishlari va ularning xususiyatlarini tushunish uchun qomusiy olim bo'lgan, o'z zamondoshlari o'rtasida juda mashhur bo'lgan Jaloldin Devoniy (1427 - 1502) asarlari bilan tanishish zarur.

Garchi Devoniy Eron hududida yashagan va ijod qilgan bo'lsa ham uning «Erika Jalom» nomi asari Samarqand va Buxorodagi madrasalarda o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan hamda O'rta Osiyodagi ko'plab ilg'or mutafakkirlarning (Yusuf qorabog'iy, Abu Tohir Samarqandiy, Abdulla Avloniy) pedagogik va axloqiy qarashlarini shakllantirishda katta rol o'ynagan. Ushbu fundamental asarida Devoniy o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, tarbiya va ta'lim jarayonida ijobiy sifatlarga ega bo'lish lozimligi haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Devoniyning asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u o'z davrining ilg'or mutafakkiri bo'lgan hamda uning ta'lim va tarbiya haqidagi ko'plab g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Til, marifat va ma'naviyatni yuqori cho'qqilarga olib chiqqan Alisher Navoiy asarlari besh yuz yildan buyon ko'plab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat g'oyalari, insonning oliy maqsadlarini kuyilash Navoiy metrosida asosiy o'rin tutadi.

Navoiyning pedagogik qarashlari o'ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergan. Navoiy farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq, deb bilgan.

Navoiy bolaga uning yoshiga qarab eng kichik yoshdan to'g'ri tarbiya berish zarur, fanlarni o'rganishni iloji boricha barvaqt boshlash lozim, deya ta'kidlagan.

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy g'arbning buyuk olimlaridan biri hisoblanadi. Uning pedagogik tizimi o'sib kelayotgan avlodni insoniylik, tinchliksevarlik, tenglik va birodarlik ruhida tarbiyalash g'oyalari bilan yo'g'rilgan.

Ya.A.Komenskiyning pedagogik merosi ulkan va ko'p qirralidir. Olimning chop etilgan falsafiy va pedagogik asarlari uning tarixiy ahamiyatini belgilab berdi. «Onalar maktabi»da qayd etilgan bolani dastlab oilada tarbiyalash va rivojlantirish g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Hajmi kichik, biroq mazmuni juda chuqur bo'lgan mazkur asarni unda qo'yilgan muammolarning dolzarbligi va ahamiyatligi, ularni amalga oshirish uchun taklif qilinayotgan yo'llar va vositalarning soddaligi hamda ishonchligi, nihoyat oila, ayollar, bolalar va ularni tarbiyalashga bo'lgan munosabating insoniy yo'nalishga ega bo'lgan yo'riqni uni mumtoz asarlar sirasiga kiritish mumkin. «Inson zotini himoyalash eng avvalo beshikdan boshlanishi lozim». Bundan ortiq sodd va dono fikr bo'lmaydi. Uddaburon olimlar qaysi bir ijtimoiy tarbiya tizimini kashf qilmasinlar, baribir bolalar hayot kechiradigan, ular jismonan va ma'nan rivojlanadigan muhit sifatida oila eng samarali tarbiya tizimi hisoblanadi.

Qatorlashgan g'oyalar tizimiga ega bo'lgan «Onalar maktabi»ni birlamchi oltaviy tarbiya bo'yicha birinchi asar deb hisoblash mumkin.

«Onalar maktabi»ning bosh g'oyasi - oiladagi birlamchi tarbiyaning bola uchun quvonchli bo'lishi, uning kelajagini baxtli, ota-onalar uchun yuqimli va umidбахsh, jamiyat uchun foydali qilishdan iboratdir.

Komenskiy tabiiy iqtidorni ilk yoshdan boshlab har tomonlama rivojlantirish g'oyasidan kelib chiqqan holda onalar maktabi oldiga qiyin vazifalarni, ya'ni: bolalarga bilish (bilimga ehtiyojmandlikni tarbiyalash, bilimga chanoqlik)ni, harakat qilish (mehnatlash bo'lish, o'zini boshqara olish va yaxshi amallar qilish)ni va gapirish (nutq va fikrlashni rivojlantirish)ni o'rgatish vazifalarini qo'yadi. Shu munosabat bilan u aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiyalash, nutq va fikrlashni rivojlantirish bo'yicha aniq maslahatlar beradi.

«Onalar maktabi»dagi alohida bir bob «qanday qilib bolalarga nutqni mashq qildirish» lozimligiga bag'ishlangan. Komenskiy «aql va nutqni rivojlantirish uchun bir xil harakat qilish zarur deb hisoblagan. U «aql» va «nutq»ga organik birlama sifatida qaragan. Va bu tasodifiy emas, zero bola nutq tufigayi o'z fikrlarini ifodalaydi va atrofdagi odamlar bilan mulohaza kirishadi, nutqni egallash orqali u atrofini o'rab turgan olamni anglaydi. Bolada nutq va fikrlash rivojlanadi.

U sensor rivojlantirish va tarbiyalashga alohida e'tibor bergan, chunki usiz aql va nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirib bo'lmaydi. Buyuk pedagogning mazkur

qoidaga rioya qilishni «didaktikaning oltin qoidasi» deb atagan ham bejiz emas.

Nutqqa taalluqli bo'lgan boshqa bir g'oyani Komenskiy ona tilini o'qitish, ona tilida o'rgatishni talab qilish shaklida ifodalagan. Maktabgacha yoshda ona tilini o'rgatish, Komenskiy xulosasiga ko'ra, - bu eng avvalo bola hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlantirish, bo'g'inlar va so'zlarni aniq talaffuz qilish, gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, narsalarning nomini to'g'ri aytilish va mos fikr bildirishdan iborat. Ushbu maqsadda Komenskiy ota-onalarga bolalar bilan mulohaza qilishda narsalar nomlarini va so'zlarni buzmasdan, to'g'ri aytilish, bolalarga talaffuzi qiyin bo'lgan va nisbatan uzun so'zlarni aytilishni mashq qildirish va buning uchun o'yin uslubidan foydalanishni maslahat beradi. Komenskiyning xizmati shundan iboratki, u pedagoglar ichidan birinchilardan bo'lib bola nutqini rivojlantirishda, uning ona tilini butun go'zalligi va milliy xususiyatlari bilan birgalikda o'zlashtirib olishda she'riyat, ertaklar, maqollar va muntalar, tez aytilishning turgan o'miga birinchi bo'lib e'tiborni qaratdi. Gapirishni boshlayotgan bolalarning kattalar nutqini tushunishlari uchun ular so'zlovchining yuzini va uning qo'l harakatlari ko'rinishi, uning savollari tushunishlari va to'g'ri javob berishlari dardkor, deb yozgan edi Komenskiy. Ona tabassumi va bola tomonga cho'zilgan qo'llar, imlash, kallarni qimirlatib qo'yish, qayg'uli yuz va barmog' bilan do'q urish - bularning barchasi so'zlovchining kayfiyatini ifodalaydi, buni bola qabul qilib oladi va u aytilgan fikrni tushunishga yordam beradi. Bu ritorik harakatlardan mulohazada juda asqotadi, nutqni va fikrlashni rivojlantiradi.

Ya.A.Komenskiyning «Onalar maktabi» asari g'arbda va Rossiyada oltaviy tarbiyaning keyingi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. K.D.Ushinskiy va E.N.Vodovozova birlamchi oltaviy tarbiyaga shaxsni shakllantirish tizimidagi o'ta zarur bosqich sifatida qaraganlar. Bularsiz o'sib kelayotgan avlodni muvaffaqiyatli tarbiyalash borasidagi barcha harakatlarnimiz zoe ketadi. XULOSALAR:

Sharq mutafakkirlarining asarlarida tarbiyaga, shu jumladan oltaviy tarbiyaga katta e'tibor berilgan.

Ularning barcha asarlarida o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy kamol topirish, ideal jamiyat talablari va vazifalariga javob bera oladigan, yuqori afzalliklarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish masalasi asosiy o'rin tutadi.

Keng qamrovli shaxsni shakllantirish faqat ta'lim va tarbiya orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

Tarbiyaning barcha murakkabligi va qiyinchiliklarini tushungan holda Sharq olimlari tarbiya va ta'lim mazmunini belgilab berishga intilganlar (Ibn Sino).

Tarbiya - ota-onalarning qanday mavqega ega bo'lgan qariy nazar ularning osho'liy vazifasidir. Olimlarning bola shaxsini hurmat qilish, uning qiziqishlarini

o'rganish, tabiiy qobiliyatini hisobga olish haqidagi fikrlari (Ibn Sino, D.Dovoni, Alisher Navoiy) juda qimmatlidir. Ya.A.A.Komenskiyning «Onalar maktabi» asari birlamchi oilaviy tarbiyaga oid yaxlit tizimli birinchi asar hisoblanadi.

«Onalar maktabi»ning bosh g'oyasi - oiladagi birlamchi tarbiyaning bola uchun quvonchli bo'lishi, uning kelajagini baxtli, ota-onalar uchun yuqimmi va umidбахsh, jamiyat uchun foydali qilishdan iboratdir.

Komenskiy fikriga ko'ra, shaxsni shakllantirishni «haqiqiy tarbiyaning poydevori» bo'lgan ilk yoshdan boshlash oson.

Tabiiy iqtidomi (miya, yurak, qo'l, til) rivojlantirish onalar maktabi tomonidan bolaning ilk yoshlaridan boshlab o'tkazilishi lozim.

Sensor va aqliy tarbiya masalasini birinchi bo'lib Ya.A.Komenskiy o'rtaga tashladi.

Komenskiy o'tmishdagi pedagoglar ichida birinchilardan bo'lib nutqni rivojlantirish, ona tilining butun go'zalligini va uning milliy xususiyatlarini o'zlashtirib olishda xalq og'zaki ijodiyotining tulgani o'miga e'tibor qaratadi.

Ya.A.Komenskiyning «Onalar maktabi» asari g'arbda va Rossiyada oilaviy tarbiyaning keyingi rivojiga ta'sir ko'rsatdi.

XVIII - XIX asrlardagi o'zbek olimlari, pedagoglari o'sib kelayotgan avlodga talim va tarbiya berish haqida

Muhammad Rizo Emiyozbek O'gahiy (1809-1874) - shoir, ko'plab tanikli tarixiy va badiiy asarlar muallifi, tarjimon.

O'gahiy ijodiy merosining asosiy mazmunini marifat, talim, mahaviy rivojlanish va tarbiya g'oyalari tashkil etadi. O'gahiyning alohida xizmatlari shundan iboratki, u savodsizlik va diniy mutaassiblik hukm surgan bir paytda u ilmfan va marifati izchil himoya qilib chiqdi. Shoir yuksak mahaviy ko'tarilish, bilim olishga bo'lgan intilishlardan iborat deb qaraydi.

O'gahiyning pedagogik qarashlari uning adabiy-badiiy, adabiyotshunoslik va tarixiy mavzulardagi asarlarida o'z aksini topgan. Ayniqsa uning XI-asrning adabiy yodgorligi hisoblanadigan «Qobusnoma» nomi asarining forschadan o'zbek tiliga tarjima qilinishi O'zbekistonda pedagogika fanini rivojlantirishga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Berdaq (Berdimurot Qarg'aboev - 1827-1900) - marifatchi shoir, qoragapqoq adabiyotining asoschisi hisoblanadi. Berdaq ijodining asosini tenglik, marifat, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik tashkil etadi. Berdaq o'z asarlarida tarbiyaga nisbatan o'z munosabatlarini insonni tarbiyalashni boshlashdan oldin uni har tomonlama o'rganib chiqish zarur, degan tasavvurdan kelib chiqqan holda bayon qildi. Uning fikricha, tarbiya, jismonan va ruhan rivojlantirishdan iborat

bo'lishi lozim. Berdaq sayoz mazmunli darsliklarni tanqid ostiga olgan, butun xalqni yoppasiga savodli qilish g'oyasini oldinga surgan. U bilim olish, ilm-fanni rivojlantirish jamiyatning ham mahaviy, ham moddiy rivojlanishiga yordam beradi, deb hisoblagan.

Shuningdek, Berdaq yoshlarni tarbiyalashga katta e'tibor bergan. Aqliy va axloqiy tarbiyani o'zaro bir-biriga bog'liq, deb hisoblagan shoir faqatgina aqlan rivojlangan odamlariga oliy axloq egalari bo'lishi mumkin, degan fikrni oldinga surgan.

Anbar otin (1870-1915) - o'zbek shoirasi va marifatchisidir. U qizlarga shet' yozish qonun-qoidalarini, odob-axloqni o'rgatgan.

Anbar otin ijodida marifatchilik mavzusi fuqarolik, vatanparvarlik va xalqlar do'stligi g'oyalari bilan qorishib ketgan. Shoir marifati shaxsni ozod qilish yo'lidagi bir mash'ala deb hisoblagan.

Xalqqa marifat ziyosini tarqatish tashvishida yurgan Anbar otin Furqatga shet'riy maktab yozadi, unda shoir uning yangi maktab ochish haqidagi talabini qo'llab-quvvatlashni so'raydi. Zero, u mavjud boshlang'ich maktablar va madrasalar aholi savodsizligi muammosini hal qila olmasligini yaxshi tushunardi.

Abduqodir Shokiriy IX asrda tanikli pedagog bo'lib, u Samarqandda yangi usuldagi ilk maktabga asos solgan va O'zbekistonda talim rivojiga ulkan hissa qo'shgan pedagog. Abdulla Avloniy - jamoat va siyosat arbobi, shoir hamda pedagog bo'lib, u 1908 yilda maktab ochadi. Uning o'zi shu maktabda yangi talim usullarini qo'llagan holda ona tilidan dars beradi. Avloniyning xalq talimi sohasidagi faoliyati uning yozuvchi va shoir, iqtidori yoshlar teatrining tarbiyachisi hamda sahnalashtruvchi rejissyori sifatidagi faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

1917 yilning yozidan boshlab Avloniy «Turon» gazetasi chiqara boshlaydi. Ushbu gazeta sahifalarida Avloniyning xalq maktabini tashkil etish, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash va darsliklar chop etish masalalariga bag'ishlangan ko'plab maqolalari bosiladi. Ayniqsa, u yosh talim-tarbiya berish va ular uchun maxsus maktablar tashkil etish muammosiga alohida e'tibor beradi. Ushbu yillarda Avloniy «Adabiyot» (I-IV-kiitoblar), «Turkiy guliston», «Maktab gulistoni» kabi kitoblarni yozadi va chop etadi.

A. Avloniy dunyoqarashining shakllanishida ilg'or rus adabiyoti va madaniyati muhim rol o'ynaydi. U A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, M.Gorkiyning ijodiy meroslariga katta hurmat bilan munosabatta bo'lgan va K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini yuqori baholagan.

G'. G'ulomning shoir sifatidagi faoliyati O'zbekistonda xalq talimini tashkil

etish va uni rivojlantirishga qaratilgan keng jamoatchilik faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Shoirning savodsizlikka qarshi kurashdagi hisssasi ham sezilarlidir.

G'.G'ulomning pedagogik faoliyati ham huddi uning adabiy ijodi kabi yoshlarga chuqur bilim berish, ularni axloqli va didli qilib tarbiyalash, shuningdek pedagogika fani nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan. Shoir asarlarining pedagogik xususiyatlaridan biri shuki, u bolalarning ichki dunyosini, ularning kayfiyatini, kechinmalarini va shaxsiy intilishlarini his qila olgan.

U yaratgan qahramonlar obrazlari hayotdan olingan. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, G'.G'ulom asarlari natijat yuqori saviyali badiiy proza namunasi hisoblanadi, balki ular tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

G'.G'ulom bolalarni oltada tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat bergan. U bolaning qanday voyaga etishi, uning jamiyatda qanchalik munosib o'rin egallashi bevosita ota-onalarga bog'liq, deb hisoblar. Oltaviy tarbiyada u ota-onalarga asrlar sinovidan o'tgan xalq pedagogikasini qo'llashni tavsiya qilgan.

XX asr boshlarida yashab ijod etgan Oybek o'zbek adabiyotiga asos solgan yozuvchilar qatoriga kiradi.

Oybekning badiiy va publisistik asarlarida uning pedagogik g'oyalari va qarashlari yaqqol ifodalangan. Oybek yozuvchi sifatidagi o'z vazifasini xalqqa, Vatanga xizmat qilishdan iborat, deb bilgan, so'zni tarbiyaning qudrati va ishonchli vositasi deb hisoblagan. Bolada ziyo va mahnaviyat urug'ini ekmay turib, uni haqiqiy kurashchi va fuqaro qilib voyaga etkazish mumkin emas, degan fikr Oybek ijodining muhim jihatlardan biri edi. Shuning uchun u yoshlarni bilim olishga, xalqning boy tarixiy tajribasini, butun insoniyatning mahnaviy boyliklarini o'zlashtirishga chaqirgan. U yosh avlodni tarbiyalashda mehnatning tugan o'miga katta ahamiyat bergan, faqatgina mehnat yordamida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni voyaga etkazish mumkin, deb hisoblagan. Bu yozuvchining asosiy pedagogik fikri edi. Bolalar tarbiyasida nutqning o'rni, miga urg'u qaratgan yozuvchilardan Hamid Olimjon o'tgan asr adabiyotining yirik vakillaridan biridir. Hamid Olimjon o'zbek adabiyoti rivojiga va O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. U maktablarda, bolalar saroylarida, bolalar uyalarida, respublikadagi oliy o'quv yurtlarida tez-tez bolalar bilan suhbatlar o'tkazar va ularga o'z she'rlaridan o'qib berardi.

H. Olimjon o'z asarlarida insoniyatning yuqori idealiga sodiq qolgan holda hayotni haqoniy aks ettirgan. Bu asarlar yosh avlodni badiiy-estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Uning ko'plab asarlari 20-asrning nihoyasidan boshlab to bugungi kungacha O'zbekistondagi maktablar, o'ra-maxsus o'quv muassasalari va pedagogika oliy

o'quv yurtlarining o'quv rejalariga kiritib kelimmogda.

XULOSALAR:

-XVIII-XIX asrlardagi o'zbek olimlari, pedagoglari, yozuvchilari jamiyat fanovonligini oshirish vositasi sifatida ma'rifatparvarlik, bilim olish va fanlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berganlar.

-O'zbek ma'rifatchi demokratlari (Zavqiy, Furgat, Muqimiy) xalqning qoloqligini bartaraf etishda ma'rifatning o'rni beqiyos deb bilganlar. Kapitalizmning kirib kelishi bilan jamiyatda yuz bergan ayrim progressiv o'zgarishlarni anglash, Turkistonning Rossiyaga qo'shib olinishi tufayli yuz bergan texnikaviy rivojlanishni tan olish ular dunyoqarashlarining muhim tarkibiy qismini edi.

-Ushbu davrdagi o'zbek olimlari, yozuvchilari rus muntoz adabiyoti, madaniyati bilan tanishadilar, rus tilini o'rganadilar va ularning O'ra Osiyodagi faol targ'ibotchilariga aylanaadilar.

-Ularning tashabbusiga ko'ra (S.Siddiqiy, A.Shokiriy, A.Avloniy) yangi usuldagi maktablar ochiladi, ularda dunyoviy fanlar o'qitiladi; ayniqsa o'zbek qizlarini o'qitishga alohida e'tibor beriladi.

-Ular tomonidan maktablar uchun yangi darsliklar yaratiladi.

-Ular milliy ilmiy va pedagogik kadrlarni, ziyolilarni tayyorlash ishiga katta hissa qo'shganlar.

-30-yillarda respublikada psixologiya faniga asos solindi, uning asoschisi O'zbekistonga taklif qilingan birinchi rus psixolog mutaxassisi P.I.Ivanov edi.

-1931 yilda qori-Niyozov o'zbeklar ichida birinchi bo'lib professor unvoniga, 1939 yilda esa - fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi.

-O'zbek yozuvchilarining butun adabiy ijodi va pedagogik faoliyati o'quvchi yoshlarga chuqur bilim berish, ularni axloqli va didli qilib tarbiyalash, pedagogika fani nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan.

BOLALAR NUTQNI RIVOJLANTIRISH FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Bolalar tarbiyasi va nutq
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish maqsadi
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish vazifasi

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachisining bolalarga ularning o'z ona tilini o'rgata olish qobiliyati uning kasbiy tayyorgarligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bolaga tabiat ato qilgan barcha aqliy qobiliyatlar ona tilini o'zlashtirish, ayniqsa uni maktabgacha yoshda o'rganib olish tufayli yuzaga chiqadi hamda rivojlanadi. Bolalarning ona tilida avlodan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ma'naviy boyliklarini qanchalik meros qilib olishlari, tarbiyalanuvchilarning kelgusida o'z davrining ilmiy yutuqlarini o'zlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilg'or sheryi va estetik ideallariga sodiqligi, ya'ni mustaqil O'zbekistonda demokratik jamiyatning to'laqoni quruvchilari bo'la olishlari tarbiyachiga bog'liqdir.

Bolalarga ona tilini o'rgatish uchun bo'ljak tarbiyachi nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chuqur o'rganishi va ushbu sohaning faniga ma'lum bo'lgan metodlarini o'zlashtirishi, bolaning ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlarini tushunib etishi lozim.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi pedagogik fanning bir tarmog'i hisoblanadi. Unda bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish metodikasi hamda boshlang'ich va o'rta maktabda o'zbek tilini o'qitish metodikasi ajratilgan. Ularning har biri o'z maqsadi vazifalari va mazmuniga ega.

Bolalar nutqini rivojlantirish – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Metodikaning asosiy vazifasi – ilmiy-psixologik asosda nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalari, metodlari va usullarini ishlab chiqish hamda bolalarda zarur nutqiy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirishlari uchun ular bilan bolalar bog'chalari tarbiyachilarini qurollantirishdan iboratdir.

Fanning asosiy mazmuni - bolalarda og'zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy mulqoti ko'nikmalarini shakllantirishdir. Nimani o'rgatish (bolalarda qanday nutqiy ko'nikmalarni tarbiyalash), qanday o'rgatish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysiusullardan foydalanish lozim), nega endi

aynan shunday o'rgatish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma'lumotlariga asoslanmoqda).

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini o'stirishda ona tilini o'rgatishning xususiyatlari aks ettirilgan, nutqni rivojlantirish metodikasi sohasida O'zbekiston Respublikasida va horijda yaratilgan va hozirda mavjud bo'lgan barcha ijobiy natijalar umumlashtirilgan.

Bolalar nutqini rivojlantirish metodik amaliyot bilan birgalikda rivojlanmoqda. Ayrim metodik qoidalarning yashovchanligi amaliyotda tekshirib ko'rilmoqda, amaliyotning o'zi fan oldiga hali o'z echimini topmagan muhim masalalarni qo'yarmoqda.

Metodik nazariyani bilimaydigan tarbiyachi faqat o'z farazlaridan kelib chiqib yoki boshqalarning tajribalaridan nusxa ko'chirgan holda bolalarni ko'r-ko'rona tarbiyalaydi. U ko'p narsani nazardan qochiradi, chunki rang-barang metodlar va usullarni bilimaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish maktabgacha ta'limdagi boshqa metodikalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi, chunki nutq – bola shaxsini to'la-to'kis rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Atrofdagilar nutqini tushunish va bolaning o'z faol nutqi har qanday pedagogik jarayonda zarurdir. Nutq bolaning butun faoliyatida unga yo'l do'sh bo'ladi.

E.I. Tixeevning ko'rsatishicha «ona tili, uni hech qanday to'siqsiz va har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning asosini tashkil etmogi lozim». Nutqni o'z vaqtida va to'laqonli egallash bolada to'laqonli psixika paydo bo'lishi hamda uni keyinchalik to'g'ri rivojlantirishning eng muhim va birinchi shartidir. O'z vaqtida degani – demakki, bola tug'ilganidan keyingi dastlabki kunlarda boshlanadigan, to'laqonli degani – til materiali bo'yicha etarli bo'lgan va bolaning har bir yosh bosqichida o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solgan holda nutqni egallashga undovchi mashg'ulotlar demakdir.

Bola nutqini rivojlantirishga etibor berish shuning uchun ham muhimki, ushbu davrda bola miyasi jadal sur'atda o'sib boradi va uning vazifalari shakllanadi. Fiziologlar ma'lumki, markaziy asab tizimi vazifalarini aynan ularning tabiiy shakllanish davrida osongina mashq qilinishi mumkin. Mashqlarsiz ushbu vazifalarning rivojlanishi sekinlashadi va hatto umuman to'xtab ham qolishi mumkin.

«Nutq uchun rivojlanishning bunday «hal qiluvchi» davri bola hayotining dastlabki uch yili hisoblanadi: bu muddatga kelib miya nutqiy sohalarning anatomik pishib etilishi asosan nihoyasiga etadi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini o'zlashtirib oladi, katta so'z zahirasini shakllantiradi.

Agarda dastlabki uch yilda kichikintoy nutqiga etarlicha e'tibor berilmagan bo'lsa, bu holda kelgusida uning o'rini to'ldirish uchun juda ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi».

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish boshqa har qanday pedagogika fani sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Til va fikrlash haqidagi ta'limotlar uning metodologik asosi hisoblanadi.

Xuddi til kabi insonning birgalikdagi mehnat faoliyati mobaynida paydo bo'ladigan va rivojlanadigan fikrlash uni o'rab turgan borliq aksi hisoblanadi. Tilning fikrlash bilan mustakam uzviy bog'liqligi kishilarning ishlab chiqarish faoliyati, fikr almashish va birgalikda harakat qilish zarurati tufayli yuz beradi. Garchi til va fikrlash bir-biridir mavjud bo'lmasa-da, ular aynan bir hodisaga taalluqli emas.

Agarda bola atrofidagi katalar uni beshikdan boshlab to'g'ri so'zlashga o'rgatsalar, bu holda bunday bola intellektual jihatdan normal rivojlanadi: unda tasavvur qilish, so'ngra fikrlash va xayol surish qobiliyati paydo bo'ladi; har bir yosh bosqichda bu qobiliyat takomillashib boradi. Bola intellektning rivojlanishi bilan bir vaqtda uning emosional-iroda sohasi ham takomillashib boradi.

Bola nutqining rivojlanishi har qanday rivojlanishning umumiy shakllari, tomonlari va o'zaro bog'liqligini aks ettiradigan dialektika qonunlari va toifalariga tayanadi.

Til – tarixiy va o'zgaruvchan hodisadir. Har bir xalq, millat, elat va odamlar qabilasi o'z tiliga egadir. Har bir xalqning tilida mazkur jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayoni, uning turmush sharoiti, ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar va yangilanishlar, ijtimoiy-mehnat faoliyatidagi yangi kashfiyotlar va erishilgan natijalari aks etgan.

Har bir til o'zining asosiy qismlariga ega – bu lug'at boyligi (leksika), tovush tizimi (fonetika) va grammatik tuzilishi (grammatika)dir.

Lug'at boyligi (leksika) go'yo o'zida bizzning atrof-olam haqida, bir odamning psixik hayoti haqidagi turli xil bilimlarini saqlaydi. So'zda asosiy narsa – uning mazmuni va sementik tarkibidir. Leksika tilning qurilish material, uning mazmun tomoni hisoblanadi. Til qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning lug'at tarkibi ham shunchalik boy bo'ladi. Har bir tildagi ko'p sonli so'zlar ichidan tilning asosiy lug'at jamg'armasini tashkil qiladigan asosiy o'zak so'zlarning muayyan guruhini ajratish mumkin. Tilning lug'at jamg'armasi – bu leksikaning juda barqaror, asrlardan buyon yashab kelayotgan qismi bo'lib, u barcha yoki deyarli barcha yangi so'zlar va so'z birkmalarning vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tovush tizimi leksika va grammatika bilan uzviy bog'liqdir. Jaranglayotgan

14

nutq yordamida inson boshqa kishilar bilan mulqotda bo'ladi hamda o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifoda qiladi. Bir til fonetikasi odatda, boshqa til fonetikasiga o'xshash emas, ya'ni jaranglayotgan nutq go'yo bir tilni boshqasidan uzozqlashtiradi. Bir til doirasida talaffuz me'yorlari yagona bo'ladi (shevalar adabiy tilidan katta bo'lib, ular undan farq qiladi).

Tilning grammatik qurilishi gapda so'zlar va so'z birkmalari o'zgartirishga oid qonunlar hamda qoidalarining umumiyigi hisoblanadi. Grammatika yordamida gapdagi so'zlar joylashiriladi va bir-birlari bilan qo'shiladi. So'zlar faqat gaplar orqaligina mulqot vositasiga aylanadi. Gapdan tashqarida har qanday so'z, xoh u ona tilidagi, xoh chet tilidagi so'z bo'lsin, muayan ma'noga ega bo'lmaydi. Shuning uchun tilni o'rganishda uning grammatik tuzilishini o'zlashtirish ulkan ahamiyat kasb etadi. Bolalarga ta'lim berishda orfoepiya, grammatika va leksikaning zamonaviy me'yorlarini hisobga olish zarur.

Nutqni rivojlantirish metodikasi psixolingvistikaning asosiy qoidalari asosida quriladi. Uning «til inson faoliyatining barcha sohalarda mulqot vositasi bo'lib xizmat qiladi» degan asosiy qoidasi nutqni rivojlantirish metodikasida dasturlamal bo'lib hisoblanadi. Shu bois nutqni rivojlantirish metodikasi tarbiyachini mulqot vositasi sifatida bolalar nutqini rivojlantirishga oid bilimlar va qobiliyatlar bilan qurollantirishga qaratilgandir.

Tilning asosini ona tilning tovush, tizimi leksikasi va grammatik tuzilishi tashkil qiladi. Bolalarning turli nutqiy qobiliyatlarini shakllantirishda ularga o'zlarining ona tili bo'linish o'zbek tili o'rgatiladi, ya'ni ular o'zbek leksikasi, o'zbek tilning o'ziga xos fonetikasi va o'zbek tili grammatikasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini o'stirishda bolalarga ona tilini o'rgatishda professional mahoratga ega bo'lish uchun pedagog nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chuqur o'rganishi, ushbu rivojlanishning ilmiy usullarini o'zlashtirishi hamda bolaning nutqni o'zlashtirish qonuniyatlarini bilishi shart.

XULOSALAR:

Nutqni rivojlantirish metodikasi – bolalar bog'chasidagi maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik fandir.

Metodikaning asosiy vazifasi – ilmiy-pedagogik asosda nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalari, metodlari va usullarini ishlab chiqish, ular bilan bolalar bog'chalari tarbiyachilarini qurollantirishdan iboradir.

Metodikaning asosiy mazmuni – bolalarda og'zaki nutqni, atrofdagilar bilan nutqiy mulqot ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

15

Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi savollarga javob beradi: nimani o'rgatish lozim (bolalarda qanday nutqiy qobiliyatlarni tarbiyalash lozim), qanday o'qitish zarur (bolalar nutqini shakllantirishda qaysi metodlar va usullarni qo'llash lozim, ularni qanday sharoitlarda qo'llash zarur), nega endi ayran shunday o'qitish kerak (taklif etilayotgan usullar nazariya va amaliyotning qaysi ma'lumotlari bilan asoslanmoqda).

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Til hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, biz unga o'z-o'zidan bo'lishi shart bo'lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning o'zi nima, biz unda qanday so'zlayapmiz, biz qanday qilib so'zlashni o'rganishimiz haqida esa unchalik ko'p o'ylab ham o'irmaymiz. Hammaga yaxshi ma'lumki, tilni o'rganuvchi maxsus fan bo'lib, uning nomi – lingvistikadir.

Garchi biz boshqa fanlarni rivojlantirishning muhimligi haqida so'z boshlagan ekamiz, til tabiiy fanlar rivojiga biron-bir ta'sir ko'rsata oladimi, degan savolga javob beraylik. Hozirda til va nazariya zamonaviy fanlarga oid metodologik muammolarning markazidan joy olgan, chunki «umumlashtirilgan bilimlar tizimidan iborat bo'lgan va bilimni uyushiruvchi boshlang'ich bosqich sifatida chiqadigan nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o'rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy ufqlarni ochadi, uni o'zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jingina o'tiradigan burchagidan chiqishga majbur qiladi»

Tabiiy fanlarning insoniyat taraqqiyotida, bizning kundalik hayotimizda egallagan ulkan o'rini hech bir kamstmagan holda shuni unutmastik lozimki, barcha tabiatning eng qiziq, murakkab va hozircha o'rganilmagan hodisasi – bu insonning o'zidir. Shuning uchun so'nggi payida insonni o'rganuvchi fanlarga, va eng avvalo psixologiyaga katta ahamiyat berilmogda.

Biz «til» so'zini qo'llaganimizda ikki narsani – til va nutqni nazarda tutamiz. Bu farqlashlarni lingvistika faniga birinchi bo'lib shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur kiritdi va u tilni nutqqa qarshi qo'ydi, bu lingvistika fanining keyingi rivoji uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi, chunki «biz til va nutqni ajratish orqali ijtimoiyatni individuallikdan ajratamiz». Boshqacha qilib aytganda, bu alohida bir odam tomonidan alohida holatda amalga oshirish bilan biron-bir tilda so'zlayotgan barcha odamlar tomonidan birgalikda amalga oshirish o'rtasidagi farqlashdir.

A.A.Leontev «tilga qobiliyatni – til tizimining ushu tilda so'zlayotgan inson ongida aks etishini, «tili jarayoni», ya'ni tilga qobiliyatni amalga oshirish vositasi bo'lgan nutqning o'zini, va «tili standartini» – tilni individdan tashqarida mavjud bo'ladigan tizim sifatida ajratgan Shunday qilib, u tomonidan til va nutqni farqlashdan tashqari odam ongida mavjud bo'lgan hamda unga tilan foydalanish, so'zlash va aytilgan so'zlarni tushunish (tilga qobiliyat) imkonini beruvchi bir narsani ham ajratib ko'rsalgan. Bu narsa

mexanizmdir.

Odatta nutqiy faoliyat to'rtga ajratiladi: o'qish, yozish, so'zlash, tinglash. Ular o'zaro juft holatda bog'lanadi va til tizimini amalga oshirishning ikki shakli – og'zaki va yozma shakli orqali belgilanadi.

Til eng bevosita tarzda fikrlash bilan bog'liqdir. Aslida tilning o'zi fikrlash qurolidir. Fikrlash jarayoni doimo tilda kuzarib boriladi, ammo uning natijasi til shakliga o'tkazilishi va shu tufayli kelgusi avlodlarga eib borishi mumkin.

Til aqliy faoliyatni rejalashtirish imkonini beradi. Rejalashtirish jarayonida tilning yana bir muhim vazifasi – insonning xulq-atvorini boshqarish vazifasi paydo bo'ladi. Til insoniyatning o'tirishi mobaynida butun tajribasini to'plash va bir joyga jamlash, insonni ushbu tajriba natijasida ishlab chiqilgan me'yorlarga bo'yusundirishga yordam beradi. Biz o'z o'tirishimizda, bugungi kunimizda ko'rgan va hatoki kelgusida ko'rishimiz mumkin bo'lgan narsalarning barchasi bizga til orqali keladi. Insonning xulq-atvorini boshqaradigan narsalarning barchasiga, jumladan dunyoqarash, axloqiy va estetik ideallar, madaniy me'yorlarga til va nutqiy mulogot orqali erishiladi.

Inson butun hayoti mobaynida borliqni anglash jarayonida ishtirok etadi. Bilishga bo'lgan ehtiyoj ko'p jihatdan til orqali qondiriladi.

Bola atrofi o'rab turgan borliqni qabul qilish va anglash uchun u tarqoq predmetlardan foydalana olmaydi, u ahaliyatga molik jihatlarini ajratib ko'rsatgan holda ob'ektlar, toifalarni birlashtira boshlaydi va oxir-oqibatda belgilarni umumlashtirish natijasida so'z bilan ifodalangan tushunchalar paydo bo'ladi. Biton-bir tushunchaning, xoh u maishiy bo'lsin, xoh ilmiy bo'lsin, uning so'z qobig'isiz yashashi qiyin. Shu tufayli biz o'z bilimlarimizni tilimizda qayd etishimiz, ularni boshqa odamlarga etkazishimiz va til orqali yangi bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Insonning yana bir o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu – boshqa odamlar bilan mulogotga ehtiyojmandlik, emotsional mulogotga ehtiyojmandlik (K.Obuxovskiy). Aynan shu ehtiyoj tufayli dastlab til paydo bo'lgan. Mulogotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so'zlashni o'rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to'g'ri keladi, buning uchun esa bolaning unga mimlar deyishayotganliklarini tushunishi va o'zi ham so'zlashi lozim. Bu o'rinda «tilning uch sifati» (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – mulogotni amalga oshirish) haqida so'z yuritish mumkin (V.A.Zvegimsev). Tini tadqiq qilish mustaqil, umumilimiy qiziqishdan tashqari ko'plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahaliyatga egadir. Ushbu vazifalarning ayrimlari bevosita tilning

yuqorida sanab o'tilgan vazifalaridan kelib chiqadi – til yordamida insoniy tajribani aniqroq qayd etish, til yordamida ifoda etilgan madaniy me'yorlar insonning xulq-atvoriga yanada kuchliroq va mustahkamroq tariqda soluvchi ta'sir ko'rsatishi uchun, kishilarning o'zaro mulogoti (masalan, ijtimoiy munosabalar sohasida) yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun tilni tadqiq qilish zarur.

Bundan tashqari, hal etilishi til muammolarini tadqiq qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa amaliy vazifalar ham mavjud. Psixologiya, boshqaruv nazariyasi, ijtimoiy fanlar sohasida ish olib borayotgan olimlar qator lingvistik vazifalarga duch keladilar. Xususan, ruhiy jarayonlarni tadqiq qilish dastlabki nutqiy jarayonlarni ham tadqiq qilishni ko'zda tutadi. Tushunchalarni rivojlantirish, aqliy va amaliy vazifalarni hal etish qay tarzda davom etmoqda, bola tashqi muhitga (moddiy va ijtimoiy) muhitga qanday moslashmoqda – bu savollarga javoblar nafaqat predmetli harakatlarni, balki nutqning o'zini ham o'rganishni ko'zda tutadi.

Mulogot va boshqaruv – lingvistikaning boshqa bir ulkan sohasi hisoblanadi. Targ'ibot va tashviqot (u bevosita mulogot tarzida yoki ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirishidan qat'iy nazar) mohiyatan insonning ruhiy olamiga ta'sir ko'rsatish uchun tildan foydalanish shaklidir. Til orqali ta'sir ko'rsatish samarali bo'lishi uchun ushbu ta'sirning mexanizmlarini, o'ziga xos nutqiy mexanizmlarni bilish zarur.

Sof lingvistik vazifalar masalan, samolyot, kosmik kerna va hokazolar bilan so'z orqali aloqa qilishni amalga oshirayotgan operator faoliyatini oqilonla tashkil etish paytida yuzaga keladi.

Lingvistikani qo'llashning yana bir sohasi – tibbiyotning miyaning yuralanishi, jarohat olishi yoki unga shikast etishi natijasida nutqdagi buzilishlarni o'rganuvchi sohasi bo'lmish afaziologiyadir. Bu nuqsonlarni aniqlash va davolash ko'p jihatdan bemorning nutqida aynan qanday o'zgarishlar yuz berganiga bog'liq bo'ladi. Bu anomali nutq uchun maxsus til xususiyatlarini shakllantirish zarurati paydo bo'ladi, o'z-o'zidan bu o'rinda vrach-afaziolog lingvistikning yordamiga multtoj bo'ladi.

Nutqdagi buzilishlar – inson ahvoliini baholashda til parametrlari yordam berishi mumkin bo'lgan yagona holat emas. Ayrim vaziyatlarda (ruhiy zo'rqlash, siqilish paytida) yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan odamlarda fiziologik parametrlar bo'yicha ayrim nuqsonlar sezilmaydi. Ammo ularning nutqi mutaxassis bo'lmagan odam tushunishi qiyin bo'lgan darajada o'zgaradi. Ko'pincha faqat til mezonlarigina bunday holat yuz berishidan dalolat berishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, til bevosita bilish jarayonlari bilan bog'liq, va bundan tashqari, tilning rivojlanish darajasi umumiy aqliy rivojlanish darajasiga

bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bola nutqini maxsus tadqiq qilish ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarni yoki rivojlanish sekinlashganini aniqlashda yordam berishi mumkin, hattoki bu usul boshqa tekshiruv turlari bunday nuqsonlarni aniqlanmagan taqdirda ham qo'llanish mumkin.

Lingvistika kriminalistika ham katta yordam berishi mumkin. Masalan, jinoyatchini uning nutqining bir parchasi (yozma yoki og'zaki) bo'yicha topish, ko'rsatmalarining yolg'onligini fosh qilish (ata'ylab yolg'on so'zlaganda inson nutqi mutaxassis bo'lmagan odam sezmaydigan darajada o'zgaradi) mumkin.

Va nihoyat, lingvistikaning an'anaviy amaliy vazifasi — chet tillarga o'qitishdir. Tilni batafsil tavsiflamasdan turib tilni, undagi nutqni o'rganish mumkin emas.

Zamonaviy lingvistika — bu nafaqat mavjud tillarni bayon qilish, balki tilga faoliyat sifatida yondashish, so'zlayotgan odamni o'rganish hamdir.

«Tilda insonni va uni o'rab turgan olamni bilish uchun bitmas-tuganmas hamda hali qo'llanilmagan imkoniyatlar mavjud, biroq unga tilni tavsiflash orqali emas, balki uni o'rganish vositasida erishish mumkin» (V.A.Zvegintsev).

Tilni faoliyat sifatida tadqiq qilish bilan tez rivojlanib borayotgan fan — psixolingvistika shug'ullanmoqda, u hozirda muhandislik, aviatsiya va kosmik psixologiyaning ajralmas qismini tashkil etadi, undan turla nutqiy nuqsonlarni aniqlash va davolashda foydalaniladi, u bolalar nutqidagi muammolarni o'rganishda, sud psixologiyasi va kriminalistikada katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish — bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqrid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman mulqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, mulqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyattan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlari o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi mulqot vositalari zarurati kelirib chiqaradi.

Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechimmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi.

Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning mulqotga bo'lgan ehtiyojini tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning mulqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgaraganligidir.

Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich — faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharait vujudga

keladi.

Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajratib chiqadi: emosional munosabalar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabalar; tovushli munosabalar.

Bolaning kattalar bilan mulqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyada o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilining ko'rib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida — uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning mulqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan mulqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bolaning nutqning yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarni o'zlashtirishiga olib keladi.

Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'stdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirish kalitidir.

XULOSALAR:

Til hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ilmiy bayon qilish tili muayyan fan darajasi mezonlaridan biridir. Til fikrlash bilan bog'liq va u uning quroli hisoblanadi.

Til aqliy faoliyatni rejalashtirish imkoniyatiga yaratadi; bu jarayonda tilning muhim vazifasi — insonning xulq-atvorini boshqarish vazifasi paydo bo'ladi.

Til kishilarning mulqotga muhtojligi tufayli paydo bo'lgan.

Lingvistik bilimlarni qo'llash sohalari juda keng: psixologiya, psixolingvistika, tibbiyot, muhandislik, aviatsiya, kosmik, sud psixologiyasi va h.k.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish — bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqrid qilishidan iborat emas, balki bu bolalarda mulqot faoliyatini rivojlantirish va mulqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

MAKTABGACHA KICHIK, O'RTA VA KATTA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISHNING VAZIFALARI, METODLARI VA VOSITALARI

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vazifalari.

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga bolalar nutqini o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari, shakllari va bolalar nutqiga qo'yilgan davlat talablari to'g'risida tushuncha hosil qilish.

Tayanch so'zlar va iboralar: nutq o'stirish maqsadi, yo'naltirilganlik, loyixalash, tashxislanuvchanlik, nutq o'stirish bosqichlari, bilim, kunkma, malakalar, nutqiy mulogot, nutqning tovush tomoni, so'z boyligi, bog'tanishli nutq, nutq o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, badiiy adabiyot, ovutmachok-o'yin, mashg'ulot, nutq va tafakkur, ma'naviy-madaniy etuklik.

Nutq o'stirish metodikasi maktabgacha talimda bolalarning og'zaki nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish vazifasini bajaradi, bolalarni maktabda o'qishga tayyorlaydi. Bolalar so'zlashni urganishda ona tilidagi so'zlarning mahosini tushunishi, nutqda qo'llay olishi, tilning grammatik qurilishini bilishi muximdir. Chunki maktabgacha talim yoshidagi bolalarning nutqini o'stirish, ularda o'z fikrini bayon qilish, tushuntirish, narsa, voqealarni atash, uzaro mulogotga kirishishga qiziqishini shakllantirish uchun nutq o'stirish ishlarini to'g'ri tashkil etish zarur.

Buning uchun maktabgacha talimda nutq o'stirishning mazmuni va vazifalarini aniq belgilash zarur buladi. Y'ni nutq o'stirish metodikasi dastur asosida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi Qonuni, 2.
3. tayyorlash Milliy dasturi (1997) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar talim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari (2000)ni talimga joriy etish va maktabgacha talimda bolalar nutqini o'stirishning eng qulay metod va usullarini ishlab chiqadi, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talimni takomillashtirishni ta'minlaydi, davlat talablarni bajaradi.
2. Maktabgacha talimda bolalar so'z boyligini oshirish metod va usullarini ishlab chiqadi, lugatni boyitish omillari va shakllarini tavsiya etadi.
3. Bolalar bog'tanishli nutqini o'stirish, unda nutqning aloqa vositasi ekanligini, diologik va monologik nutq o'stirish metod va usullarini yoritish, bog'tanishli nutq o'stirish shakllarini tushuntirish, mashg'ulotlarni tashkil etish metod va usullarini ishlab beradi.
4. Nutqning grammatik jixardan to'g'ri shakllantirishning mazmuni, uni shakllantirish metod, usullarini tavsiya etadi, bolalar nutqidagi xatolarni bartaraf

72

etish metodlarini ishlab chikadi va amaliyotga tadbiq etadi.

5. Maktabgacha talimda nutqning tovush tomonini shakllantirishga doir ishlarini tasdiqlaydi.

6. Maktabgacha talimda badiiy adabiyotni urgatishning mazmuni, metodlarini o'rganish, bolalar badiiy nutqini o'stirishga doir mashg'ulotlarni tashkil etish, bolalar folklorini urgatishga doir ishlarini tashkil etishni urgatadi.

7. Bolalarni maktabga tayyorlashga doir ishlarini tashkil etish yo'llarini tavsiya etadi.

8. Maktabgacha talimda nutq o'stirish ishlarini tashkil etish va unga rahbarlik qilish, nutq o'stirishda oila, bog'cha, maktab hamkorligiga doir ishlarini tashkil etish metodlarini tavsiya etadi.

9. Tevarak-atrof bilan tanishtirishning dastur mazmuni bilan tanishtirish, mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasini yoritish, bolalarda vatanparvarlik, ona Vatanga muhabbat xissini shakllantirish, milliy g'oya va milliy mafkura qirralarini shug'ldirish yo'llarini o'rgatadi.

10. Mujassam mashg'ulotlar, no'anaviy mashg'ulotlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazishga doir ishlarini tashkil etish usullarini ifoda etadi. 11. "Ilk qadam" dasturi bilan ishlash, bolalarning nutqiy rivojlanganligini tashxis qilish metodlarini yoritib beradi.

Maktabgacha talimda nutq o'stirish bolalarning yosh xususiyatlarini nazarda tutadi, nutq o'stirish bosqichlariga amal kiladi.

1. Chagaloqlik davri – tug'ilgandan bir yoshgacha bulgan davr. Bu yosh uziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, muxim vazifalarni bajaradi.

a) o'yinchoqning harakatini ko'z bilan kuzatish, kullarini kuz oldida uyuntish, kikiriyab ovoq chikarish, uziga yakin kishilarni tanish, ularga intilishini kullab-kuvvatlash. Ovutmachok-o'yinlar orqali bolalarning uziga bulgan munosabati tushunishga, kattalar kilgan xarakatlarni bajarishga urgatish.

2. Ilk yosh guruh (1-2yosh) bu guruhda nutq o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlari tashkil etiladi.

Bolalarning kuzatish, taklid qilish, mashk qilish, tinglash kobilyatlari shakllantiriladi, kurib idrok qilish, nutqni tinglash, nutq tovushlarining talafluziga doir o'yin-mashk, didaktik o'yin, xarakatli o'yin va ovutmachoklar orqali bolalar nutq faoliyatini shakllantiriladi.

Bu yoshdagi bolalar bilan xarakatli o'yin-ovutmachoklar orqali nutqni tushuntirish, tinglashni urganadi, xissiy kunkimlarni rivojlantiriladi. Shu bois "Respublikamizda Oila, onalik va bolalikni ximoya qilish, oilani xar tomonlama mustaxkamlash davlat siyosati darajasiga kutarilgan".

73

Nutq o'qirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish bulimida bolalarning kuzatish, tinglash, kurib idrok etish, so'z boyligini oshirish, nutqni tinglash, tovush talaffuziga doir mashklarni bajarish, nutqiy nafasni takomillashtirish, tovushni eshitish orqali farqlash, etkarni tinglash va eslab ko'lish, she'rni tinglash, didaktik o'yin, xarakati o'yin va ovtmachoklarni urgatish orqali nutq faoliyatini shakllantirish maksad kilib olinadi.

2-3 yoshli guruhda oldingi guruhdagi ishlar mazmunni kengayadi, nutq o'qirish, tevarak-atrof bilan tanishtirishda o'yinchoq, rasmlar nomini aytish bilan birga ular xarakati so'z boyligini oshirish, nutqning tovush tomonini shakllantirish, xikoyani, etkarni, she'rni ukib berish, so'zlab berish orqali bog'lanishli nutqni o'qirishga axamiyat beriladi. She'rni ukib berish, ta'limiy o'yin, rasimga karab so'zlab berish orqali bolalarning so'zlab berish, diologik nutqini o'qirish nazarda tutiladi.

Kichik guruh

Kichik guruhda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, otlarni kelishiklarda turlash, fe'lni shaxs, son, zamonda to'g'ri qo'llash, hayvon, partandalar, narsa-buyum nomlarini birlik va kuplikda qo'llash, uyushiq bo'lakli gaplarni tuzishga urgatiladi, shu asosda nutqni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, rasmi tasvirlash asosida nutqning grammatik tomonini shakllantiriladi, kelishik qo'shimchalarni to'g'ri qo'llashga o'rgatiladi. Nutqning tovush tomonini tarbiyalashga axamiyat beriladi. Bolalarni aniq, shoshilmay, etari baland ovozdagi gapirishga o'rgatish, topishmoq, tez aytishni aytirish va og'zaki nutqni faollashtirish talab etiladi.

O'rta guruhda nutq o'qirish dasturi quyidagi mazmunda beriladi.

1. Nutqning tovush tomonini shakllantirish, topishmoq, tez aytish orqali nutqda tovush talaffuzini masbq qildirish.

lugatni boyitish, buyumlar hakida tushuncha berish;

turli kasblarni bildiruvchi so'zlarlarni bolalar lugatiga kiritish, so'zlarining bajaradigan vazifasi hakida amaliy bilim berish.

kecha-kunduz va uning qismlari hakida tushuncha berish; buyumlarning joylashishini, urnini to'g'ri ayitishga urgatish; chapda, o'ngda, o'rta, ortqasida, yonida va xakozda;

Katta guruh Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish.

So'zlarni grammatik jihatdan aniq, to'g'ri talaffuz qilish; birlik va ko'plikda so'zlarni to'g'ri ayitish, fe'llarni shaxs-son va zamonda to'g'ri qo'llashni, ayrim so'zlarining yasalish usullarini urgatish; jumlani to'g'ri tuzish, gapni har xil ohangda ayitish, sodda, qo'shma gap tuzishni bilish; topishmoq, tez ayitishni o'rgatish, og'zaki nutqni faollashtirish. bolalar yoshiga mos xikoyani kayta xikoya

Kildirish. Nutqda fe'ling buyruk maylini to'g'ri qo'llashga urgatish talab etiladi.

O'rta guruhda "Tevarak-atrof va ona Vatan bilan tanishtirish" bo'limida "O'zbekiston-mening Vatanim", "Men yashayotgan ko'cha", "Men yashayotgan mahalla", Bizning mahalla "O'lkamizda kuz" kabi mavzularga e'tibor berilgan. "Buyuk siymolar", "Mustaqillik bayrami" "Mehrijon", "Navro'z" bayramlari haqida suhbat qilish bilan birga A. Navoiy, Z. Bobur bilan tanishtiriladi.

Kattalar mehnati bilan tanishtirish bulimida dehqonlar, haydovchi, quruvchi, oshpuz, onalar, duradgor, bog'bon mehnati bilan tanishtirishga axamiyat qaratilgan, shuningdek, transport turlari, buyumlar, musiqiy asboblar, oshxona buyumlari, ho'jalik, mehnat qurollari bilan tanishtirish, ularning o'ziga xos tomonlarini o'rgatishga axamiyat beriladi.

Katta guruhda badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'limi materiallari ancha kengaygan, she'rni yod olish, o'qib berish, hikoya qilib berish, ifodali o'qishni o'rgatishga doir masbq ulotlar tashkil etiladi.

Katta guruhda nutq o'qirishning mazmunni, dastur tabablari ancha kengayadi.

Katta guruhda bolalar lugatini boyitish va faollashtirish, nutqning grammatik tomonini urgatishda quyidagi vazifalar belgilagan.

Bolalar nutqini morfologik va sintaktik jihatdan shakllantirish, so'zlarni bir-biriga bog'lash, gapni to'g'ri tuzish, gapda uyushiq bo'laklardan foydalanish, sodda va yoyiq, qo'shma gaplar tuzish, fikrni xilma-xil tuzishga o'rgatiladi. Nutqda sinonim so'zlar, zid ma'noli so'zlarni qo'llashga o'rgatiladi.

Nutqning tovush tomonini shakllantirishda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqda ovoz sifati, nutq sur'ati, ohangini to'g'ri qo'llash, barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, tovush madaniyatiga diqqat qilish, gapni to'g'ri tuzish, undagi so'zlar o'rni, so'zidagi kerakli tovushni ajrata bilish talab etiladi.

Katta guruhda bolalarning shaxsiy hayoti, taassurotlari, kurgan-kuzatganlarini tasvirlash orqali ijodiy hikoya tuzishga o'rgatiladi.

Tevarak-atrof bilan tanishtirishda "O'zbekiston-Vatanim mening", Toshkent, Namuqand, Buxoro shaharlari bilan tanishtirish, Buyuk ipak yo'li, buyuk siymolar, A. Temur, Beruniy, Ulugbek va x... kabi mavzularda masbq ulotlar tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'limning tayyorlov guruhida bolalar nutqini o'qirish nutqning grammatik qurilishini shakllantirish bilan birga so'z yasash malakasini oshirish, lugatni boyitishga katta axamiyat beriladi. Shuningdek, bolalarni savodxonlikka o'rgatiladi. Bunda gap hakida tushuncha beriladi, gapda so'zlarining tartibini aniq lash, so'zni buyinga ajratish, tovush - xarfni farqlash, kichik va bosh xarflar, bosma xarflarni farqlash, kesma xarflardan so'z tuzish masbq kildiriladi.

Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'qirish barcha guruhlarda "Ilk qadam"

dasturi asosida amalga oshiriladi, bolalarning turli faoliyatlari jarayonida nutq o'qitishga e'tibor beriladi, shu asosda bolalarni maktabda o'qishga tayyorlaniladi.

Ilk yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish.

Hayotning birinchi yilida bola tez o'sadi. Jismoniy o'sish bilan birga «atrof muhimga moslashish organi» (I.P.Pavlov) vazifasini bajarishga tayyor bo'lish uchun bolaning miyasi ham rivojlanib boradi. Mazkur tayyorgarlik bosqichma-bosqich ro'y beradi: 0 oydan 2,5-3 oygacha; 5-6 oydan to 9-10 oy va 1 yilgacha.

Mulogotning birinchi shakli — emotsional-bevosita (vaziyat-shaxs) shaklidir. Bu boshqa odamga bo'lgan qiziqish, unga nisbatan emotsional munosabat bilan tavsiflanadi. Mulogotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yiliga xos holidir.

Mulogotning yanada rivojlangan ikkinchi shakli — ya'ni, emotsional-vostali (vaziyat-amaliy) shakli bola hayotining ikkinchi yarim yilida ro'y beradi. Bu mulogot predmetlar orqali vostali mulogotga aylantiriladi. Ushbu yoshda bolaning qiziqishlari atrofida olamga yo'natirilgandir. Unda yangi taassurlarga ehtiyoj yorqin paydo bo'ladi.

Kattalar bilan mulogotda, hazil-huzul va boshqa ijobiy hisslarga to'liq bo'lgan bola o'yinchoqlar bilan o'ynashga kirishadi. Bu mohiyatan, bolaning tashabbusiga ko'ra yuzaga kelgan birinchi o'yin shaklidir. Bolaning narsalar va o'yinchoqlar bilan harakatlari, qo'llarning kichik harakatlari uning nutqini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bola bilan mulogotda maqollar, matallar, sanog she'rlardan foydalanish zarur. Bu tovush va nutq muhitini boy'atadi, nutqni rivojlantirishga yordam beradi, intonatsion tinglash qobiliyatini, she'riy so'z jaranglashiga nisbatan sezgirligini rivojlantiradi. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashda kattalar nutqiga alohida talablar qo'yiladi, chunki ularning nutqi taqdid uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Shu bois u har tomonlama namunali bo'lishi, ya'ni: grammatik to'g'ri, intonatsion ifodali, unchalik baland emas, tez ham emas, oz so'zli va aniq bo'lishi lozim.

Nutqning intonatsion ifodaliligi mutlaq muhim ahamiyatga ega, chunki kichikintoy eng avvalo ayran nutqiy ohanglarni tushuna boshlaydi va ularga munosabat bildirishga harakat qiladi. Intonatsiyaning kamligi nutqni tushunishni rivojlantirishga va uni faollashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tug'ilganidan boshlab bir yoshgacha bo'lgan bolalarning nutqni tushunishlarining asosiy metodik usullarini ko'rib chiqamiz.

Bola 6 oylik bo'lgandan so'ng uning nutqini o'z vaqtida rivojlantirish uchun natqat bolada jonlanishni vujudga keltirish va fikrni bir joyga jamlashni mashq qilish uchun shunchaki so'zlashish, balki unga dastlabki so'zlarni tushunishni

o'rgatish darkor.

6 yoshgacha kattalarning bolalar bilan mulogot shakli emotsional-bevosita (vaziyat-shaxs) bo'ladi, 6 oydan boshlab esa mulogotning nisbatan rivojlangan shakli — emotsional-bilvosita (vaziyat-amaliy) mulogot shakliga navbat keladi. Kattalar bolaga o'yinchoqlar bilan o'ynashni o'rgatadi, o'z harakatiga taqdidni yuzaga keltiradi, o'yinchoqqa e'tiborni jalb qiladi, ya'ni bolaning diqqatini o'zidan o'yinchoqlarga va ular bilan harakatlar bajarishga yo'natiradi. Ushbu jihat bola rivojida ulkan ahamiyatga ega. Agarda kichikintoy bilan mulogot faqat emotsional asosda amalga oshirishda davom etaversa, keyinroq unga biron-bir narsani o'rgatish qiyin kechadi. Kattalar bilan mulogot qilar ekan, bola kuladi, erkalanadi, qanday qilib bo'lsa ham o'ziga diqqat-e'tiborni jalb qilishga harakat qiladi, va bu paytda bola o'yinchoqlarni ham, kattalarning o'yinchoqlar bilan amalga oshirayotgan harakatlarni ham ko'rmaydi, ularning so'zlariga quloq tutmaydi. Bunday holatlarda bola emotsional mulogotga kirishadi, biroq u narsalar va ular bilan harakatlar bajarish borasida kattalar bilan mulogot qilishni bilmaydi. Bolada nutqni tushunishni rivojlantirish uchun emotsional mulogot kamlik qiladi, mulogot bilish usulga ega bo'lishi uchun bola kattalar taklifiga binoan o'yinchoqlar bilan harakatlarni bajarishi zarur.

So'zning asta-sekin bola uchun muayyan harakatga kirishishga signalga aylantishi uchun (u ko'zlari bilan izlaydi, nomi aytilgan narsani ko'rsatadi, uni olib kelib beradi va h.k.) qanday pedagogik shart-sharoitlar zarurligini bilish lozim.

Dastlabki so'zlar — emotsional ifodaliligi, ta'sirilligi, vaziyatga oidligi, kommunikativ yo'natirilganligi bilan farqlanadi. Bunday nutq vaziyatga moslangan nutq (avtonom) deb ataladi, chunki u faqat bola atrofida mavjud muhit bilan tanish bo'lgan yaqin kishilargagina tushunari bo'ladi. So'zni dastlabki tushunish muayyan vaziyatni qabul qilish bilan birgalikda ro'y beradi.

Dastlabki so'zlar muayyan narsalarga taalluqli bo'lib, umumlashtiruvchi turga ega emas (soat faqat kroyat tepasida osilgani). So'z bolaning umumiy xulq qiyofasiga uyg'unlashib ketadi va mimika, imo-ishora, nazar tashlash, ifodali harokatlardan bir so'zli fikrni tashkil qiladi («Xayro», «Ber», «Ol»).

Dastlabki so'zlarning paydo bo'lishi bolaning rivojlanishidajitimoiy vaziyat o'zgaruvanligidan dalolat beradi. Endi u o'z istak-xohishlari haqida o'zi aytilishi mumkin, kattalar esa uning xulq-atvorini so'zli ko'rsatmalar yordamida yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hayotning birinchi yili davomida bolaning narsalarga munosabati quyidagicha bo'ladi: sochidan tortadi, qulog'iga qo'lini tiqadi, narsalar ustidan

oshib o'radi va h.k. Bunday g'ayratli harakat – «Men» obrazining shakllana boshlanayotganidan dalolatdir. Ushbu obrazni shakllantirish uning «xohlamayman», «xohlamayman» kabi dastlabki xohish-istaklarining paydo bo'lishi, «mumkin», «mumkin emas» kabi muhim tushunchalarni tushuna boshlashi bilan bog'liqdir.

Bolaning ushbu yoshda o'zini anglay boshlashini unga nisbatan katta yoshli odam munosabalarining aks-sadosi deb atash mumkin. O'ziga nisbatan ijobiy munosabat – shaxsning normal rivojlanishining asosidir. O'ziga nisbatan salbiy munosabat esa – bolaning ilk yoshida bola bilan katta yoshli odam o'rtasidagi emosional-ijobiy munosabat etarli bo'lmaganligidan dalolat beradi.

Bolaga faqat organik ehtiyojlarini (ovqatlanish, uxlash, isinish) qondirish kamlik qiladi, u kattalar bilan mulqot qilishga, insoniy mehr-muhabbatga muhtoj. Ushbu yoshda mulqot eishmovchiligi gospitalizatsiya deb nomlangan kasallikni yuzaga keltiradi. Eng xavli va zaif davr bu – 6 oydan 12 oygacha bo'lgan davrdir. Bu davrda har qanday sharoitda ham bolani onasi bilan mulqot qilishdan mahrum qilmaslik lozim. Agarda busiz hech iloji bo'lmasa, onasining o'rniga boshqa odamni topish darkor.

O'zining katta yoshli yaqin kishisi bilan mulqot qilish bolaga yangi taassurotlar baxsh etadi. Kattalarning ishtiroki kichkinoyda u hali bilib ulgurmagan atrofdagi olam oldidagi qo'rquvga barham beradi. Bola bilan mulqot u bilan hamkorlik asosiga qurilishi lozim. Bola bilan kattalar o'rtasidagi mulqotning barqarorligini ta'minlash zarur, chunki shu tufayli bolaning emosional bosiqligi shakllanadi, mulqotning nutqiy va nonutqiy shakllari shakllana boshlaydi.

Bolalarda (ikkinchi yarim yillikda) vaziyatlar, narsalar o'rtasida aloqa bog'lashga yordam beruvchi qidiruv harakatlarini paydo qilish lozim (9 oydan keyin – surat va so'z bilan: «falon narsa qacda?»).

Nutqni tushunishni rivojlantirish maqsadida katta yoshli odam iloji boricha bola uchun qiziqarli bo'lgan yorqin va harakatlanuvchi narsalar nomini, ular bilan amalga oshiriladigan harakatlarni, bolalar va atrofdagi kattalar nomlarini ko'proq ayitishi zarur.

Bolaning katta yoshli odamga, uning harakatlarga, so'zlariga bo'lgan qiziqishi osida inson hayotining birinchi kundan boshlab to umrining oxirigacha sherik bo'ladigan narsa -y'ni odamlarga va ayni paytda hayvonlarga xos bo'lgan yo'nalitruvchi refleks yotibdi.

Biz tomon yog'layotgan har qanday yangilik biz tomonimizdan tegishli harakatlarni keltirib chiqaradi, biz bu yangi narsani yaxshilab tushunish olish uchun paydo bo'layotgan obrazlarga tikilib qaraymiz, paydo bo'lgan tovushlarni

diqqat bilan tinglaymiz, agarda uning hidi chiqsa, darhol uni hidlashga, agarda u bizga yaqin turgan bo'lsa ushlab ko'rishga harakat qilamiz.

So'zlarni tushunishni o'rgatishda bolalarga nafaqat ular qarab turgan narsalarning va ularning o'zlari bajarayotgan harakatlarning nomini ayitish, balki bolalarga ushbu narsalarni ataylab ko'rsatish va ularni qiziqitirish zarur. Bu usul «ko'rsatib, nomini ayitish» usuli deb ataladi. Ko'pincha bolani biron-bir narsa nomini tushunishga undashda katta yoshli odam undan so'raydi: «falon narsa qacda?», biroq biz uni amaliy ish bilan mustahkamlamasak, ya'ni «ko'rsatib, nomini aytmasak», bola narsa bilan uning nomi o'rtasidagi bizga zarur bo'lgan ahartli aloqani o'rnatmaydi, o'z-o'zidan u ushbu so'z mahosini tushunmaydi. «falon narsa qacda» degan savol bilan bolada u tushuna oladigan so'zlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Masalan, «soat» deganimizda bola ko'zlari bilan soatni izlay boshlasa, undan soat qacdaligini tez-tez so'rab turish lozim. Biroq bu o'rinda savol emas, aynan soatni ko'rib va eshitib qabul qilish vaqtlarining bir-biriga mos kelishi birlamchi ahamiyatga egadir.

Ammo katta yoshli odamning faqatgina ushbu usul mohiyatini tushunishi hali etarli emas. Uni turli hayotiy vaziyatlarda bolaga qiziqarli qilib qo'llashni ham o'rganish zarur: bunda katta yoshli odamning nuqji birmuncha o'ziga xos bo'lad. Katta yoshli odam bola bilan suhbatlashar ekan, u bolani tushunishga undayotgan so'zni hadab bir xil ohangda qaytaravermasdan iboralarni ham ayitishi lozim. Ko'rsatilayotgan narsa bilan bog'lanishi lozim bo'lgan so'zni alohida ohang, so'zdan oldin va so'zdan keyin qisqa, biroq ahomiyatli bo'lgan pauzalardan foydalanish, uni ko'p marta talaffuz qilish lozim. Ushbu usuldan («ko'rsatib, nomini ayitish») foydalangan holda katta yoshli odam bolaga ayrim o'yinchoqlar, shaxsiy gigienaga oid narsalar, ovqat eyish bilan bog'liq buyumlar nomlarini tushunishni o'rgatishi darkor. Bolaga ko'rsatilayotgan narsa qanchalik qiziqarli bo'lsa, u narsalar bilan shunchalik keng va ko'p tanishishi (qo'l tegizishi, ushlab ko'rishi, qo'lga olishi, qoqirlatishi, biron narsaga urib ko'rishi, agarda taom bo'lsa – ta'mini ko'rishi) mumkin.

Olg'ienik jarayonlarda, kiyinish, ovqatlanish, o'ynash vaqtda bolaga so'zlarni tushunishni o'rgatish uchun ko'p imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Harakatlarni anglatuvchi so'zlarni («ko'rsatib», «taqqilat», «ashlay», «qarsak chab») va boshq.) tushunishni o'rgatishda bu so'zlarni ushbu harakat bola yoki katta yoshli odam tomonidan amalga oshirilayotgan paytda ayitish lozim. Zarur bo'zini ayitishda bolaning qo'ldan ushlab, tegishli harakatlarni bajarib ko'rish mumkin. So'zni tushunishni mustahkamlash uchun kichkinoyga «ko'rsatib»

deganda katta yoshli odam nomini aytilgan narsani barmog'ini bilan ko'rsatishni va «ber» deganda katta yoshli odam nomini aytilgan narsani olib berishni o'rgatish zarur. Bu usullarni asosan bolalar tanitilgan va nomlarini tushuna boshlagan narsalarga nisbatan qo'llash mumkin. Aynan bitta so'zda uzog to'xtalib qolib ketmaslik kerak, balki uning sonini asta-sekin kengaytirib borish, ayni paytda ilgari o'zlashtirilgan so'zlarni ham unutmaslik lozim.

«Ko'rsatib, nomini aytilish» usuli deb asosan, nutqni tushunishni rivojlantirishga yo'naltirilgan usulga aytiladi. 6 oydan boshlab bolada ovoq munosabatlarini, ovoq taqirlarini va ovoq ifodaliligini rivojlantirish zarur. Bola chuchulashi uchun, uning kayfiyati yaxshi, quvonchli bo'lishi, kiyimlari quruq va issiq bo'lishi, shuningdek xona osuda bo'lib, u faqat o'zining ovozini eshitishi kerak. Lekin shu vaziyatlarning o'zi kamlik qiladi. Bolani chuchulashga undash va bunda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur.

Agarda 5-6 oygacha bolalarga har qanday so'zlarni aytilish mumkin bo'lsa, faqat bu bolalar tinglab, jonlanishlari uchun emotsional mayin ohangda aytilsa bo'lgani, hayotining ikkinchi yiliga qadam qo'yayotgan bolalarga nisbatan bunday deb bo'lmaydi.

5-6 oydan keyin bola bilan so'zlashishda ulardan nafoqat jonlanish, balki taqildini yuzaga keltirish uchun iloji boricha turli tovushlar, bo'g'inlarni ko'proq aytilish kerak. Dastlabki paytlarda buning uchun bolaning o'zi qayasi tovushlarni talaffuz qilayotganini kuzatish, ularni ilib olib, bola huzurida ko'p marta takrorlash lozim. Bunday «alohida» suhbat «yo'qlama» deb ataladi. Bu chuchulashni rivojlantirish uchun samarali usuldir.

Bolada chuchulashning paydo bo'lishiga va o'z-o'zidan katta yoshli odam bilan «yo'qlama» qilish zarurati yuzaga kelishiga yordam beradigan quvonchli kayfiyat yaratish uchun «Qarsak-qarsak», «Quvlashmahoq» kabi jamoat o'yinlaridan birini o'tkazish lozim. Uning kayfiyati ko'tarilishi bilan kichikintoy kattalar aytayotgan tovushlar va bo'g'inlarni takrorlashga erishish maqsadida «yo'qlama»ga o'tish lozim.

Bolalarda taqildini yuzaga keltirish uchun bolalar katta yoshli odam yuzini ko'rishni zarur, shunda ular uning yuz ifodasiga, lablarining qimirlashiga taqild qilishga harakat qiladilar. Bundan tashqari, tovushlar va bo'g'inlarni biron intonatsiya bilan kuylash tarzida, ayrimlarini esa aksincha qisqa («bum»), («h») aytish darkor.

Bolalar ko'pincha ularni aniq ayta olmaydilar, faqat shu so'zni aytilgan odamning ovoq intonatsiyasi, yuz ifodasi va so'zlayotgandagi qo'l harakatlari takrorlagani holda «a» tovushini talaffuz qiladi. Agarda maxsus usullar bilan bolada chuchulashni yuzaga keltirmasdan, unga engil tovushlar va so'zlar

30

taqild qilishni o'rganmasdan faqat «nomini aytib, ko'rsatish» bilan cheklanilisa, bola ko'p narsani tushunsa ham uzog paytgacha so'zlamaydi, chunki chuchulash va kattalarga taqild qila olish bola nutqini o'z vaqtida rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.

«Yo'qlama»ni ham xuddi «ko'rsatib, nomini aytilish kabi» faqat bolalar o'yayotgan paytda o'tkazish bilan cheklanmaslik kerak. Bolani parvarish qilish, unga qarash paytida va boshqa har qanday qulay sharoitda bolani chuchulashga undash va uni qo'llab-quvvatlash, chuchulash uchun maxsus sharoit yaratish maqsadida xonada osudalik yaratish zarur.

Hayotining birinchi yili oxiriga kelib bolaning erishgan natijalari rivojlanishning yangi ijtimoiy vaziyatini qurishni talab qiladi. Bu bolaning katta yoshli odam bilan birgalikdagi faoliyatiga oid vaziyatdir. Ushbu birgalikdagi faoliyatning mazmuni — (narsalardan) foydalanishning jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan usullarini o'zlashtiradi, bola qoshiq bilan ovqatlanishni, qalam bilan rasm chizishni, sulchaga o'tirish va hokazolarni o'rganadi. Mulogot jadal rivojlanishda davom etadi, zero kattalar bilan bevosita mulogotsiz premetli faoliyat mumkin emas. Predmetli faoliyat bilan bog'liq mulogot faqat emotsionalligicha qolmaydi, u nutqiy mulogotga aylanadi. Shunday qilib, ilk yoshdagi bosh vazifa narsalardan foydalanishning insoniy usullarini o'zlashtirish va nutqni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bir yoshdan keyin bola so'z bilan tegishli narsa, hodisa, sifat o'rnatida tezroq aloqa bog'lashni o'rganadi. U so'zlar kombinatsiyasini, ya'ni iboralarini tushunadi, bir yarim yoshga kelib esa bevosita unga qaratilmagan nutqni ham tushuna boshlaydi.

Ikkinchi yilning ikkinchi yarmida nutqning jadal rivojlanishi tufayli bolalarda psixik funktsiya (xotira, qabul qilish va boshq.) rivojlanib ketadi va o'z kasusiyatini o'zgartiradi.

Mulogotga bo'lgan ehtiyoj, predmetli harakatlarni o'zlashtirish bolaning o'z faol nutqini ham talab qiladi. Nutq asosida umumlashtirishlar, fikrlashning namzuy vazifasi, ya'ni real narsalarning o'rmini almashira olish hamda o'rin bosuvchi narsalar va til belgilari bilan amallar bajarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Biroq nutqgacha predmetli harakatlarni (aynan bir narsa bilan turli harakatlarni yoki turli narsalar bilan aynan bir xil harakatni bajarish), juftlik o'yinlarni («kukub», «shar yumalash») va boshq.) rivojlantirish va umumlashtirishga oid uzog yo'lni bosib o'tishga to'g'ri keladi.

Bola uchun katta yoshli odam — bitmas-tugammas ijobiy emotsiyalar, qiziqarli muammoslar va borgan sayin so'z muhim ahmiyatga ega bo'lib boradigan

o'yinlar manbai hisoblanadi. Kattalar bilan mulogotga kirishish, narsalar va o'yinoqlarga egaik qilishga intilarkan, bola ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanish haqidagi chaqirigga javob beradi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi.

Bola tilni faol o'zlashtiradi. So'z ortida turgan tasavvur yagona o'xshashlikdan keng o'xshatishlarga, keyinroq esa yanada aniq umumlashirmalarga rivojlanadi. Aynan bita so'z yordamida ko'p obrazli munosabatlar ifodalanadi. Bola asta-sekin bu munosabatlarni grammatik jihatdan rasmiyashtirmagan ikki so'zli, keyinroq esa uch so'zli gaplar orqali ifodalashni o'rganadi. Ikkinchi yilning oxiriga kelib dastlabki grammatik shakllar paydo bo'ladi. Bolaning so'z zahirasi ortadi. I yoshda — I yoshu 6 oyda so'z zahirasi 30-40 ta so'zni tashkil qiladi. Fikrlar asosan bir tarkibli gaplardan iborat bo'ladi. Bunda nonutqiy mulogot vositalari (ifodali harakat, bevosita namoyish qilish, ko'zlarining to'qnashuvi, mimikalar, imo-ishoralar va boshq.) hamon hukmron bo'ladi. Bola maishiy vaziyatlar mahosini va ularda qo'llanilayotgan nutq mazmunini tushunib etadi.

I yoshu 6 oy — 2 yoshga kelib bolaning so'z zahirasi 200-300 tagacha o'sadi. Uning fikrlari grammatik jihatdan rasmiyashtirilmagan ikki-uch tarkibli iboralaridan iborat bo'ladi. Bola bilan katta yoshli odam bevosita mulogotga kirishgan vaziyatda esa nutqiy mulogot etakchi mulogot turiga aylanadi.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib nutq rivojlanishi ko'proq keng qamrovi vazifalar doirasida, eng avvalo katta yoshli yaqin qarindoshlari va bolalar bilan munosabatlarga kirishish hamda ular bilan birgalikda harakat qilish (nutqning kommunikativ vazifasi), atrof-olamni bilish (nutqning intellektual vazifasi) orqali davom etadi. Bola nutqiy mulogotning asosiy shaklini — dialogik nutqni o'zlashtiradi. U tashabbus ko'rsatib fikr bildirishni, savollar berishni, javob kutishni, o'zi ham savollarga javob berishni, atrofdagilarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilishni o'rganadi.

Bola o'z istak-xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifodalash, kutilayotgan natijalarga erishish uchun so'zlardan foydalanadi. Biroq bola tomonidan foydalanilayotgan so'zlar fonetik jihatdan ancha nomukammal bo'lib, u keng qamrovi mahrolarni anglatadi. So'z va predmetli harakatlarni qo'llash va ular bilan mos ravishda harakat qilish orqali katta yoshli odam bola bilan o'zaro bir-birini tushunishni va uning tilini boyitishni yo'lga qo'yadi. Bola tashabbus ko'rsatish orqali mulogot sub'ekti, teng huquqli hamkor sifatida chiqadi. O'zini tushunishiga intilish, o'z istak-xohishlarining bajarilishiga erishish bolani to'g'ri so'zlashga majbur qiladi. Ushbu yoshda tengdoshlari bilan mulogotga kirishish emotsional aloqa o'rnatish va o'z shaxsiga e'tiborni jalb qilishga yordam

32

beradi: bolalar bir-birlari bilan o'yin jarayonida o'z harakatlarini nutq bilan sharhlab boradilar, ammo hozircha ular bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri yuzlanib, murojaat qilmaydilar.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib bolaning til muhitidagi faol yo'naltiruvchi faoliyati boshlanadi. Bu quvonchli kechimmalar tasiri ostida vujudga keladigan tovushlar bilan turli o'yinlarda (shovqinli qo'shiqlar) va oddiy so'z ijodkorligida («golf-molflar», «o'yin-po'yin» va boshq.) ko'rinadi.

Qulay shart-sharoitlarda mulogotning uchinchi yiliga kelib bola kattalar bilan mulogotida ko'rganmali-taassuroti vaziyatga tayamman holda o'z tassurotlarini nutqda ifodalay boshlaydi. Bolalar o'zlari o'qib chiqqan kitoblari, tinglagan oraklari va o'zlarining ilgirigi tajribalari haqida fikr bildirib boshlaydilar.

Ik yoshdagi bolalarga nutqni o'qitish jarayonida pedagogga (kattalarga) qanday metodik usullarni qo'llash tavsiya etiladi?

Ushbu savolga javob berar ekamiz, biz shuni qayd etishimiz lozimki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodik usullar («ko'rsatib, nomini aytish», «yo'qlama») bolalar hayotining ikkinchi yilida ham ular bilan ishlashda foydalanilishi lozim, biroq ular bolalarning yosh xususiyatlariga qarab o'zgartiriladi. I yoshu 4-5 oydan keyin ko'p maratalab takrorlash va ayni paytda ko'rsatib, maxsus mashg'ulot sifatida «ko'rsatib, nomini aytish»ni amalga oshirishning zarurati yo'q. Bu yoshga kelib bola kattalarga taqild qilishni ancha takomillashtradi. U endi talaffuz uchun imkoni etadigan so'zlar, bo'g'inlarni katalarning ketidan yaxshi takrorlaydi, va shuning uchun unga «ayt», «takrorla» kabi so'zlarni tushunishni o'rgatish zarur. Bola ularni o'zlashtirib olishi uchun ushbu so'zlar ketidan uning talaffuz qilish uchun imkoni etadigan so'zlarni bir necha marta takrorlash zarur, masalan, «koptok» so'zini ayt. Oradan biroz vaqt o'tganidan keyin bola undan nimani talab qilishayotganini anglaydi va katalarning ketidan takrorlay boshlaydi.

Bolaning «ayt», «takrorla» kabi so'zlarni tushunishi kattalarga bolaga turli tovushlar, bo'g'inlar, so'zlarning talaffuzini mashq qildirish imkonini beradi.

«Yo'qlama» o'tkazishdagi kabi bola katalarning ketidan ishtiyok bilan, quvonq holda takrorlashi, bu mashqni qiziqarli o'yin — odalga aylantirishi juda muhimdir. Agarda bolalarga buni aytib o'rgatilmasa, katta yoshli odamning biron-bir narsani aytish haqidagi talabi salbiy munosabatni yuzaga keltiradi va bola jim turaveradi.

Ko'pincha katta yoshli odam bola iltimosini bajarayotganida boshqa narsalar haqida ham so'zlayveradi, yoki uning iltimosini jimgina bajaradi. Bu katta metodik xato hisoblanadi. Bolaning iltimosiga shu tariqa munosabat bildirish orqali kattalar uni nutqqa o'rgatish uchun qulay imkoniyatni qo'llan

33

chigaradilar. Bolaga uning talafuz qilishi uchun oson bo'lgan va iltimosni ifodalovchi so'zlarni so'zlarni aytib turish hamda bolada taqlid yuz berishiga erishish uchun uni bir nechta marta takrorlash zarur.

Ikkinchi yilning boshida so'zga harakati qo'shish mumkin. Bola uni oson o'rganib oladi va shu bilan bir vaqtda aytib turilayotgan so'zni talafuz qiladi. Masalan, bola koptokni kreslo ostiga dumalatib yuboradi va kattalarga yuzlanib, baqiradi. Katta yoshi odam: «Koptok yo'qmi?». «Yo'q...yo'q...» deb ayl. Ayni paytda katta yoshi odam qo'llarini salgina ikki tomonga yoyaafti. Bola bu harakati takrorlaydi va «yo'q» deydi. Ushbu usulni ko'p marta takrorlagandan so'ng bola shu kabi o'xshash vaziyatlarda baqirmasdan ana shu harakatlardan va zarur so'zlardan foydalanadi. Ushbu usul «zarur so'zni aytib turish» deb ataladi.

Bola nutqini hosil qiluvchi yangi usullarning paydo bo'lishi ikki yoshli bolalar bilan amaliy ishlarida «yo'qlama»ning umuman keragi yo'qligini bildiradimi? Yo'q, uni nutqiy apparat rivoji uchun foydali bo'lgan quvnoq o'yin sifatida qo'llash mumkin va shart, biroq shu bilan birgalikda iloji boricha yangi usullardan ko'proq foydalanish zarur. Agarda bola oson tovushlarni qiyalmasdan kattalar bilan birgalikda aylayotgan bo'lsa, bu holda biz uni «ayt» yoki «aktoria» so'zlari ma'nosini tushunishga undaymiz va bolaga nutqni mashq qildirishning yangi, yanada tejamli usulini qo'lga kiritamiz. Agarda bola o'z istak-xohishlarini imo-ishora yoki baqirig orqali ifodalagani holda kattalarga murojaat qilishni o'rganib olgan bo'lsa, bu holda biz unga «ber», «o'tir», «qo'yib yubor», «mumkin», «kerak emas», «mumkin emas» kabi yangi so'zlarni o'rgatamiz. «Ber» so'zini qo'llagan holda so'rashni bilish biron narsa talab qilib baqirishga yo'l qo'ymaydi, bola uning o'miga iltimosni qo'llaydi, va shuning uchun iloji boricha bolaga uni barvaqt qo'llashni o'rgatish darkor. Bolalarning «mumkin» so'zini qo'llashlarining alohida ahamiyati haqida to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, kattalar bolalar bilan qanchalik xushmuomala bo'lgani sayin bola ham shunchalik xushmuomala bo'lib boradi. Katta yoshi odam bolaning oldida yotgan o'yinchoqni, garchi u bolaga kerak emasligini bilsa ham, so'ramasdan olinmasligi lozim, buni «mumkimmi?» degan so'z bilan osongina hal qilish mumkin. Bolalarga ham shuni o'rgatish lozim. Agarda bolani ogohlantimasdan turib uning o'yinchoqini olishsa, unda salbiy munosabat (ko'z yoshlar, baqirig) yuzaga keladi. Agarda undan «mumkimmi?» deb ruxsat so'rashsa, u o'z ixtiyori bilan so'ralgan narsani beradi. Birinchi navbatda bolalarga zarur sharoitlarda aytib turish va o'z xulq-atvori bilan o'mak ko'rsatish

orqali hayotiy zarur so'zlarni (rahmat, bering, mumkin, mumkin emas, marhamat va boshq.) o'rgatish zarur.

Katta yoshi odamning bolaga iltimos yoki topshiriq bilan murojaati ham uni nutqqa undovchi «harakarga yo'llanma» usuli hisoblanadi. Bolalarga bir-biriga hamda kattalarga murojaat qilishni ko'proq o'rgatish zarur. Lekin hamma topshiriq ham ushbu maqsadga xizmat qilmaydi. Katta yoshi odam boladan biron-bir narsani olib kelib berish, olib borib qo'yish, yig'ishtirib qo'yishni so'ranganida bola bu topshiriqlarni indamay bajaradi. Bunday topshiriqlar bola kattalar nutqini tushunishni mashq qilayotgan ikkinchi yilning birinchi yarim yilligida katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, yoshidan qat'i nazar bu topshiriqlar katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir, ammo ular boladan nutqiy faollikni talab qilmaydi. U so'zlay boshlashi uchun kattalarning murojaati har qanday iltimosdan iborat bo'lmasdan u birovgga biron-bir narsani aytilish, bironidan biron-bir narsani so'rashni ko'zda tutishi lozim. Katta yoshi odam bunday topshiriq berish uchun ko'proq bahona topishi, ayni paytda ularni bola ishtiroq bilan bajaradigan qilib berishi lozim.

Bola o'yin bilan band bo'lganida, biron-bir narsani diqqat bilan ko'rib chiqayotganida yoki biron-bir odam bilan suhbatlashayotganida unga topshiriq berib bo'lmaydi. Bolalar faoliyatidagi bunday jihatlariga ularni ehtiyotsiz harakat tufayli to'xtatib qo'ymasdan ularni uzaytirish uchun juda ehtiyotkorlik bilan yondoshish zarur. Agarda bola undan nimani talashayotganini darhol tushummasa, unga aytib turish, ba'zan esa o'sha topshiriqni u bilan birga bajarish lozim.

Bola nutqini rivojlantirishda katta slijish beradigan usul uni savollarni tushunishga va ularning eng oddiyariga javob bera olishga tayyorlash hisoblanadi. Katta yoshi odam savol beradi, va bola aytib turilayotgan so'zini takrorlashi uchun dastlab unga o'zi javob beradi. Avvalboshda aynan bir vaziyatda aynan bita savolni berish va unga aynan bita javob qaytarish maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik savollarni turi sharoitlarda berish orqali ularning xususiyatlarini o'zgartirib borish lozim.

O'z vaqtida va yaxshi rivojlanayotgan bola ikki yoshga kelib «qayoqqa borayapsan?» degan savolni tushunadi va ko'p hollarda unga to'g'ri javob qaytaradi. Biroq buning uchun undan doimo so'rab turish va yuqorida bayon qilingan tizimga rioya qilgan holda javob qaytarishni o'rgatish darkor. Hunday yo'l bilan bolaga «Bu nima?», «Kim bu?», «U nima qilayapti?» kabi hoishqa savollarga ham javob qaytarishni o'rgatish, o'z-o'zidan unda har doim nutq hosil qilish va uni murakkablashtirish mumkin. Bolalar bu savollarga faqat o'zlariga tamish bo'lgan, nomlarini ilgari suhbatda qo'llagan narsalar yoki

harakatlari haqida ketayotgan bo'lsagina javob bera olishlari mumkin.

Bola bir so'z bilan javob berishni o'rganiganidan so'ng, agar u unga vaqtida «suv ber» («mon ber») kabi so'zlar aytib turilsa, u asta-sekin 2-3 ta so'zdan iborat bo'lgan iborani o'zlashtirib oladi. Iboralar tarkibiga kiradigan so'zlarni bola kattalar ortidan takrorlashi uchun ular bolaga ilgari tanish bo'lishi lozim.

Bolaga miqdorlarni tanishtirar ekan, katta yoshli odam katta-kichik, ko'p-kam so'zlarni o'rgatadi. Ikki o'yinchoqni taqqoslagani holda katta yoshli odam belgi so'zlarni ovozi bilan aniq ajratgani holda quyidagi so'zlarni aniq talaffuz qiladi: «Bu katta kubik, bu kichik kubik. Kichik kubikni stolga qo'y». Miqdorlarni taqqoslashga oid mashg'ulotni o'qishda otlar nomida kichrayituvchi suffikslardan foydalangan ma'qul: mashina-mashinacha, koptok (katta), koptokcha (kichik), ayiq (katta), ayiqcha (kichik).

Ushbu yoshda bolalarga ranglarni ajratishni va ularning nomlarini tegishli so'zlar bilan ayitishni o'rgatish muhimdir. Ammo gapda aniqlovchi so'zga ega bo'lgan sifarga oid so'zlarni o'rgatishdan oldin albatta yo'l-yo'lakay kuzatuvni amalga oshirish zarur: paypoqlar oppoq, ko'ylak oppoq, devor oppoq, taglik oppoq, qor oppoq.

Boshqa ranglar bilan ham ana shunday ishlarni bajarish lozim. Shundan keyin bolaga sifatlardan foydalangan holda gap tuzish oson bo'ladi.

Dastlabki paytlarda bola so'zlarni kelishtirishda qiyinaladi. Biroq, mashq qilish, ushbu iborani turli variantlarda qaytarish yo'l bilan sifatlarni ot bilan to'g'ri kelishtirishni o'rganib oladi.

Sayr qilish bolaning kuzatuvchanligini, shuning oqibatida fikrlashini va nutqini rivojlantirishda ancha yordam beradi. Shuning uchun sayrda bola bilan albatta gaplashish, unga u yoki bu narsani yo'xud hodisani tushuntirish, shuningdek uni subbagga chorlash kerak. Ba'zan, shunday bo'ladiki, nimani xohlayotganini ayta oladigan bola kattalarga iltimos bilan murojaat qilishda so'zdan emas, balki imo-ishora va qo'l harakatlardan foydalanadi. Bunda unga so'zni ayitishi uchun tegishli vaziyatni yaratish zarur. Katta yoshli odam (pedagog) o'zini tushumaganiga olishi va bolaga boshqa narsani uzatishi bilan uni zarur so'zni ayitishga majbur qiladi.

Bolalar nutqi, ayniqsa ikkinchi yilning oxirida, kattalarning savollariga javob berib, ularga murojaat qilayotganlarida, biron-bir narsani so'z bilan ma'lum qilayotganlarida yoki hikoya qilayotganlarida o'zi bilan o'zi gaplashgandagiga qaraganda ancha xilma-xil bo'ladi. Lekin o'yin paytidagi bu subbandan ham nutqni mashq qilishdagi usullardan biri sifatida foydalanilishi lozim. Bolalar ko'proq o'yinchoqlar (qo'g'irchoq, hayvonlar) bilan gaplashadilar: taxminan ular kattalar bolalar bilan o'yinaganlarida qo'llaydigan so'zlarni

36

takrorlaydilar.

Barcha bolalar ham o'yin paytida ko'p gaplashadilar? Yo'q, ko'pincha indamay o'yinchoq bolalarni kuzatishga to'g'ri keladi. Bu bolaning umumiy rivojlanish darajasiga va unga o'yinchoqni o'rgatishiga, qanday o'rgatishiga, qanday o'yinchoqlar berishiga bog'liq bo'ladi.

Nutq o'z vaqtida rivojlanishi uchun ikkinchi yilda bolalar o'yinlarida hayvonlarni tasvirovchi o'yinchoq va qo'g'irchoqlar katta o'rin egallashi lozim. Bolalarga nafaqat ana shunday o'yinchoqlarni berish, balki ular bilan o'yinchoqni ham o'rgatish zarur. Odatda tegishli o'qitish ishlari amalga oshirilgan taqdirda bolalar 1 yil - 1 yil 3-4 oydan keyin o'yinchoqlar bilan turli harakatlarni bajaradilar: kattalarni kichiklariga joylaydilar, o'chadilar, yopadilar, yumalatadilar, o'yinchoqlarni bir-biriga urib, taqqilatadilar. Agar ular o'z ixtiyoriga qo'yilsa qo'g'irchoqlar va hayvonlar bilan xuddi ana shu tarzda o'yinchoqlar: ularni sudraydilar, qutiga tashlaydilar, taxlaydilar, bir-biriga urib, taqqilatadilar.

Bolalarga qo'g'irchoqni qanday qilib ovgatlantirish, uxlatish, polda yurgazish, yuvintirish, sochlarini tarab qo'yishni o'rgatish zarur, chunki ularning o'zlarini qanday qilib yuvintirayotganliklari va ovgatlantirayotganliklarini ko'rib, ana shu harakatlarni kattalarning yordamisiz qo'g'irchoqlarga ham qo'llay boshlaydilar, deb umid qilib bo'lmaydi. Bu yoshda bolalar asosan ularga ko'rsatilgan o'yinchoqlarga taqlid qiladilar. Qo'g'irchoq bilan amalga oshiriladigan, unchalik murakkab bo'lmagan o'yin namunalari taqlid qilish bolaning hayotda ko'rgan narsalarini o'yinga olib o'tish qobiliyati, ya'ni nisbatan murakkab bo'lgan aks ettiruvchi (syujeti) o'yinga o'tish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi. Biz uchun ushbu holatda bolalarning qo'g'irchoqlar va hayvonlar bilan o'yinchoqni paytida juda ko'p o'yinchoqlar boshlashlari muhimdir. Ular o'zlarini o'yinchoqni nomlarini va ular bilan nimalar qilayotganliklarini aytdilar, nihoyat bolalar asta-sekin nutqni egallaganliklari holda o'yinchoqlarga murojaat qilishni va ular bilan so'zlashishni boshlaydilar.

Kattalarning qo'g'irchoq bilan o'yinchoq odatda oddiy, kundalik hayotda tez-tez uchrab turadigan so'zlarni qo'llashlari ham juda muhimdir: «ko'rsat», «ovqatlaning», «uxla», «kiy», «cho'milamiz» va boshq. Bu bilan ular bolalarga ushbu so'zlardan foydalanishni o'rgatadilar.

Shuningdek, tanish narsalar tasvirlangan suratlar ham nutqni rivojlantirish uchun ajoyib material sifatida xizmat qiladi. Birinchi yilning oxiriga kelib bolalarni ayrim so'zlarni tushunishga tayyorlashda xonadagi narsalar va o'yinchoqlar bilan bir qatorda suratlar tasvirlangan odamlar, hayvonlar,

37

bolalar, kundalik foydalanishdagi buyumlar, tabiat hodisalari nomini ayitish zarur. Suratlarini tomosha qilishni doimo «Bu nima?», «Nima qilayapti?» kabi savollar bilan qo'shib olib borish, ya'ni bolani so'zlashga undash lozim.

Suratni ko'rar ekan, bola katta yoshli odam itimosisiga ko'ra tasvirlangan narsani ko'rsatadi va uning nomini aytadi. Suratlardan mustaqil ko'rib chiqishda foydalanish ham mumkin. Dastlab bola katta yoshli odamning surat haqidagi izohlarini tinglaydi, so'ngra hamsuhbati qiziqirib qo'yganidan so'ng o'zi ham so'zlay boshlaydi, ko'p martalab takrorlashlardan keyin esa suratlar o'z-o'zidan bolaga suratni kattalar bilan birga tomosha qilishda ulardan eshitgan so'zlari, tovushlarini ayitishni boshlash uchun signal bo'lib xizmat qiladi. Agarda bolaga kattalar bilan birgalikda surat tomosha qilish o'z vaqtida o'rgatilmasa, u keyinchalik ham bunga qiziqmasdan, loqayd bo'lib qoladi, ularni indamasdan saralaydi hamda suratlarini ko'rib chiqish va ular haqida fikr bildirish o'rninga ulardan o'yinchoq sifatida foydalanadi.

Ik yoshdagi bolalar uchun suratlardan tashqari kitoblardan ham foydalanish zarur. Odatda bolalar suratlariga qaraganda kitoblarni ishitiyoq bilan tomosha qiladilar. Ushbu yoshda bolalarga kitobni o'qib berish emas, balki uning mazmunini aytib berish lozim, ammo ba'zi-bazida ularga kitob o'qilishini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bolalarning kitob o'qishga taqrid qilishlari ham nutqning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bola nutqni mustaqil ravishda egallay olmaydi. Faqat ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalarining bolaning nutqiy faoliyati tashkil etilishiga doimiy diqqat-e'tiborni qaratishlari tufayligina uning nutqini rivojlantirishda jiboy natijalarga erishish mumkin.

Sarab o'tilgan barcha usullardan mohirona foydalanish bolalar nutqini o'z vaqtida rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin: ilk yoshda bolalar nutqini rivojlantirish – murakkab ruhiy jarayondir.

XULOSALAR:

Bola hayotining birinchi yilida uning nutqiy rivojida ulkan siljishlar ro'y beradi. Bu jadal borayotgan umumiy rivojlanish va ona tilining turli qirralarini o'zlashtirib olish bilan belgilanadi.

Birinchi yilda ovoz munosabatlari, taqrid va tushunish rivojlanadi, dastlabki so'zlar o'zlashtiriladi;

Ikkinchi yilda – tushunish, taqrid qilish, faol nutq rivojlanadi

(asosan lug'at o'zlashtiriladi);

Uchinchi yilda – tushunish, faol nutq: lug'at, grammatik shakllar, sintaktik tuzilmalar (turi gaplar) rivojlanadi.

Birinchi yilning o'zidayoq nutq mulogot vazifasini bajara boshlaydi va rivojlaniruvchi fikrlash quriliga aylanadi.

Nutqni rivojlantirish uchun bola tarbiyalanayotgan hayotiy vaziyat – unga qarov, atrofdaqi kattalarning munosabati, ularning tarbiyaviy ta'siri, shuningdek o'z faolligi (bolaning turli faoliyatdagi faolligi) katta ahamiyatga egadir. Dastlabki uch yilda nutq bolaning hayot faoliyati jarayonida: rejimli davrlarda, mustaqil o'yinda, maxsus uyushtirilgan mashg'ulotda shakllanadi.

Bola nutqning o'z vaqtida rivojlanishida unga nisbatan kattalarning munosabati muhim ahamiyatga egadir. Diqqat-e'tibori, yaxshi munosabatlarga javoban bolada jiboy hissiyotlar va turli xil munosabalar rivojlanadi. Ta'siri tarbiyalash doimiy ravishda amalga oshirilishi va bolaning butun asab-ruhiy rivojlanishining barcha tomonlariga yo'naltirilishi lozim. Faqat har tomonlama rivojlanish bo'lgandagina unda o'z vaqtida nutq shakllanadi.

Ik yoshda mulogot tarbiyaviy ta'sir shakli hisoblanadi. Mulogot shakli va mazmuni bolaning rivojlanishiga qarab o'zgarib boradi: emotsional mulogot; ularning ovoz intonatsiyasini tushunishlari asosidagi mulogot; mimika, imo-ibhoralar, harakalar; so'ngra kattalar nutqi; nutqiy mulogotning o'zi.

Kichik bolalar bilan ishlashda kattalar nutqiga alohida talablar qo'yiladi. U taqrid uchun namuna bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun u har tomonlama namunali bo'lishi, ya'ni: grammatik to'g'ri, intonatsion ifodali, unchalik baland emas, unchalik tez ham emas, ko'p so'zli emas va aniq bo'lishi zarur.

Nutqni ilk rivojlantirish ikki davrga bo'linadi: birinchisi – tayyorgarlik, ikkinchisi – mustaqil nutqni rasmiylashtirish.

Tayyorgarlik davri bolalar nutqini kelgusida rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda tegishli poydevor yaratiladi. Uning negizida esa kelgusida bola nutqi quriyadi, mulogotga chitioj shakllanadi, ovoz munosabatlari, nutqiy harakat (artikulyatsiya) apparati, fonematik tinglash qobiliyati, kattalar nutqini tushunish, so'zlarni eslab qolish va o'zlashtirayotgan so'zlardan mulogot qilish maqsadida erkin foydalanish rivojlanadi.

GRAMMATIK QURILISHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bola nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirish.
2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan mulqot.
3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun mashg'ulotlar ishlanmasi.

Dars o'quv maqsadi Maktabgacha yoshdagi bola nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirish, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan mulqot, maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun mashg'ulotlar ishlanmasi haqida tushuncha berish

Tayanch so'zlar va iboralar: Grammatika, nutq, mulqot, mashg'ulotlar, so'z o'zgartirish va so'z hosil qilish.

Grammatika deganda, biz nutqiy faoliyat natijalarini tavsiflash va tartibga solish uchun lingvistiklar tomonidan o'ylab topilgan qoidalar majmuni emas, balki fikr bildirishni vujudga keltirish va boshqalarning bildirgan fikrlarini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlar umumiyligini tushunamiz. So'nggi payida grammatika aynan shu mahoda psixologlarning diqqat-e'tiborini jahl qilmog'da. Grammatikani tadqiq qilish nafaqat shunchaki qiziqarli, nafaqat lingvistik maqsadlar uchun zarur, balki u umuman fikrlash va bilish jarayonlarini keng tadqiq qilish uchun ham zarur qismidir.

Bizni so'z yasovchi va sintaktik operatsiyalardan foydalangan holda son-sanogisiz yangi fikrlarni tuzish qobiliyatining shakllanishi qiziqtiradi. Uzoq vaqt mobaynida tayyor nutqiy namunalar imitatsiyalari va ularni qo'llash amaliyoti ushbu qobiliyatni rivojlantirishning zarur va etarli sharti hisoblangan. Biroq tilni rivojlantirish faktlari, eksperimentlardan olingan ma'lumotlar asosida ushbu nazariyani qo'rqmasdan yo'qqa chiqarish mumkin. Imitatsiya nazariyasiga qarshi yana bir dalil keltirish mumkin: aniqlanishicha, eshita olmaydigan bolalar nutqni ham imitatsiya qila olmaydilar, lekin shunga qaramasdan ular o'zlarida tilidan normal foydalanish qobiliyatini shakllantira oladilar.

Psixolingvistik tadqiqotlar doirasida tilni o'zlashtirish borasida qanday ahvol namoyon bo'ladi?

Bola tilga nisbatan sust munosabatta bo'lmaydi, aksincha u faol bo'lgani holda til hodisalarini o'zi anglamagan holda doimiy ravishda tahlil qiladi.

Bolaning o'z tilini tashkil etishga, unda biron-bir qonuniyatlarni topishga va qoidaga intilishi hamda ushbu qoidaga muvofiq holda harakat qilishi ko'plab faktlar bilan tasdiqlanmog'da. Hammaga yaxshi ma'lumki, bolaning

tili kattalar tilidan «grammatik noto'g'riligi» bilan farq qiladi. Ammo shuniisi qiziqki, bu noto'g'rilikning o'zi tizimli, asosi bo'lib, u bolaning o'zi tomonidan yaratilgan oraliq til tizimi oqibatidir, bola ushbu tizim ichida anchayin to'g'ri harakat qiladi. Bunday tizimni yaratishda, bir tomondan, eshitilayotgan kattalar nutqiga nisbatan tahliliy harakatlari, ikkinchi tomondan – umuman olganda bilish va tahliliy harakatlari rol o'ynaydi.

Grammatikaning eng muhim jihati – so'z o'zgartirish va so'z hosil qilish operatsiyalarini o'zlashtirishni ko'rib chiqamiz. So'zni bildirgan fikr tarkibiga kiritish uchun u bilan muayyan harakatlarni amalga oshirish zarur, masalan, o'ni tavsiflanayotgan narsalar soniga muvofiq holda muayyan son shakliga qo'yish, fe'l sonini otlar soni bilan moslashtirish, harakat yo'natirilgan o'ni zarur kelishikka qo'yish yoki tegishli old ko'makchidan foydalanish lozim.

Bola tayyor shakllarni «qabul qilmaydi», aksincha ularni ma'lum qoidalar asosida tuzib chiqadi. Bu qoidaning mohiyati shundaki, bunda bola til belgisini birgalikdagi semantik va grammatik birlik (L.S.Vo'gotskiy ta'riflagan «psixologik qurol bilan») sifatida o'zlashtiradi. Butun til rivojlanishining asosida bolani predmetli faoliyati yotadi. Bolaning til borlig'i elementlari bilan harakati mohiyatan, xuddi predmetli olam bilan amalga oshiriladigan harakatlari kabidir. Sobiq sovet davridagi taniqli psixolog D.B.Elkonin ham aynan shunga e'tiborni qaratgan. U umuman olganda, o'zlashtirish bilan moddiy predmet sifatidagi harakatlarni shakllantirmasdan turib uni amalga oshirish mumkin emasligini qayd etgan. Ushbu harakatlari chog'rida bolada til borlig'i haqidagi tasavvur shakllanadi. Bola bu tasavvurlarni o'zining predmetli olam haqidagi bilimlariga mos ravishda shakllantiradi.

So'nggi fakt M.I.Popova tomonidan o'tkazilgan maxsus sinovlarda ko'rsatilgan. U bolalarning qanday qilib so'zda so'z yasovchi elementlarni ajratib olishlarini tadqiq qilgan (lingvistikada ularni morfemalar deb atashadi). Bunda tur ko'rsatkichiga ega bo'lgan o'lgan zamon fe'l shakllari material sifatida xizmat qilgan. So'z yasash xususiyatlariga ko'ra aniqlanadigan ot turi fe'l qo'shimchasini aniqlash uchun yagona mo'ljali hisoblanadi. Tegishli morfemani (tur belgisi) ajratib olmasdan turib to'g'ri kelishishni amalga oshirish mumkin emas. Bolalar esa sinov paytida tegishli shakliy ko'rsatkichlarni real predmetli munosabatlari asosida ajratib oldilar. Bolalarning grammatik hodisalarini tushunishi predmetli munosabatlarga asoslangani haqida boshqa tadqiqotlar ham yozganlar (F.A.Soxin, F.I.Fradkina).

Bola so'z yasash toifalarining tashqi, tovushli ifodalarni o'zlashtirib olishi lozim. Bunda bola eng avvalo so'z yasovchi elementning tashqi – moddiy tomoniga yo'naladi va uni mustaqil mazmun sifatida qabul qiladi,

morfemalarning jaranglashini obrazii asoslaydi. Boshqacha qilib aytganda, bola dastlab morfema jarangining o'zida real munosabatlari bilan bog'liqlikni topishga harakat qiladi. Agar bola eng avvalo morfema so'zga olib kiradigan tovush o'zgarishini aniqlasa va uni qiyoslay olsa (tovush o'zgarishlari haqiqatda yuz bergan o'zgarishlar bilan), u bu munosabatlarni topishi mumkin. Ayni paytda bola so'zga «butunlay» yo'naladi, ya'ni umumiy tovush xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Predmetli olamdagi o'zgarishlar predmetning qandaydir ahamiyatli xususiyatlariga (bola nuqta-nazaridan) taalluqi bo'lmaydi, aks holda predmet belgilash uchun boshqa so'zni, yangi nomni talab qiladi.

Bu o'zgarishlar predmet harakati natijasida kelib chiqishi mumkin (holat o'zgarishi); predmet belgilariga taalluqi bo'lishi mumkin (sifat o'zgarishi), predmetlar soniga taalluqi bo'lishi mumkin va h.k. Predmetning ushbu o'zgarishlari bola tomonidan hissiyotli qabul qilinadi va uning ongida tasavvur ko'rinishida aks etadi. Tasavvur predmetli harakatlar hisobiga boyiydi, bu jarayonda bola o'zaro hamkorlikdagi predmetlarni kuzatadi va o'zi ham ushbu hamkorlikda faol ishtirok etadi. Hissiyotli qabul qilinayotgan belgilardagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotni bola kattalar bilan mulogot chog'ida oladi. Mulogotga ehtiyojmandlik va ushbu mulogotning tobora murakkablashib borayotgan shartlari boladan atrof boridagi o'zgarishlar haqida olingan tasavvurlarni natijalar qabul qilish va aks ettirish, balki ifodalashni ham talab qiladi.

Olingan bilimlarni ifoda qilish tegishli vositalarni talab etadi. Ummidan olganda, bolada bu vositalar mavjud, u mazkur narsa yoki harakat nima deb atalishini biladi va h.k. Predmetdagi o'zgarishlar haqidagi bilimlarni ifodalash uchun nom-so'zni o'zgartirish zarur. Shunda aynan ushbu shaklni tanlash uchun tegishli qoidani qidirish boshlanadi (mazkur shaklni bola so'zdan «alohida» tarzda o'zlashtirib olgan).

Biroq, shakllarni o'zlashtirish kamlik qiladi, chunki ushbu shakllarni tanlashni ham bilish zarur. Kattalarda shaklni tanlash tilda shakllangan vositalar bilan bog'liq, bola bo'lsa uning tasavvurida predmetli munosabatlari namunolari bilan bog'liq bo'lgan, asoslangan shakllarni tanlashga intiladi. Ayni paytda shakllarni tanlashning obrazlarga asoslangan turi va predmetli munosabatlarga yo'nalish bolalarda ancha zaifgacha, to'g'ri yoshigacha saqlanib qoladi.

Bolaning morfemaning tovushli shakliga yo'nalganligi va uning morfema jaranglashiga motivatsiyalangan mazmun sifatida qarashi bolani juda muhim xulosaga olib keladi: o'xshash hodisalar o'xshash tarzda belgilanadi. Bolalarning ko'p sonli yangi so'z yasashlarining (neologizmlar) yuzaga kelish sababi shunda. Bu - bola kattalardan hech qachon eshitmagan, ammo u

yoki bu so'z yasovchi element «faoliyat» haqidagi umumlashtirilgan tasavvurga to'la muvofiq holda hosil qilingan so'zlardir.

Biroq bu o'xshashlik to'g'ridan-to'g'ri oddiy mexanik holatdagi o'xshashlik emas, bu - bolaning olam haqida olgan bilimlarini mos tarzda ifodalash, qoidalarini «ekshirib ko'rish» va o'zlashtirishga nisbatan ijodiy intilishi namoyishidir. Bunga bolalarning so'z ijodkorligidan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Shunday fikr mavjudki, unda bolaning o'z predmetli aniq ma'nosi ega bo'lmagan, to'g'ridan-to'g'ri hech qaysi borliq predmeti bilan qiyoslanmaydigan morfema kabi mavhum elementlarni ajratib olinmasligi qayd etiladi. Biroq, ushbu nuqta-nazarga qarshi bo'lgan va morfemaning so'zda obektyor» ajratib olinishini isbotlaydigan ko'pgina ma'lumotlar ham mavjud.

Muayyan bosqichda bitta so'z shakllari bola uchun turli so'zlar hisoblanadi. So'z yasovchi elementni so'zning alohida ahamiyatga ega bo'lgan qismi sifatida ajratib olingunga qadar mazkur element eski so'zga yangi ma'no olib kirmaydi, aksincha u yangi so'z yaratadi. Gap shundaki, so'zning har bir shaklni bola narsalar olamidagi yangi narsalardan biri sifatida qabul qiladi. Bu bo'laga ushbu munosabatlarni belgilaydigan so'z yasovchi elementni asta-sekin boyitib borish imkonini beradi. Mazkur umumlashtirishlar asosida til tuzilishining bir qismi sifatida u yoki bu hodisa haqidagi umumiy tasavvur (belktyor) hosil bo'ladi. Ko'rgazmali namoyish psixik aks ettirish sifatida sust emas, faol bo'ladi, u inson hayotini, amaliyotni o'z ichiga oladi, u «subektiv-obektivlar»ning muntazam ravishda bir-biriga quyulish sari harakatidir. Ijod so'zi so'z shakllarining obektiv mazmuni shakllanganligidan dalolat beradi. Tasavvurlarni umumlashtirish lingvistik e'tiborini jalb qiluvchi bolalar grammatikasi mazmuni quriladigan poydevor bo'lib xizmat qiladi.

So'z hosil qilishni (so'z o'zgartirishni) o'zlashtirishda bolaning morfemaning tovush qiyofasiga yo'nalishi shu bilan isbotlanadiki, dastlab talafuzning aniqdigi aynan qo'shimchalarda ko'rinadi. M.I. Popova ham shunday xulosaga kelgan, u grammatik shakllarni o'zlashtirish uchun bolada so'zning tovush shakliga yo'nalganlik hissi shakllangan bo'lishi lozimligini ko'rsatib bergan. Yo'nalganlik hissi shakllantirish uchun bolaning so'zlar bilan faol ish olib borishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yo'nalganlikning o'zi ham aslida aniqlovchi komponent sifatida ushbu faoliyatga kiradi. Bolaning faolligisiz shunchaki tajriba to'plash katta natija keltirmaydi.

Bola morfemani egallash jarayonida qator bosqichlardan o'tadi. Dastlab

morfema ajratiladi, soʻngra u vazifasiga koʻra qoʻllanila boshlaydi, oʻz jaranglashidan «ajralgani» holda belgi sifatida chiqadi.

Morfemaning tovush qiyofasini qabul qilishda bolada koʻrgazmali tasavvur asosida jaranglashning predmetli munosabatlar bilan obrazli aloqasi shakllanadi. Bola ushbu obrazli aloqa asosida oʻziga kerak boʻlgan soʻzning toʻgʻri talaffuz qilinishini «tekshirib koʻradi», bunda u oʻzi hosil qilgan umumlashitirmalarga amal qiladi. Shuning uchun bolada soʻzlarni buzib talaffuz qilish holatlari roʻy beradi (Oʻzbek tilidan misollar keltirish lozim).

Boladagi faol harakat morfemaning unga bevosita berilgan xususiyatlarini ochishi uchun zarurdir. Ayni paytda bola soʻzlar bilan xuddi predmet bilan boʻlgani kabi harakat qiladi va uning natijasida aniqlangan qoida ushbu soʻz yasovchi elementni nima uchun qoʻllash lozimligini koʻrsatadi.

Qoidaning shakllanganligi va uning mustahkamligini sinov yoʻli bilan tekshirib koʻrish mumkin, bunda bola ushbu gipotetik qoidani avvaldan notanish til materialiga nisbatan, masalan, kvazi-soʻzlarga nisbatan qoʻllash zarurati oldida qoldiriladi.

Ichki, anglanmagan, biroq shak-shubhasiz, amalda boʻlgan til tizimining mavjud boʻlishi bolaning toʻgʻri qurilgan soʻzni notoʻgʻri qurilgan soʻzdan ajratib olishida namoyon boʻladi. Bola toʻgʻri soʻz hosil qilishga intilgani holda doimo oʻz nuqtini tuzatib borishga harakat qiladi («Daryoda baliq koʻp edi.. baliqlar..koʻp baliqlar»). Bola oʻz fikr bildirishlarining sintaksisini ham aynan shu tarzda toʻgʻrilaydi («Timur yigʻladi, chunki unga shapaloq urishi... oyisi shapaloqni bilan urdi, chunki uning oyisi shapaloq tushirdi»). Oʻzini-oʻzi toʻgʻrilashga oid bunday koʻplab holatlar, shuningdek atrofdagilar nuqtini toʻgʻrilash (bolalar fikriga koʻra, notoʻgʻri boʻlgan) bolaning turi tillardagi nuqtalarning magnitofon yozuvlarida kuzatilgan.

Bolalarning soʻz ijodkorligi — qoidalar, umumlashitirmalarni shakllantirish, obrazli aloqalar harakati jarayonlarining eng yaqqol koʻrinishidir. Bolalarning soʻz ijodkorligini bolalikda ona tilining grammatik tuzilishini oʻzlashtirish jarayonining tomonlardan biri sifatida tahlil qilgan F.A.Soxin ushbu jarayonlar negizini tilning tizimli aloqalarining bola ongida aks etishi va uning til mexanizmlari shaklida mustahkamlanishi tashkil qiladi, degan xulosaga kelgan.

Bolaning til borligʻiga nisbatan faol ijodiy munosabati uning tilning soʻz hosil qilish imkoniyatlarini amalga oshirishda koʻzga tashlanadi. Bolada generallashuv natijasi sifatida borliq hodisalarning ulami ifodalashning til qobiliyati bilan umumlashitirilgan aloqalari aks etadigan soʻz hosil qilish modeli haqida ayrim tasavvurlar shakllanadi.

Boladagi bu aloqalarning xususiyati shundaki, umumlashitirish jarayonining oʻzi yoshga oid ayrim psixologik oʻziga xosliklarga boʻysundirilgan. Biz tomonimizdan bola ruhiy hayotida obrazli, koʻrgazmali komponentlarning hukmonomlik qilishi qayd etilgan. Shuning uchun soʻz hosil qiluvchi vositalar bolaning amaliy, predmetli tajribasi orqali aniqlanishi lozim.

Natqiy rivojlanishning turi bosqichlarida bola uchun leksik ahamiyat (soʻzlik) predmetli ahamiyatga eng yaqini sifatida etakchi oʻrin tutadi. U ahmiyatlarini rasmiy til birliklari (tabiatan mavhum boʻlgan) yordamida takomillashitirish mexanizmini hali egallamagan. Uch yoshgacha bolaning lugʻati «turli» soʻzlar hisobiga ortib boradi. Uch yoshdan keyin soʻz yasovchi daraja etakchi darajaga aylanadi. Bolaning faoliyat koʻrsatish va mulqot sohasi jadall kengayib boradi, va uni tavsiflash uchun naqd leksik vositalar etmaydi: bola soʻz yasashga murojaat qilishga majbur boʻladi. Agarda yangi hodisani ifodalash uchun maʼlum birlik mavjud boʻlmasa, bu holda mazkur birlik «ixtiro qilinadi», ammo aslida u yangidan emas, balki bola til tizimining soʻz yasash darajasini taʼktil qiluvchi maʼlum (anglanmagan) qoidalar asosida shakllantiriladi. Ayni paytda yangi kashfiyot tuzilmasi faoliyat tajribasi bilan determinirlanishi zarur.

Turi yoshdagi bolalar uchun soʻz hosil qilishning etakchi darjasi oʻzgarib boradi. Ikk yoshda bolaning natqiy faoliyatida leksik daraja etakchi hisoblanadi: borliqning turli hodisalarini tavsiflash uchun bola oʻz ixtiyorida mavjud boʻlgan leksik birliklardan foydalanishga harakat qiladi. «Poezdni kim boshqaradi?» degan savolga kichik yoshli bola quyidagicha javob beradi: «Mashinist» (uning ismi) yoki «kim boshqaradi?» - bola zarur soʻzni topa olmaydi va aniq darajada oʻladi: «Timur». Nisbatan katta yoshli bola oʻzidagi mavjud soʻz yasash qoidalariga muvofiq holda buzuvichi soʻzlarni yaratadi va shu tariqa vaziyatdan chiqib ketadi. U shu bilan obektlarning butun sinfini nomlaydi, ayni paytda «Timur» soʻzi oʻzining aniqdigi tufayli bunga yaramaydi.

Yoʻnalitiruvchi faoliyat tasavvuriga, vaziyat obraziga asoslangan. Vaziyat deyatlab yulpi, boʻlaklarga ajratilmagan holada namoyon boʻladi. Bola nuqtida u ham dastlab aʼzolariga boʻlinmagan holatda ifodalanadi. Vaziyat haqidagi tasavvurni rivojlantirish hamda ushbu vaziyatni natqiy ifodalashni rivojlantirish yulpi va boʻlaklarga ajratilmagan vaziyatdan aniq va boʻlaklarga ajratilgan vaziyatga qarab rivojlanib boradi. Yoʻnalitirish mazmuni quyidagilardan iborat: - obektlarning aniq sifatleri, belgilarini taniishi; - ushbu belgilar nomlarini ayitish yoki ularni ifodalash shakllarini taniish, obektlar haqidagi maʼlumotlarni boshqasiga uzatish uchun ularni ajratish. Shu bilan bir vaqtda obektlarni ixtisoslashtirish, ulardan vaziyatlarni ajratib olish va vaziyat elementlariga nom berish (belgilar, harakatlarni nomlash) kabi boshqa jarayonlar ham davom etadi. Ushbu

jarayonning ilk bosqichlarida predmet, vaziyat va ifoda shakllarini qiyoslashda ko'rgazmalilik, obrazlilik hukmron bo'ladi. Masalan, bola narsalarning hajmiga ko'ra bir-biridan farqlanishini bilsa, u tilda ushbu farqlarni ifodalash usullarini ham topishi lozim. Kattalar nutqida unga ushbu hodisani turli ko'rinishlari taklif etiladi, ammo bola ushbu misollardan mexanik tarzda nusxa ko'chirib olmaydi, balki uni ijodiy jihatdan qayta mulohaza qilib ko'rishga intiladi: chichon — «katta sichqon», nanna — «katta non» (A.N.Gvozdev). Yoki harakat obrazini ifodalash uchun tilda qabul qilingan amalga oshirish usullari: - raspaketit, vo'tolknul (K.I.Chukovskiy). Biz bu erda so'z mazmunini o'zgartirish uchun, yangi mazmunini ifodalash uchun uning shaklini ogli ravishda o'zgartirishni ko'rib turibmiz. Shuning uchun grammatik shakllarni o'zlashtirishning izchilligi tasodifiy emas (A.N.Gvozdev tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kabi): otlar soni, otlarning kichaytirilgan shakli, buyruq mayli, kelishiklar (u bolalarga predmetlarning borligida yo'naltirilganligi haqidagi bilimlarni ifodalashda yordam beradi), zamon kategoriyalari, fe'l shaxslari. Bu erda nisbatan oz mavhumli, aniq shakllardan yanada mavhum shakllarga, oddiy, rasman ifodalashdan (kichaytirilganlik) murakkab va predmeti vaziyat bilan qiyin taqqoslanadigan ifodalar sari yo'nalish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qayd etilganidek, grammatik shakllarni egallab olish ko'rgazmalilik tasavvurni shakllantirish asosida ro'y beradi. Bu murakkab yo'l bo'lib, unda bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin: so'zning tovush shakliga yo'nalish, umumiy tovush shakllarini aniqlash, ushbu shakllarni borliq hodisaning qandaydir elementi bilan birlashtirish, va nihoyat, tovush kompleksining mazkur hodisa bilan «qattiq» aloqasini o'rnatish va oqibatda, ushbu hodisani belgilash uchun mazkur tovush kompleksini barcha so'zlarga o'tkazish.

Grammatikaning gap tuzish usullari bilan bog'liq bo'lgan qismini o'zlashtirish qay tarzda ro'y berishini ko'rib chiqamiz. So'z nutqning muhim xususiyati - uning maqsudorligini ta'minlovchi sintaksis haqida bormoqda.

Olimlar ko'plab tadqiqotlardan kelib chiqqan holda til tarkibini bilish tug'ma qobiliyat emas, balki til rivojlanishi jarayonida bola qoidaga o'xshash narsalarni o'zlashtirib oladi va ular yordamida o'zining cheklangan tajribasini son-sanogisiz gaplar tuzish hamda ularni tushunish darajasiga kengaytiradi, degan fikrlarni bildirmoqdalor. Bugungi kunda lingvistikaning vazifalaridan biri — ushbu qobiliyat tabiatini va mexanizmini tushunishdan iboratdir. Shu narsa kundek ravshanki, sun'iy sharoitlarda til o'rgatilganida biz yanada cheklangan til tajribasiga va yanada kam sonli gaplarga duch kelamiz. Ayni paytda faqat ana

shunday qobiliyat, agarda u shakllantirilsa, bizning o'quvchimizga o'rganilayotgan tilda mulotoq qilish, ya'ni ancha ko'p sonli gaplarni tuzish va ularni tushunish imkonini beradi.

Ona tili sintaksisini egallash, yugorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarning qonday qilib (eng umumiy ko'rinishda) yuzaga kelayotganligini ko'rib olingamiz. Bolaning birinchi so'zlari ko'pincha gapda kommunikativ kuchga ega bo'ladi, va mohiyatan, bir so'zli gaplar hisoblanadi. Ularda grammatik tizimning etishmayotgan elementlari yig'ishirib qo'yilgan, vaziyatdan kelib chiqib mulotoq berilgan, va bunday gaplarning mazmunni vaziyatga qarab o'zgartirishi mumkin. «Ona» - bu «Oyi, bering», va «Mana oyi», va «Mening qonim och» va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

Bu fakt bizga quyidagilar tufayli qiziqarli: birinchidan, bola so'zni shunchaki talaffuz qilmaydi, real nutqiy faoliyatda bunday bo'lmaydi. So'z (o'z y'irog'i, uni qo'llash) nutq jarayonining, kommunikatsiyaning bir qismi hisoblanadi, va so'z doimo nima uchundur (motiv) hamda nima sababidir (muqadd) qo'llanadi. Ikkinchidan, bir so'zli gapni qo'llash bola nutqida, ayni paytda deyarli hamma bolalar nutqida tabiiy ravishda va uzoq vaqt davomida kuzatiladigan hodisadir.

Bolalar nutqi bir nechta marta psixologlar va lingvistlar tomonidan tadqiq qilingan, ammo bu tadqiqotlarga ko'pincha talqin qilishdagi mazmuniy yondashuv e'tiborgin: ularning barchasi shunchaki lug'at sonini va uning o'sishini sanash, bolalar so'zlarini «nutq qismlari bo'yicha» zerikarli tasniflashdan iborat bo'lib qolgan. Biroq, deya haqli ravishda yozadi D.Slobin, gap kattalar tilida qaysi nutq qismi u yoki bu so'zga kiritilishi mumkinligida emas, balki uning bo'laning til tizimida qanday o'rin egallashi haqida bormoqda. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatdi, bola kattalar tilining kategoriyalar tizimiga amal qiliboydi, aksincha u o'zining «individual» til tizimining ichidagi vazifaviy xususiyatlariga asoslangan o'z so'zlar kategoriyasini yaratadi. Masalan, kattalar tilida ot kategoriyasiga taalluqli bo'lgan so'z bolalar gapida (va bolalarning til tizimida) fe'l vazifasini bajarishi mumkin. Ushbu hodisa bola bir so'zli gaplar bosqichidan ikki so'zli gaplarga o'tganida ta'sir qila boshlaydi, o'shanda grammatika shakllana boshlaydi, tili tarmoqlantirish boshlanadi. Bola berilayotgan mazmunni ikki so'zni bir-biriga qo'shish orqali kengaytirish imkoniyati mavjudligini «sezib qolishi bilan» ikki so'zli gaplar soni shiddat bilan o'ssa boshlaydi. Shu o'rinda faqat bita bola nutqiga oid ma'lumotlar bo'yicha ana shunday to'rifdagi gaplar sonining o'sishiga misol keltiramiz: 14, 24, 34, 49, 89, 350, 1400, 2500.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bola gapda so'zlamni shunchaki tasodifiy tarzda bog'lamaydi va bu o'rinda gap ko'proq so'zning ikki vazifaviy sinflari mavjudligi haqida bormoqda. Bu unchalik katta bo'lmagan va nisbatan yopiq bo'lgan «tayanach so'zlar» toifasi hamda ko'pchiligi bir so'zli gaplardan iborat bo'lgan keng: «ochiq» so'zlar toifalaridir. Ikki so'zli gap tuzish uchun «tayanach» sinfdan so'z tanlab olinadi (u xuddi gapning semantik asosi hisoblanadi), mazmun esa «ochiq» sinfdagi ikkinchi so'z hisobiga o'zgarib boradi. Masalan: «Yana kitoblar», «Yana sud», «Yana o'ynash».

Mazkur hodisa turli til toifalarida so'zlashayotgan bolalar nutqi rivojida kuzatilgan va u tilni tizimlashtirish, uni tarmoqlantirish boshlanganligidan dalolat beradi. Bolalarning fikr bildirishlari ham o'zgaradi, ularda ham turli tilli bolalar uchun umumiy bo'lgan toifalarni aniqlash mumkin. Mazkur masala ta'lim maqsadlari uchun qiziqarli: bolalar eng kam til vositalaridan foydalanganlari holda nimalar haqida so'zlamoqdalar? Lekin afsuski, bu borada juda kam narsalar ma'lum. Xususan, ma'lumki, bolalar asosan ob'ektlar nomlarini aytadilar hamda juda erta paydo bo'ladigan va universal hisoblangan «ega-kesim» kombinatsiyasidan foydalangan holda harakatlarni tavsiflaydilar. Bola juda yoshligidan qandaydir inkor shaklini qidira boshlaydi — shundan kelib chiqqan holda insonlarning kommunikatsiyasi uchun inkor kategoriyasining naqadar muhimligini bilish mumkin.

Bolalar nutqini tadqiq qilish jarayonida fikr bildirish semantikasining quyidagi turlari (ko'plab tillarda) ajratiladi: nom, joylashgan joyini aniqlash, iltimos-buyruq, voqea, vaziyatni tavsiflash, narsaning nimaga oidligini ko'rsatish, predmet sifatini aniqlash, predmet sifatini ifodalash, savol, inkor (ushbu barcha fikr bildirishlar bilan birgalikda), birlashtirish («Piyoala bilan choyrakni ko'rayaman»).

Bola ikki so'zli gap doirasidan chiqishi bilan uch va undan ortiq so'zlamni bir-biriga bog'lay boshlaydi, unga gaplar so'zlamni pala-paritish ravishda terib tashlash yoki tasodifiy ravishda bir-biriga bog'lash orqali emas, balki muayyan tuzilmalarni birlashtirish orqali tuzilishi yanada tushunarli bo'lib boradi. Xuddi bolaning farqlanmaydigan tovushlarni tashlab yuborгани holda tilning tovush tizimi borasida umumlashtirmalarni amalga oshirayotgani, yoki o'zixiyorida faqat mazmunga ta'sir qiladigan so'z o'zgartirish usullarini qoldirgani holda so'z o'zgartirishning morfologik tizimini o'zlashtirib olishi kabi sintaksisni egallash jarayonida ham bola muayyan semantik munosabatlarni uzatuvchi sintaktik tuzilmalarni «aniqlaydi». Bolalar nutqini kuzatish, faqat gapning tuzilmaviy tarkibi o'rtaida qayd etiladigan fikr bildirishlardagi pauzani

tahlil qilish, intonatsiya turlarini tahlil qilish va h.k. ana shu jarayondan dalolat bormoqda.

Muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqqan savol va inkorni ifodalash zarurati bolani tegishli til vositalarini qidirish zarurati oldida qoldiriladi. Bu jarayon o'z qiziqarli bo'lib, u bola keyinchalik voz kechadigan ko'p sonli oraliq grammatikalarni, tizimlarni yaratish orqali tilni o'rganishdagi faollikni yaqqol namoyish qiladi. Rus tilida savol gaplarning paydo bo'lishi rus tilida so'zlashadigan bolalarning intonatsiyani o'zlashtirishlarida biradgina sur'atni oshirib yuboradi. Intonatsiya aniq qayd etilgan «savol signaliga aylanadi».

Yuqorida bayon etilganlar til egalari bo'lmish kattalar ko'p sonli yangi fikr bildirishlar talqini yaratishda foydalanadigan ayrim qoidalar tizimi mavjudligi haqida hamda bola aynan shunday tizimni egallashi to'g'risidagi taxminlarni juda asosli ekanini ko'rsatadi. Tilni rivojlantirish (parallel ravishda lug'at to'plash) mohiyati ham ana shunda.

A.R.Luriyning haqli ravishda qayd etishicha, til qobiliyati ham, til faolligi ham birdaniga paydo bo'lmaganlar va ular ikki mustaqil hodisa hisoblanmaydilar. O'yash mumkinki, tilidagi «dayoqatlilik»ning o'zi uni qo'lashni rivojlantirish natijasi hisoblanadi hamda borliqni faol aks ettirish va faol muloqotga kirishish jarayonida bolada tilni tushunish paydo bo'ladi.

«Tilning nasliy idizlarini aniq insoniy hat-harakatlarining tashqi borliqni aks ettirish va olamning subektiv obrazini, bolaning atrofdagilar bilan asosiy muloqot usullarini shakllantirish amalga oshiriladigan shakllardan qidirish lozim, deyish uchun asos bor».

Bolalarning grammatikani o'zlashtirishlari masalasini ko'rib chiqib, quyidagi kulosalarga kelish mumkin:

Bola tayyor so'z shakllari va ularning tayyor kombinatsiyalari bilan amallar bajar olmaydi, balki ularni o'zi tomonidan ochiladigan qoidalar tizimi asosida yaratadi.

Qoidalarning mohiyati til tizimining elementini ongsiz ravishda ajratish va uning vazifalarini borliqni belgilashdan iborat qilib qo'yishdadir. Qoidani shakllantirish asosida mazkur til hodisasining semantik, mazmun jihatdan ahamiyatlarini baholash jarayoni yotadi: bola diqqat-ehtiborini faqat so'z yoki gaplar mazmuniga qaratadi.

Semantik jihatdan ahamiyatlilik haqidagi axborot predmetli, o'yin va til faolligini chegaralaridan «oqpladi».

Grammatik qurilishni shakllantirishga doir ishlar mazmuni va vazifalari Bolalar bog'chasi, oila oldida - bolalarga to'g'ri so'zlashni o'rgatish, ya'ni

soʻzlardagi barcha tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, toʻgʻri grammatik shakllarni qoʻllashni oʻrgatish vazifasi turadi. Shundan kelib chiqadiki, oʻqituvchining muhim vazifasi bolalar ona tilining barcha grammatik shakllarini iloji boricha oldinroq eshitishlari va asta-sekin ularning maʼnosiga tushunib borishlari haqida qaygʻurishdan iborat boʻlmogʻi darkor. Ona tilining grammatik ahamiyatlari maʼnosini tushunish – oʻsib borayotgan insonning aqli shakllanayotgani va rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Ushbu jarayon ongsiz ravishda amalga oshadi. Biroq, u sifatisiz oʻqitish tufayli toʻxtab qolsa, bolaning aqlan rivojlanishi ham kechikadi. Ona tilining grammatik tuzilishini maktabgacha oʻzlashtirmagan bola keyinchalik yomon oʻqiydi, chunki u maktabda oʻrganilayotgan borliq hodisasing aloqa va munosabatlarni tushunishga ojizlik qiladi.

Bu boradagi vazifalar quyidagilardan iborat

Fikr bildirishni grammatik rasmiylashtirishni oʻzlashtirishga yordamlashtirish: soʻzlarni oʻzgartirish (son, kelishik, zamon va h.k. boʻyicha), ularni turli tarkibdagi gaplarda kelishik, kichraytiruvchi-erkalovchi nomlarni, tugallangan va tugallanmagan koʻrinishdagi feʼllarni hosil qilish;

Yangi soʻzlarni grammatik jihatdan oʻzgartirish va ularni gapda oʻxshashliklari asosida kelishtirishga undash. Soʻzlarni va ularning shakllarini mustaqil ravishda tuzish, soʻz ijodkorligidan nomlar oʻrtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni tadqiq qilishning faqat bolalarga xos boʻlgan usuli sifatida foydalanish. Narsalar va hodisalar oʻrtasidagi munosabalar borasidagi oʻz tushunchalarini gapning murakkablashtirilgan tuzilmasi orqali aks ettirish (oddiy yoyilmagan va yoyiq, bogʻlangan qoʻshma gaplar va ergashgan qoʻshma gaplar).

Soʻz oʻzgartirishning qiyin koʻrinishlarini oʻzlashtirishga koʻmaklashish (Bosh kelishik va qarargich kelishikdagi koʻplikdagi otlar, oʻzgaraydigan otlar, feʼllarning buyruq mayli shakllari, feʼllarning tugallangan va tugallanmagan shakllarni hosil qilish).

Feʼllar, otlar, sifatlardan soʻz hosil qilish usullarini shakllantirish. Gaplar tuzilmasini takomillashtirish, gaplarning har xil turlarini – oddiy, murakkab, begonalar nutqi ishtirokidagi gaplarni faol oʻzlashtirishda koʻmaklashish.

Grammatik vositalarni oʻzlashtirish jarayonida nutqqa nisbatan tanqidiy munosabatlarni, toʻgʻri soʻzlashga intilishni qoʻllab-quvvatlash.

Ushbu vazifalar qanday dasturiy tarkibda hal etilishi mumkin, yaʼni ushbu boʻlim boʻyicha ishlarni tashkil etish uchun tarbiyachi qaysi soʻzlar va grammatik shakllardan foydalanishi zarur.

Tarbiyachi grammatik toʻgʻri nutqni shakllantirishga doir ishlar mazmunini yaxshi bilishi, ayniqsa maxsus metodlar orqali beriladiganini yaxshi bilishi lozim.

Grammatik qatorni bola turli nutqiy faoliyat jarayonida mustaqil ravishda oʻzlashtiradi. Uch yoshli bola tur, son, zamon, shaxs kabi grammatik kategoriyalardan foydalanadi hamda oddiy va qoʻshma gaplarni qoʻllaydi.

Bola sabab-olibatli aloqalar, vaqbay, muhit, miqdoriy va boshqa aloqalarni anglash bilan bir vaqtning oʻzida ularni grammatik shakllarda va qatnalmalarda (bitlik va koʻplik son, ot kelishigi, feʼl zamonlari va turlari, ortirma zamonli murakkab gaplar, maqsad va h.k.) ifodalash usullarini oʻzlashtiradi.

Bola grammatik vositalarning keng turini oʻzlashtiradi. Masalan, «Nima yoʻq» nomi didaktik oʻyinida grammatik shakllardan foydalanadi: moʻyqalam, ruchka, qaychi va h.; «Sayyohatda» oʻyinida oʻziga toʻrt oyogʻli doʻstlar tanlaydi: sichqoncha, qurbagacha, tulki, kirpicha; qoʻgʻirchoq uchun nomushta uyushtrax ekan dasturxoniga choyrakni, qanddonni va sudonni qoʻyadi va oʻylanib qoladi: qand uchun – qanddon, suxari uchun – suxaridonmi?

Bola tilidan foydalangan holda uning xususiyatlarini oʻrganadi, soʻzlar va grammatik shakllar orqali u bilan sinovlar oʻtkazadi. Bolalar aks maholi koʻzlarining (antonimlar: katta-kichik, kuchli-zaiif) oʻzaro bogʻliqligini, maholi jihatidan bir-biriga yaqin soʻzlarni (sinonimlar: kuchuk, kuchukcha, olpar), soʻz yimovchi jiftlikdagi soʻzlarni (tulki, tulki – tulki, kiyikda – kiyikcha) oʻzlashtiradi. Koʻp maholi nomlar bilan tanishadilar (qizchani qoʻli, qoʻgʻirchoqning qoʻli, oʻquvchining qoʻli, dazmolning ushlagichi, qutning ushlagichi, kastriyuning qulogʻi, bolaning oyogʻi, stulning oyogʻi, gulning oyogʻi, qushning oyogʻi).

Grammatik mazmuniga ega boʻlgan dialogik oʻyinlar, mashqlar va muammoli vaziyatlar – bolalar nutqining grammatik jihatdan toʻgʻriligini, ularning grammatik shakllar sohasidagi qidiruv faoliyatini rivojlantirishning zarur shartlari hisoblanadi. Bola soʻz bilan sinov oʻtkazar ekan, toʻgʻri shaklini muhlab koʻrganida holda jaranglayotgan nutqni tinglaydi, soʻzlarni erkin almashtirish, grammatik oʻxshashliklarni aniqlash, shakl va soʻz yasash qoidalarini yaratishni oʻrganadi. Muammoli nutqiy vaziyatlarda («yoʻzma nutq» vaziyati, bunda bola hikoyani aytib turadi, katta yoshli odam esa yozib oladi), birgalikda toʻqish vaziyatida, bunda katta yoshli gapni boshlaydi, bola esa nihoyasiga etkazadi: «donli soʻz» oʻyinida gap tuzilmasini modellash jarayonida bolalar turli tarkibdagi gaplarni tuzishni, nutqni erkin ravishda tuzishni oʻrganadilar.

Afsuski, hozirgi paytgacha bolaning amaliy bilimlari o'zlashtirishda ortda qolayotganini qanday qilib barvaqt aniqlash mumkinligi haqidagi ko'rsatmalar (lavsiyalar) ishlab chiqilmagan. Biz bu ortda qolishni bola maktabda hatto ki I-sinf kursini o'zlashtirishga ham qodir emasligi ma'lum bo'lganida va endi biron narsani o'zgartirish qiyin bo'lgan bir paytda payqaymiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi grammatik xatoliklar grammatik ahmiyatini o'zlashtirish jarayoni normal holatda davom etayotganligidan, bolaning o'z ona tilida grammatik ahmiyat mavjudligi haqidagi g'oyani o'zlashtirib olganidan va mazkur ahmiyatni u taqdid qiladigan grammatik shakllar namunalarini taqdim etadigan tarbiyachilar (ota-onalar)ning pedagogik qobiliyatidan kelib chiqqan holda egallab olayotganidan dalolat beradi. Nutqda grammatik shakllarni tushunish (intuitiv) sari o'z vaqtida yo'naltirilgan bola esa bunday xatoliklarga yo'l qo'ymaydi, chunki ko'pincha u jim o'tiradi.

Shuningdek, bolalar nutqidagi qator grammatik xatoliklarning mavjudligi bolalarning o'zlari qo'llayotgan grammatik shakllar ma'nosini tushunishlari, ammo hali ularni nutqda qanday qilib qo'llashni esda saqlab qolmaganliklari – ya'ni, nutqiy me'yorlarni o'zlashtirib olmaganliklaridan dalolat beradi.

So'z yasashdagi grammatik xatoliklar. Bolalar «o'z» so'zlarini o'zlari o'zlashtirib ulguragan so'zlarga o'xshatib hosil qiladilar. Masalan: (shu erga o'zbekcha variantdagi misollar qo'yiladi).

Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin: chunki, normal rivojlanayotgan har qanday bola o'z so'zlarini «ijod qiladi».

Kattalar bolalarning ushbu yangi hosil qilgan so'zlarining grammatik ma'nosini oson tushunadilar, chunki bu erda ma'no jihatidan grammatik xatoliklar yo'l qo'ldir: old qo'shimchalar, suffiksalar mutlaqo tushungan holda qo'llanmoqda, ulardagi ma'no to'g'ri; bu o'rindagi xatolik shundan iboratki, bolalar ushbu affiksalarining adabiy nutqda qayysi o'zak morfemalari bilan qo'llanishini hali eslay olmaydilar.

So'z o'zgartirishdagi grammatik xatoliklar. Bolalar nutqdagi so'zni odatda, turlash yoki kelishtirishning mahsuldor turi asosida o'zgartiradilar, samarasiz turmi ular odatda, kechroq o'zlashtiradilar, agarda bu borada ularga yordam berilmasa, so'z o'zgartirishdagi xatoliklar maktabgacha «umr ko'radilar», maktabda esa ularni tuzatish ancha qiyin kechadi.

So'z o'zgartirishning samarasiz turiga kichik so'zlar guruhi, ya'ni emog, yurmoq, o'smoq kabi fe'llar (ularning har biri alohida tushlanish guruhini tashkil qiladi), nom, ism kabi har xil turlanadigan otlar (10 ta so'z) va boshqalar kiradi, biroq bu so'zlar nutqda uchraydi, shuning uchun ularning xato

o'zgartirilganligini doimo payqash mumkin.

Bunday turdagi xatoliklardan ayrimlarini misol sifatida keltiramiz (bu erga ushbu misolning o'zbekcha varianti qo'yilishi kerak).

Bolalar odatda, nutqda fe'llning sifat-dosh oborolari va ravishdosh (deprehensive?) shakllaridan foydalanishni bilmaydilar, chunki ular buni kattalar nutqida juda eshitadilar: kattalar bolalarning tushunmay qolishlaridan qo'rqib bunday grammatik shakllarni iloji boricha kam qo'llashga intiladilar, oqibatda, bolalar maktabda uni o'zlashtirishga tayyor bo'lmaydilar. Natijada bolalar nutqi grammatik jihatdan birashtirilgan nutq bo'lib qoladi.

Tarbiyachi (va ota-ona) bolalarning shevaga oid nuqsonlariga ham e'tiborni qaratisi zarur (shu erga o'zbekcha variantdagi misol qo'yish kerak). Qayd etish lozimki, bolalar nutqida sheva bilan bog'liq nuqsonlarni bartaraf etish ancha qiyin, chunki bola uyda, ba'zan bolalar bog'chasida ham doimo kattalarning shevaga xos nutqini eshitadi.

Grammatikaga oid mashqlar bir vaqtning o'zida bolalarning leksika va fonetika bo'yicha o'zlashtirib olgan materiallarini mustahkamlashga doir mashqlar ham hisoblanadi. Bolalarning eng oz miqdordagi so'zlar va tovushlarni artikulyatsiya qilish hamda gap intonatsiyasini modeldashirish qobiliyatini oldindan o'zlashtirib olmaslardan turtib grammatik mashqlarni bajarish mumkin emas.

Uch-to'rt yoshli bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Tarbiyachining asosiy vazifasi shundan iboratki, u bolalarga iborali nutqdan amalda foydalanishni o'rgatishi, ya'ni nutqda asosiy grammatik kategoriyalarni to'g'ri qo'llash, so'zni soni, kelishigi, shaxsi, zamomiga qarab amalda o'zgartirishni o'rgatishi lozim.

Grammatik qator ustidagi ishlarni otlar bilan tanishuvdan boshlagan ma'qul, chunki, otlar nutqimizning yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Bundan tashqari, otlarni o'zgartirish orqali nutqning boshqa qismlari ham, ya'ni: sifalar – kelishiklar, turlar va sonlar bo'yicha; o'lgan zamondagi sifalar va fe'llar – turlari va soni bo'yicha o'zgartiradi.

Otlarni o'zgartirish ishlarini vintelniiy kelishigidan boshlash lozim. Buning uchun uni bosh kelishik bilan taqqoslash, so'ngira eng aniq va imkonli kelishiklar sifatida date'no'y va birgalik kelishiklarini o'rganish zarur, shundan keyingina bolalarga qarataqich va old ko'makchilii kelishiklarning ayrim nu'nalarni, ushbu kelishiklar hamda Qaerga? Qaerdan? kabi farqlovchi savollar asosida hosil qilingan old ko'makchilii tuzilmalarni tanishtirish lozim.

Ayniqsa old ko'makchi ustidagi ishlarga alohida e'tibor qaratisi zarur. Old ko'makchilii tuzilmalar bilvosita kelishiklarning asosiy shakllari bilan

bogʻliqdir, shuning uchun old koʻmakchilar bilan amaliy tanishuvni kelishiklarni qoʻllash bilan birlashtirgan maʼqul. Birinchi navbatda bolalar da, dan, ostida-ustida kabi koʻmakchilar oʻrtasidagi farqlarni tushunib olishlari zarur. Ushbu tushunchalarni musahhakamlash uchun harakat va nuqni taqqoslash juda muhimdir.

Bolalarga nutqda old koʻmakchilardan foydalanishni oʻrgatishda old koʻmakchi va oʻzgartiriladigan qoʻshimchani ohang bilan ajratib koʻrsatish muhimdir: stol ustida, stol ostida yotibdi, stoldan olib tashladi va h.k.

Bolalar otlarning kelishik shakllarini oʻzlashtirib olganlaridan soʻng ularni qaysi turga (rodga) mansubligi bilan amalda tanishtirish mumkin. Buning uchun «bir» sanog soʻzi ishtirokidagi otlarni «bizning» holi bilan birgalikda qoʻllash lozim: bitta shafoli, bitta olma, bitta nok yoki bogʻ, bizning maydonchamiz, bizning derazamiz.

Bu vaqtga kelib bolalar bitta, koʻp soʻzlarini farqlay olishlari lozim. Turli narsalarni tanlab olganlari holda ular bir, bizning soʻzlarini mazkur predmetlar bilan kelishtirishni oʻrganadilar.

Uchinchi yilning boshiga kelib, bola muayyan darajada feʼl leksikasini, yaʼni: noaniq shakldagi ichmoq, bermoq, feʼllarini va bor, ber, keltir, yuv kabi buyruq mayildagi ayrim feʼllarni oʻzlashtirib oladi.

Bolalarga oʻrgan zamon feʼlini tanishtirishni ular otlarning kelishik shakllarini oʻzlashtirib olganlaridan soʻng amalga oshirish zarur. Oʻrgan zamon feʼllari oson oʻzlashtiriladi va u bolalarning faol lugʻati tarkibiga kiradi. Oʻrgan zamon feʼllari materiallari asosida bolalar nutqiga feʼlni oʻzgartirishning tur va son shakllari oson kiritiladi: yuvdi; yuvdik; chizdi, chizdik. Soʻngra «boʻlaman» feʼli bilan bola kelasi zamon shaklini oʻzlashtirib oladi. Oddiy kelasi zamon feʼllari shakllari toʻrt yoshlarga kelib bola nutqida paydo boʻladi.

Bolalar nutqiga turli xildagi feʼllarni kiritishni «harakat - nutq» usulidan foydalanar holda feʼl uski old qoʻshimchalarni kuzatish ishlari bilan birgalikda amalga oshirgan maʼqul. Bundan tashqari, bola muayyan surat yoki harakatga yoʻnalgan holda old qoʻshimcha feʼlga olib kirayotgan (Keldi, kirdi, yaqinlashdi, chiqdi) maʼnosini anglab olishi mumkin. Bolalar old qoʻshimcha maʼnosini oʻzlashtirib olganlaridan keyin uni old koʻmakchi bilan taqqoslash mumkin (...ga kirdi, ...dan kirdi, ...dan chiqdi va h.k.).

Bolalarning amaliy mashgʻulotlarini tashkil etishga doir maxsus mashgʻulotlarda tartibiyatga oʻyinchoqlar, narsalar, kiyimlar, poyabzal, idish-tovoqlar, oziq-ovqatlar va boshqa syujetli oʻyinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bolalar oʻynaganlari holda atrofda kattalar faoliyatiga taqdim

qiladilar. Tuzilayotgan gapni rang-barang qilish uchun oʻyin syujeti oʻzgartirish – yangi oʻyin personajlarini kiritish, bolaga yoʻnaltiruvchi savollar berish va shu bilan uni muayyan iboralar bilan javob berishga majbur qilish zarur. Namoyish qilinayotgan harakatlarni boʻyicha «bilan» old koʻmakchisi ishtirokidagi tuzilmalarni kiritish quyidagi: ayiqcha bilan, kuchukcha bilan oʻynadi; quyuncha bilan, oyisi bilan, Samat bilan gaplashdi.

Namoyish etilayotgan harakatlarni boʻyicha tuzilayotgan butun gapni bolalar albatda oʻzlar aytib koʻradilar. Agar bola gapda xatolikka yoʻl qoʻysa, tarbiyachi uni tuzatishi va gapni yana bir bor takrorlashi lozim.

Bolalarga iboralarini tegishli grammatik shakl bilan rasmiylashtirishni oʻrgatishni oʻyini vaziyatlar asosida ham amalga oshirish mumkin. Oʻyini usullardan bolalar bilan grammatik tuzilmalarni qoʻllash borasidagi suhbat sifatida barcha kelishik shakllarini mustahkamlashda foydalaniladi.

Bolalarga old koʻmakchilarni qoʻllashni oʻrgatishga doir mashgʻulotlarda predmetlarning kenglikdagi munosabatlarini albatda koʻrsatish shart. Buning uchun kubiklar, piramidalar, kitoblar va boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, uchga qurilishini koʻrsatib berruvchi harakatlarni quyidagi soʻzlarni ayrgan holda amalga oshirish zarur: «Kubikning ustiga kubik qoʻyamiz, devor hosil boʻladi. Devor ortida stolcha turibdi» (bu oʻrinda devor ortidagi narsa harakatini koʻrsatish zarur). Stolcha atrofida quyuncha va ayiqcha oʻtiribdi. Stol ustida piyolalar bor, stol ostida esa skameyka turibdi». Stol ustidagi va ostidagi narsalar holatini albatda koʻrsatib zarur, shundagina bola narsalarga oid soʻz birlikmalarini oson oʻzlashtirib oladi.

Maxsus grammatik mashqlarni -suratlardan foydalangan holda amalga oshirish lozim. Ularni sinchiklab koʻrib chiqqandan va savollarga bir soʻzli javob berilganidan soʻng toʻliq bitvosita qoʻshimchani tuzish va aytib koʻrinishga oʻtish darkor, chunki, ularga feʼlga bogʻliq soʻzni rasmiylashtirish ancha qiyin kechadi. Masalan, Alisher Barno bilan koptok oʻynayapti. Qizcha ohoyragi bilan gullarni sugʻormoqda.

Bitta surat syujeti asosida savollar berish va bolaning unga javob qaytarishi savol-javob tusidagi qiziqarli mashgʻulotlardan biri hisoblanadi. Masalan, «Bola qoʻlini yuvmoqda» surati asosida gator savollar berish mumkin: «Xurshid, Timur, Alisher nima qilishayapti?», «Alisher nimani yuvmoqda?», «Biz qoʻlhimizni nima bilan yuvamiz?», «Kimning qoʻli toza?» va h.k.

Bola hayotining toʻrtinchi yilida unga bir tarkibi gaplar tuzishni oʻrgatish, shuningdek uning nutqiga umumlashtiruvchi tushunchalarni kiritishga katta eʼtibor beriladi. Mashgʻulotlarda suratlar asosida, tayanch soʻzlar yordamida, namoyish etilayotgan harakatlarni asosida, gapning etishmayotgan qismlarini toʻldirish

asosida gap tuzish kabi turi xil ishlarni amalga oshirish zarur.

Bir tarkibli aniqlovchilar bilan gap tuzishga doir ishlarni bolalar bilan «Toping, bu nima?» o'yini uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin. Bola ajralib turuvchi belgilariga qarab nasa nomini aytishi zarur, masalan: «dumaloq, sersuv, sarq, shirin, dum bor, foydali» -sholg'om. Yoki: - «katta, dumaloq, ko'k, rezinali» - koptok.

Bir tarkibli kesimli gaplarni tuzish uchun «Esla va ayt» o'yinidan foydalanish mumkin. Tarkibiy bolaga topshiriqni hech kim eshitmaydigan qilib aytadi. Bola topshiriqni izchil ravishda bajara boshlaydi, bolalar esa u nima qilayotganini aytib beradilar: «Abduazim qaychini oldi, qizil va ko'k qog'o'zlardan bo'laklar kesib olib, ularni Zuhra va Farruxga berdi».

Nutqni rivojlantirishga doir mashqlar – ya'ni, nutqiy

grammatik modellarni mustahkamlashga doir mashqlar boshqa ishlar bilan, masalan kitob o'qish bilan birgalikda bajarilishi mumkin. Kichik asarlarni o'qish o'qilayotgan matnga mos o'yinlar va harakatlar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Grammatik mashqlar o'yin, sayr soatlarida, navbachilik paytida bajarilishi lozim, shunda kichikintoylarning nutqiy mahoratlari yanada ortadi.

Umuman olganda, bolaning maktabgacha tarbiya muassasasidagi butun faoliyati uning diqqat-e'tibori, xo'irasi, fikrlash doirasini rivojlantirishga, uning nutqini takomillashtirishga xizmat qilishi lozim.

Besh-olti yoshli bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Bu yoshga kelib bola quyidagi asosiy grammatik shakllarni o'zlashtirib olishi mumkin va shart: birlik va ko'plik sonidagi otlarning old ko'makchi-keleshik shakli, ko'p sonli sifatlarni kelishiklar, sonlar va turlar (rodlar) bo'yicha o'zgartirish, fe'l shakllari, ravishlarni to'g'ri qo'llash. Besh yoshda bola o'z nutqida garchi ayrim gap turlari uning uchun hali ancha qiyin bo'lsa ham, qo'shma gaplardan foydalanadi. Old ko'makchilar va bog'lovchilar turli xil maholarda qo'llaniladi. Ko'proq umumlashtiruvchi so'zlar qo'llay boshlanadi: mebel, ovqat, idish-tovoqlar, o'yinchoqlar, transport. Umuman bolaning so'z zahirasi ortib borgani sayin uning nutqi ravon va izchil bo'lib boradi. Besh yoshli bolalar tuzayotgan gaplarda ular o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan hodisalarning (cetaga, kechasi, yakshanba va h.k.) sabab-oqibatli munosabatlarni ifodalaydilar.

Dasturga muvofiq tarkibiy besh yoshli bolalarga nutq asosiy qismlarining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llashni o'rgatishga doir ishlarni davom ettirishi lozim.

Bolalarga o'z nutqida vaqli, maqsadli va sababli sintaktik munosabatlarni (Qachon? Qaysi maqsadda? Qaysi maqsad uchun? Nima uchun? Nega? kabi savollarga javob berish) ifodalashni o'rgatish zarur. Tarkibiy nutqqa qator old qo'shimchali fe'llarni kirradi, ayni paytda Nima qilding? Nimani qilib bo'lding? (chizdim-chizib tugatdim, yuvdim – yuvib bo'ldim va h.k.) savollarga javob beruvchi fe'llar; savolga qarab asosi o'zgaradigan fe'llar (Nima qilayapman, Nimani qilib tugataman? qurib tugataman – qurib tugatayapman, sakrayman -sakrayapman); kelgusi oddiy va kelgusi murakkab zamonli, -di qo'shimchali va usiz shakldagi fe'llar («Men o'yinamogchiman» - «Men o'yinayapman», «U kiyinmogchi», «U kiyinadi»); bahoni (yaxshi-yomon, foydali, tez, sekin, past, baland); vaqni (bugun, qishda, yozda va boshq.); joyni (bu erda, anavi erda, shu erda, o'ngda, chapda, balandda, pastda, anavi tomonga) belgilovchi eng ko'p tarqalgan ravishlar; gapda so'zlarni bog'lash va gaplarni bog'lash uchun foydalaniadigan to'qina bog'lovchilar (va, esa, ammo, biroq); gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladigan bo'yusundiruvchi bog'lovchilar (uchun, chunki, agar, qachonki, zero) ustidan birlamchi kuzatishni amalga oshiradi.

Hayotining beshinchi-oltinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish maishiy mulogot jarayonida va ayni paytda predmetli mashg'ulotlarda maxsus nutqiy mashqlarni o'tkazishda, suralr bilan ishlashda ro'y beradi. Mashg'ulotlar uchun takrif etilgan didaktik material zamon kategoriyalari, sonlar, shaxslar, turlar (rodlar), fe'llarni o'zlashtirishga, nutqda tugallangan va tugallanmagan ko'rinishdagi fe'llarni amalda qo'llashga yordam berishi zarur. Bolalarni amalga oshirilayotgan va amalga oshirib bo'lingan harakatlarni farqlashga o'rgatish uchun ularga tamish vaziyat bilan bog'liq holda aniq xususiyat baxsh etish lozim.

Gap tuzishda «bugun», «hozir», «endi» ravishlarini hozirgi zamon fe'li bilan, «kech», «amchadan buyon», «yaqindan» ravishlarini o'tgan zamon fe'li bilan bog'lash muhimdir.

Maxsus mashqlarda bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gaplardan iborat bo'lgan qo'shma gaplar tuzishga doir ishlar sezilarli ahamiyat kash etishi dardkor. Buning uchun savol-javob shaklidan foydalangan maqul. Dastlab bola qo'shma gapning faqat ikkinchi qismini (asida qo'yilgan savolga javob ham shu) aytadi, keyinchalik esa undan qo'shma gapni butunicha aytishini talab qilish zarur. Ko'pincha bolalar aynan ergash gaplarni qo'llashda xatoga yo'l qo'yadi.

Qo'shma gaplarni tuzishga doir mashg'ulotlar turlicha o'tkazilishi

mumkin: suratlari bilan: syujeti bir-biriga yaqin bo'lgan ikki surat tanlab olinadi: uning birida o'rin-ko'rmasini yozayotgan qizcha, ikkinchisida esa – uxlayotgan qizcha tasvirlangan. Tarbiyachi rahbarligida bola gap tuzadi: «Gulya endigina joy solayapti, Lola bo'lsa uxlab qoldi».

Gap tuzish «Nima oldin, nima keyin?», «Hammasi teskari», «Xatosini top» kabi o'yinlar bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Ushbu o'yinlarni o'lkazishda bolalar «va» biriktiruvchi bog'lovchisi va «yoki» ajratuvchi bog'lovchisi yordamida gap tuzadilar.

Nima uchun? Nega? savollariga javob beruvchi gaplarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday gaplarni tuzish uchun o'yinchoqlardan, suratlardan turkumidan foydalanish, syujetli-rolli o'yinlarni tashkil qilish mumkin. Bu borada «Telefon» o'yini katta imkoniyatlar yaratadi – bolalar o'zlarining «telefon» suhbatlarini hikoya qilishda qo'shma gap tuzishlari shart: «Barmo unga qo'g'irchoqni keltirishimni iltimos qildi».

Qo'shma gaplarni tuzishga doir ishlar sayrda, tabiat bilan tanishuvda, rasmlar chizish, musiqa mashg'ulotlarida davom ettirilishi lozim. O'tirgan nutqiy ko'nikmalar sahnalashtirish o'yinlarini, didaktik va harakatchan o'yinlarni o'lkazishda mustahkamlanadi.

Hayotning etinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Etti yoshga kelib, bola odatda, nutqning barcha grammatik shakllarini, ya'ni: otlarni turlash, eng keng qo'llaniladigan fe'llarni tushashni egallashi lozim. Harakat belgisini (kenglik, vaqt, harakat obrazini) tavsiflash uchun ular ravishlardan foydalanadilar, buning uchun bolalar ularni so'z birligini va gap qatorida qo'llaydilar: tez yurdi, sekin gapirdi, chappa burildi va boshq.

Etti yoshli bolalar nutqida old ko'nikmalar ko'pincha nafaqat o'z mahnosida, balki chet mahoda ham qo'llaniladi. Shunisi diqqatga sazovorki, old ko'nikmalar dastlab kenglik mahnosi ko'rsatkichi sifatida to'r-t-besh yoshli bolalar nutqida paydo bo'ladi (uydan, devordan uzoglashadi); so'ngra besh-olti yoshli bolalar ushbu old ko'nikmachini ob'ektiv ma'no ko'rsatkichi sifatida ham qo'llaydilar (onaning sov'g'asi, dadamning xati) va faqat, keyinroq, etti-sakkiz yoshlarga kelib, bola sabab mahnosini ifodalash uchun «dan» old ko'nikmachisidan foydalanishi mumkin (qo'rqandan qichqirib yubordi, og'riqning zo'ridan yig'lab yubordi).

Etti yoshga kelib, odatda, nutqning sintaktik qatori shakllanadi: bola oddiy gaplarni, bir xil azoli gaplarni to'g'ri tuzadi, bunda u biriktiruvchi, zidlovchi, ajratuvchi bog'lovchilarni qo'llaydi; u o'z nutqida qo'shma gaplardan, ko'pincha esa turli xil sintaktik munosabatlarni ifodalovchi ergashgan qo'shma

gaplardan foydalanadi: qo'shimcha gaplar – «Kamol nima ko'rganligimni so'radi»; maqsadli gaplar – «Biz oziq-ovqat xarid qilish uchun do'konga ketayapmiz»; shartli gaplar – «Agar yomg'ir yog'masa, biz sayr qilgani chiqamiz» va boshq.

O'z taassurlari haqida hikoya qilgan ekan, olti yoshli bola ravon monologik nutq shaklidan foydalanishi lozim.

Bolalar bog'chasining tayyorlov guruhida grammatik rasmiylashtirilgan nutqni rivojlantirish borasidagi ishlar asosiy o'rinni egallashi lozim. Xuddi oldingi yillardagi kabi, u maxsus mashg'ulotlarda va boshqa faoliyat turlari bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi.

Aynan bir fikrni turli vositalar yordamida rasmiylashtirish maktabga tayyorlash guruhidagi bolalarda grammatik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga doir ishlarining asosiy turi bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar o'yin-kulg'i qilyotgan syujetli suratni tahlil qilishda qator gaplarni tuzish mumkin: «Bolalar quvonchdan sakrab yuborishdi», «Xursand bo'lib, bolalar osmonga sakradilar»; «Bolalar sakrab yuborishdi, chunki ular xursand edilar». Aynan bir mavzuda turlicha gaplar tuzishga doir bunday ishlar maktabgacha yoshdagi bolalar bitta fikrni turlicha ifodalash imkonini beradi. Mashg'ulotlarda tarbiyachi ataylab bolalarga bir-birining o'rinni bosishi mumkin bo'lgan gaplar tuzishni o'rgatadi.

Aynan bir mavzuga oid gaplar variantlarini yaratish uchun didaktik o'yinlar, syujetli rasmlar, badiiy matnlardan foydalanish mumkin. Aynan bitta fikrni ifodalash uchun turlicha gaplar tuzishga oid ishlar etti yoshli bolalarda grammatik to'g'ri nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy o'rinni egallashi lozim.

Bu yoshdagi bolalarga nutqda sifatoshlarni qo'llashni o'rgatish ular nutqini rivojlantirishga doir ishlarining ikkinchi yo'nalishi bo'lishi mumkin. Bolalar nutqiga sifatosh shakllarni kiritish uchun bolalar, kattalar, hayvonlar, qushlarning turli harakatlarini tasvirovchi suratlardan foydalanish mumkin (o'qiyotgan bola, rags tushayotgan qiz, yugurayotgan quyvon va h.k.).

Bolalar surat asosida gap tuzadilar: «Bola o'qiyapti». Tarbiyachi o'qiyotgan bola so'z birligini tuzishga yordam beradi. Tarbiyachi so'z birligisidagi sifatoshni aytadi, so'ngra bolalardan so'raydi: «Qaysi bola?» – «O'qiyotgan bola».

Mashg'ulot uchun eng ko'p qo'llaniladigan fe'llarni olish va ulardan hozirgi zamondagi haqiqiy sifatoshlarni hosil qilish darkor. Bolalarga hech qanday atomlar matn qilimastligi kerak, bunda ularning ayrim sifatoshlarni esda saqlab qolishlari va zarur bo'lganda ularni o'z nutqiga qo'sha olishlari juda

muhimdir.

Bolalarning sifatdoshlarni qoʻllashlariga oid ishlar tabiatini kuzatish chogʻida, rasm chizish mashgʻulotlarida, badiiy adabiyotni oʻqish jarayonida oʻtkazilishi mumkin. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Predmetni, uning belgilarini koʻrsatish va nomini aytishni ularning mohiyatini ochib beradigan izohlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Masalan, tushayotgan barg soʻz birkemasida — bu tushayotgan bargdir. Bolalarga tanishtiriladigan sifatdoshlarni yaxshisi, oldin alohida-alohida, keyin joʻr boʻlib aytilgan maʼqul muayyan soʻzning hosil boʻlishini tushuntirib berish: «chizayotgan» soʻzi chizmoq soʻzidan, «raqsga tushayotgan» soʻzi raqsga tushmoq soʻzidan.

Sifatdoshga savollar qoʻyish: «Dala qanday, sargʻaytimi?» - «Sargʻayapti».

Ot va sifatdoshdan iborat boʻlgan soʻz birkmasi asosida gap tuzish: sargʻayotgan barglar — «Olimaning sargʻayotgan barglari koʻrinib turibdi»; varillayotgan samolyot — «varillayotgan samolyot shahar ustidan uchib oʻtdi» va h.k.

Agarda oʻqilayotgan asar maʼnida sifatdash uchrasa, bolalarning uni hikoya qilib berishida mazkur sifatdoshni u taalluqli boʻlgan otlar bilan birgalikda qoʻllashlariga, tarbiyachi savol berganida esa ushbu sifatdash hosil boʻlgan feʼl nomini ayta olishlariga eʼtibor berish juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarga mustaqil hikoya-tavsiifar (oʻyinlar, narsalar boʻyicha) yoki syujetli suratlar turkumi asosida hikoyalarni tuzishni oʻrgatish maqsadida nutqni rivojlantirishga doir maxsus ishlarni oʻtkazishda tarbiyachi bolalarning oʻzlariga maʼlum boʻlgan barcha grammatik shakllarni qoʻllashlariga erishishi lozim: otlarning kelishik shakli va sifatlar, sifatlar toʻliq va qisqa shaklda, sifatarni taqqoslash darajalari (yuqori, baland, eng baland); feʼllarning tustanadigan shakllari; eng keng tarqalgan ravishlar (oʻngga, chapga, oldinga, orqaga, bu erda, anavi erda, yuqorida, pastda, yaxshilez), hozirgi zamon haqiqiy sifatdashlari; old koʻmakchilar va bogʻlovchilar.

Bolalar nutqining sintaktik qatorini rivojlantirar ekan, tarbiyachi bolalarning oddiy gaplarni, bir xil aʼzoli, oboroti gaplarni, qoʻshma gaplarni toʻgʻri tuzishlariga eʼtiborni qaratishi lozim. Faqat yuqorida koʻrsatib oʻtilgan barcha grammatik shakllarni oʻzlashtirgan taqdiridagina bola maktabda oʻqishga yaxshi tayyorlangan boʻladi.

XULOSALAR:

Grammatika — fikr bildirish va boshqalar bildirgan fikrlarni tushunish uchun insonga zarur boʻlgan bilimlar umumiyligidir. Bola tilga sust emas, balki inoq, amaliy yondoshadi, oʻzi anglamagan holda doimo til hodisalarini tahlil qiladi. Butun til rivojining asosini bolaning predmetli faoliyati tashkil qiladi. Bolaning til borligi elementlari bilan harakatlari xuddi predmetli olam elementlari bilan boʻlgani kabidir.

Soʻz hosil qilishni (va soʻz oʻzgartirishni) egallashda bola morfemning tovush qiyofasiga yoʻnaladi. Bolalarning soʻz ijodkorligi — qoidalar, umumlashtirmalar, obrazli munosabatar harakatlarni shakllantirish jarayonining yaqqol koʻrinishidir. Grammatik elementlarni egallash jarayoni koʻrgazmali tasavvurni shakllantirish asosida roʻy beradi va u bir nechta bosqichlarga ega.

Bugungi kun lingvistikasining asosiy vazifalaridan biri — son-sanogʻsiz gaplarni tuzish hamda ularni tushunish qobiliyatini rivojlantirish tabii va mexanizmini tushunishdan iboratdir. bola kattalar tilining kategoriyalar tizimiga amal qilmaydi, aksincha u oʻzining «individual» til tizimining ichidagi vazifaviy xususiyatlariga asoslangan oʻz soʻzlar kategoriyasini yaratadi.

Tilni rivojlantirishning mohiyati (lugʻat toʻplash bilan parallel ravishda) shundan iboratki, toki oʻqiyotgan bola koʻp sonli yangi fikrlar talqini yaratish uchun qoidalar tizimini egallab olsin. Ona tilning grammatik ahmiyatlari maʼnosini tushunish — oʻsib borayotgan insonning aqli shakllanayotgani va rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi grammatik xatoliklar grammatik ahmiyatni oʻzlashtirish jarayoni normal holada davom etayotganligidan, bolaning oʻz ona tilida Grammatik ahmiyat mavjudligi haqidagi gʻoyani oʻzlashtirib olganidan va mazkur ahmiyatni u atrofdagi katalalarning pedagogik qobiliyatidan kelib chiqqan holda egallab olayotganidan dalolat beradi.

Nutqni rivojlantirishga doir mashqlar — yani, nutqiy grammatik modellarni mustahkamlashga doir mashqlar boshqa ishlar (kitob oʻqish, rasm chizish, oʻyin oʻynash va boshq.) bilan birgalikda bajarilishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarga syujetli suratlar asosida mustaqil ravishda hikoyalarni tuzishni oʻrgatish maqsadida nutqni rivojlantirishga doir maxsus ishlarni oʻtkazishda tarbiyachi bolalarning oʻzlariga maʼlum boʻlgan barcha grammatik shakllarni qoʻllashlariga erishishi lozim. Faqat barcha grammatik shakllarni oʻzlashtirgan taqdiridagina bola maktabda oʻqishga yaxshi

tayyorlangan bo'lad.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Grammatika deganda nimani tushunish lozim? 2. Imitatsiya nazariyasi nimani anglatadi?
3. Imitatsiya nazariyasiga qarshi qanday ilmiy dalillar mavjud?
4. «Tagenerallashuv» hodisasini aniq misollar yordamida tavsiflang.
5. Butun til rivojlanishining asosini nima tashkil qiladi? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?
6. Bolaning grammatik elementlari o'zlashtirishi qaysi faoliyat negizida ro'y beradi?
7. Bola morfemani o'zlashtirishda qaysi bosqichlardan o'tadi?
8. Boladagi mavjud qoidalarning shakllanganligi va barqarorligini qanday qilib tekshirish mumkin?
9. Bolalar so'z ijodkorligi nimani bildiradi?
10. So'z ijodkorligining psixofizilogik negizini nima tashkil qiladi?
11. Bolaning ona tili sintaksisini egallash jarayoni qanday amalga oshadi? 12. Bolalar nutqida qanday fikr bildirish turlari ajratilgan?
13. Bolaning til tizimini egallash, til qobiliyatlariga ega bo'lish jarayoning asosini nima tashkil qiladi?
14. Bolalar bog'chasida pedagog oldida grammatika sohasida qanday vazifalar turibdi? Ularning har birini tavsiflab bering.
15. Maktabgacha yoshdagi bolaning grammatik xatoliklari nimadan dalolat beradi? 16. Bolalar nutqidagi grammatik xatoliklarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
17. Bolalarning suffiksalar, prefiksalar, so'z qo'shimchalarning grammatik ahamiyatini qay darajada tushunishlardan dalolat beruvchi grammatik xatoliklariga misollar keltiring.
18. Tarbiyachi bolalar nutqidagi grammatik xatoliklarni qanday qilib tuzatishi mumkin? 19. Uch-to'rt yoshli bolalar nutqining asosiy grammatik belgilarini aytib bering.
20. Uch-to'rt yoshli bolalar nutqining grammatik qatori ustidagi ishlarni nimalardan boshlash zarur?

RAVON NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Reja:

1. Ravon nutqni rivojlantirish vazifalari.
2. Dialogik nutqning mazmuni va vazifalari.
3. Monologik nutqni shakllantirish usullari.

Dars o'quv maqsadi: Ravon nutq tushunchasini shakllantirish, uni rivojlantirish vazifalarini o'rnatish

Tayanch so'zlar va iboralar: Ravon nutq, individuallararo, monolog, dialog, ichkiindividual, umuminsoniy.

Ravon nutq — bu kishilarning mulogotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan mulogotga kirishish sharoiti, mulogot shakliga bog'liq bo'lad. Maktabgacha yoshda u mulogot va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi.

Bolalar hayotining dastlabki etti yilida atrofdagi kishilar bilan mulogot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur.

Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallararo, ichkiindividual va umuminsoniy. Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1-vazifasi — individuallararo — kishilar o'rtasidagi mulogot vositasidir. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq — monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbatida ifodalana chiqadi.

2-vazifasi — ichkiindividual — bu erda nutq ko'plab ruhiy jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshq.) aniq-tiniq anglash darajasiga ko'targani hamda shaxsga ruhiy jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

3-vazifasi — umuminsoniy — bu o'rinda nutq alohida bir odamga

umuminsoniy jifitmoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda — bu grafik ramzlar va belgilarda moddiy/ylashirilgan yozma nutqdir.

Nutqning shakllanishida va bolaning undan foydalanishida maktabgacha bosqichdagi turli davrlarda bolalarda o'zgarib turadigan kommunikativ tUSDagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Kommunikativ tUSDagi omillar deganda mulqotni yo'lga qo'yishga, mulqotga chiyoy tug'ilishiga ta'sir qiladigan omillar tushuniladi.

Dastlabki etti yilda bolada kattalar bilan mulqotga chiyoy rivojlanishining 4 ta bosqichi ro'yi beradi.

I — bosqich — vaziyatli-shaxsli mulqot (bola hayotining birinchi yarim yilida) — kattalarning diqqat-etiboriga va yaxshi muomalasiga bo'ligan chiyoy;

II — bosqich — vaziyatli-ammaliy mulqot (6 oydan boshlab 2 yilga 6 oygacha) — kattalar bilan hamkorlikka va ularning ishtirokiga muhtojlik;

III — bosqich — vaziyatsiz - bilish mulqoti (2 yilga 6 oydan boshlab 4 yoshgacha) — kattalarning hurmat bilan munosabatlarda bo'lishlariga muhtojlik. U bolaning jismoniy olamdagi his qilimaydigan o'zaro bog'liqliklarni aniqlashga yo'natirilgan bilish faoliyati doirasida vujudga keladi. Ushbu davrda bola kattalar bilan o'ziga xos «mazariy» hamkorlikka intiladi, u predmetli olamning hodisa va voqealarini birgalikda muhokama qilishda ifodalanaadi.

IV — bosqich — vaziyatsiz-shaxsli mulqot (4 yoshdan 7 yoshgacha) — kattalar bilan o'zaro bir-birini tushunishga va kattalarning g'amxo'rlik ko'rsatishiga ehtiyojmandlik. Bu chiyoy bolaning insoniy munosabatlari olamiga qiziqishi tufayli vujudga kelib, u bolaning munosabatlari qoidalarini va me'yorini o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Bola kattalar bilan qarashlar umumiyiligiga erishishga intiladi va bu unga ulardan o'z hatti-harakatlarida qo'llanma sifatida foydalanish imkonini beradi.

Shunday qilib, nutqni rivojlantirish jarayoniga mulqot vositasi, ya'ni kommunikativ faoliyat sifatida qarash kerak. Uning vujudga kelishi va rivojlanishi bolaning mulqot va umumiy hayot faoliyati ehtiyojlariga bog'liqdir.

Nutqqa u bajaradigan tahlil vazifasidan kelib chiqib yondashish nutqning eng avvalo bolaning atrofdagi odamlar bilan mulqot vositasi sifatida paydo bo'lishini tushunib etishga olib keladi. O'z-o'zidan, agarda bolaning mulqoti nutqqa jon bag'ishlansa, uning rivojlanish sur'ati va muddati bolalarda mulqot faoliyati turli yosh bosqichlarida qanday yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liqdir, ushbu vazifalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bolaning ong va erkinlikning yuqori darajasiga qanchalik tez erishishi, bolaning unga turli sohalaridagi bilimlarini rivojlantirish va takomillashirish imkonini beradigan

yoziqma nutqni qancha muddatda o'zlashtira olishiga bog'liqdir.

Mutdan kelib chiqadigan ravon nutqni shakllantirish, uning vazifalarini o'zgartirish bola faoliyatining murakkablashayotgani oqibati bo'lilib, u bolaning atrofdagilar bilan mulqoti mazmuni, sharti va shakllariga bog'liqdir. Nutq vazifasi fikrlashning rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanadi, ular bola til vositasida ifodalaydigan mazmun bilan uzluksiz ravishda bog'liq bo'ladi.

Bolalarda ravon nutqni rivojlantirish — bolalar bog'chasining asosiy vazifasi hisoblanadi, maktab yoshining nihoyasiga kelib bola kattalarga xos bo'ligan og'zaki nutqning asosiy shakllarini egallashi, ya'ni ravon nutqning ikki shakli — dialogik va monologik nutqni egallab olishi shart.

Bolalar bog'chasining vazifasi — bolalarda ravon so'zlashuv nutqi (dialogik nutq) va monologik nutqni rivojlantirishdan iborat. So'zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko'p qirrali. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarda ularga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o'zi ham savollar berish, suhbat mavzusi bo'yicha izohli javob berish qobiliyati shakllanadi.

4 yoshdan boshlab bolalarga suhbatda ishtirok etishni, uzluq-yuluq fikrlardan nisbatan keng, izchil fikrlarga o'tish, savollar berishni o'rgatish zarur; 5-6 yoshli bolalar uzog davom etadigan maqsadli suhbatlarga qodir bo'lalilar. Bolalarga qo'yilgan savollarga ularning mazmunidan kelib chiqqan holda qisqa yoki keng qilib aniq javob berish, suhbatdoshi so'zini bo'lmasdan diqqat bilan tinglash, ularning javoblarini to'ldirish, tuzatishlar kiritish, o'zlarini ham savollar berishni o'rgatish zarur va h.k. Ayni paytda shaxsning nutqiy sifatlarni tarbiyalash — bolalarda kirishimlilik, xushmuomalalik, hushyorlik, hissiylik kabi sifatlarni shakllantirish; suhbat jarayonida nutqiy mulqot madaniyati ko'nikmalarini, tengdoshlar jamoasi oldida chiqish qila olish qobiliyati va telefon orqali suhbatlashish madaniyatini tarbiyalash lozim.

XULOSALAR:

Ravon nutq — bu fikrlar tuguni bo'lilib, unda bolaning mantiqiy fikrlashi, uning qabul qilyotgan narsasini mulohaza qilib ko'rish va uni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi.

nutq har bir kishi hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lilib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individualitararo, ichki-individual va umuminsoniy.

Nutqning shakllanishida va bolaning undan foydalanishida bolalarning turli davrlarda o'zgarib turadigan kommunikativ tUSDagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

DIALOGIK NUTQNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

Reja:

1. Bolalarga dialogik nutqni o'rgatish.
2. Bolaning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida dialogning ahamiyati.
3. Dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning ahamiyati.

Dars o'quv maqsadi: Dialogik nutqning mazmuni va vazifalari, uni rivojlantirishni o'rgatish

Tayanch so'zlar va iboralar: Ravon nutq, individuallararo, monolog, dialog, ichkiindividual, umuminsoniy.

Bolalarga dialogik nutqni o'rgatish.

Dialog – suhbat – bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan mulohazotining asosiy shakli hisoblanadi.

Bolalar bog'chasida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy mulohazot; b) maxsus mashg'ulotlarda.

Dialog ko'proq erkin nutqiy mulohazotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi.

Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg'ulot); Bolalar bog'chasida bo'lib turgan vaqti mobaynida bola erkin mulohazotda pedagog va boshqa bolalar bilan mulohazotga kirishadi. Uydagi esa kattalar bola turi mavzularda dialogga kirishishlari lozim.

Dialogik nutqni (yoki og'zaki nutqni) o'rgatish odatda suhbat shaklida, ya'ni kattalar bilan bola o'rtasida hamda bolalarning o'zlarida o'rtasida fikr almashish shaklida ro'y beradi.

Agarda maktabda suhbat bilimlarni etkazish vositasi sifatida qo'llanilsa, suhbat jarayonida bolalar nutqini boyitishda qo'shimcha ijobiy hodisa ko'rinishida qabul qilinadi, maktabgacha tarbiya muassasasida ham suhbat aynan nutqni rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Biroq, nutq albatta borliq hodisasini albatta aks ettirishi, kodlashirishi bois bolalar bog'chasidagi suhbat xuddi maktabdagi kabi bilim beradi.

Suhbatlar mavzusi va mazmuni bolalarning yosh xususiyatlari hamda ularning nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda «Bolalar bog'chasida tarbiyalash va ta'lim berish dasturi» bilan belgilanadi.

Suhbat ta'lim metodikasi sifatida – bu tarbiyachining bolalar guruhlari bilan

(yoki alohida bir bola bilan) aniq maqsadga yo'naltirilgan, muayyan mavzuda oldindan tayyorlangan so'zlashuvdir. Bolalar bog'chasida takrorlovchi, umumlashiruvchi va nazorat-texshiruv suhbatlaridan foydalaniladi.

Takrorlovchi va umumlashiruvchi suhbatlarda tarbiyachi turli usullar yordamida bolalarni ko'rgan narsalarni tahlil qilish, taqqoslash, to'ldirish, oshqorlashiruvchi usullarini o'rgatadi, bolalardagi mavjud bilimlarni takrorlashiradi, ularni muayyan xulosalarga kelishga undaydi.

Nazorat-texshiruv suhbatlari pedagog tomonidan biron-bir o'tilgan mavzu bo'yicha bolalarning bilimlarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Pedagog savollar yordamida bolalarning biron-bir mavzuni o'qitish jarayonida olgan bilimlari darajasini aniqlashi mumkin.

Bolalar bilan ishlash jarayonida pedagog tayyorlanmagan va tayyorlangan suhbatdan foydalanadi.

Tayyorlanmagan suhbat (buni faqat bolalarga nisbatangina qo'llash mumkin, chunki bolalar ular bilan nimalar haqida so'zlashishlarini, nimalarga diqqat-e'tiborlarini jalb qilishlarini bilmaydilar) rejimli jarayonlarni o'tkazishda, bolalar faoliyatining har xil turlarida: o'yinlarda, mehnatda tashkil etilishi mumkin. Tarbiyachi esa har qanday mulohazot turgan tayyor turishi zarur. Zero, huning uchun u kasbiy ta'lim olgan, tarbiyachi olgan bilimlarining muhim qismlaridan birini bolalar bilan suhbatlashiruvchi tashkil etadi. Shuning uchun tarbiyachi bolalar bilan shunday so'zlashiruvchi lozimki, toki u o'z nutqi bilan bolalarga ona tilini o'rgatirsin. Nutqiy mulohazotga bo'lgan zarurat tufayli to'satdan yuzaga keladigan suhbatda tarbiyachi o'zining til sezgisiga ishongani holda o'z nutqining grammatik shaklini va uning jaranglashi (fonologiyasini) tayyorlanmaydi, ammo u har bir suhbatga tayyorgarlik ko'rishi shart.

Tayyorgarlik suhbatida deb nomlaniruvchi sababi shuki, bunda tarbiyachi mashg'ulotdan oldin (mashg'ulotdan bir necha kun oldin) bolalarni shunday vaziyatda qoldiradi, bunda ularning diqqat-e'tibori bo'lgan suhbat mavzusi bo'lgan atrof-olamdagi hodisalarga jalb qilinadi, chunki faktlarga oid materiallar bolalarga bungaicha tanish bo'lishi lozim.

Suhbatni tashkil qilish, uning tuzilmasi mavzu va mazmunga, bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Har bir suhbatda quyidagi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) kirish (boshlash); 2) asosiy qism (suhbat mavzusini rivojlantirish); 3) nihoyasiga etish.

Kirish maqsadi bolalarning diqqat-e'tiborini suhbat mavzusiga jalb qilish, ularni suhbatda ishtirok etish xohishini paydo qilish, bolalar xotirasida ilgari olingan taassurotlarni, imkon boricha obrazli va emosional taassurotlarni

ionlantirishdan iborat.

Tarbiyachi suhbatlashadigan narsa (hodiya) haqida taklif qilgan topishmoq ham kirish bo'lishi mumkin. Suhbatni tegishli mavzudagi sherni o'qish yoki suratlarini ko'rish bilan boshlash mumkin. Suhbat boshlanishida tarbiyachi bo'lajak suhbat mavzusini (magsadini) shakllantiradi, uning muhimligini asoslaydi, uni tanlash sabablarini bolalarga tushuntirib beradi.

Asosiy qism magsadi – bolalar ko'rgan narsalarni esga olish, qo'shimcha bilimlarni tahlil qilish, ularni tushuntirish hisobiga chuqurlashtirish, qo'shimcha bilimlarni ma'lum qilish, ularni bir tizimga keltirish va mustahkamlashdan iborat.

Suhbatning asosiy qismi mikromavzu yoki bosqichlarga ajratilishi mumkin. Har bir bosqich – bu mavzuni bo'g'in qismlari bo'yicha tahlil qilishdan iboratdir. Pedagog mashg'ulotga tayyorlanar ekan, barcha bosqichlarni belgilab olishi lozim.

Suhbat mavzusini rivojlantirish aniq magsadga yo'natirilgan bo'lishi lozim, tarbiyachi imkoni boricha bolalarning mazkur mavzudan chetga chiqishlarining oldini olishi zarur (bazzan ortiqcha faktlarni aniqlash uchun undan chekinish mumkin, biroq so'ngira yana asosiy suhbat mavzusiga qaytish darkor). Tarbiyachi suhbat rejasini oldindan belgilab oladi. Tarbiyachining qo'lida reja bo'lsa, bolalar qanchalik mavzudan qanchalik chetga chiqmasinlar, u ilgirigi savol o'z ahamiyatini yo'qotdi, deb hisoblagan paytda o'z rejasidagi navbatdagi savolni berish orqali ularni yana mavzuga qaytarishi mumkin.

Pedagog unutmashligi lozim, bolalarning fikrlash xususiyati shundayki, ular suhbat mavzusini oson unutadilar, har bir mayda-chuyda narsaga chalg'iyveradilar. Bola qanchadik kichik bo'lsa, u shunchalik tezroq chalg'iydi, hozirgina o'zi aytgan narsalarini tezlik bilan unutadi va boshqa mavzuga o'tadi.

Mashg'ulot – suhbat bolalarda mantiqiy fikrlash, boshlangan mavzuni oxiriga etkazish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Bolalar biladigan narsalar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni xabar qilish suhbat asosiy qismining zarur elementi hisoblanadi. Bu bolalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Tarbiyachining qisqa va aniq axboroti suhbatni aniq magsadni ko'zlagan holda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Suhbat topishmoq, sherlar va tarbiyachining tegishli suratga oid shaharlari bilan tugallanishi mumkin, ammo u ko'pincha pedagogning ushbu suhbatdan kelib chiqqan holda bolalarning axloq borasida o'rganishi lozim bo'lgan jihatlari haqidagi mantiqiy xulosasi bilan yakunlanadi. Ayni paytda pedagog o'z xulosasida o'zi suhbat mobaynida bolalarga o'rgatishi lozim bo'lgan so'zlar, so'z

shakllari va sintaktik tuzilmalarni qo'llashi lozim.

Suhbatni shunday uyushtirish lozimki, toki unda barcha bolalar ishtirok etadilar. Agarda bola faqat tarbiyachining boshqa bolalar bilan suhbatini tinglab o'tirsa va o'zi ushbu fikr bildirishlarda ishtirok etmasa, bu bola «suhbatlashishini» mashq qilmaydi, va uning suhbatdagi ishtiroki faqat nomligina bo'ladi, xolos.

Suhbatni cheklangan sondagi bolalar (6-8 nafar bola) bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Agarda guruhda 25-30 ta bola bo'lsa, bu holda mashg'ulotni bolalarni uchta-to'rtta kichik guruhga bo'lgan holda o'tkazish zarur. Belgilangan vaqtdan oshib ketmaslik uchun har bir kichik guruh bilan suhbat davomiyligini qisqartirish mumkin, biroq har bir bolaning nafaqat tinglab o'tirilishi, balki so'zlashishni mashq qilishiga ham eritish lozim. Pedagog yordam uchun ota-onalarni jalb qilishi va ularga tayyorgarlik suhbatini qanday olib borish lozimiga haqida batafsil ko'rsatmalar berish zarur. Ota-onalarning barchasi og'zaki nutqni yaxshi bilishlari bois ushbu vazifani bajara oladilar.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbat (so'zlashish) usullari; Teatrashirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish). Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

To'g'ridan-to'g'ri – bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdoshi so'zlarini bo'lmisdan tinglash, lugma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarti qilib so'zlash;

Yo'ldosh – talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashq qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniqlashtirish.

Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so'z kabi turti nuqtalardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy mulog'oni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Ammo suhbat olib borishning etakchi usuli savollar hisoblanadi. Bolalar bilan suhbatning muvaffaqiyati va pedagogik samaradorligi ko'p jihatdan savollarning to'g'ri qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Savollar berish hamda uning javobining murakkabligi va qiyinligini asta-sekin kuchaytirib borishni bilish eng asosiy va zarur pedagogik odatlardan biridir. Savol qo'yish bolalar oldiga ularning kuchi etadigan darajadagi nutqiy-fikrlash vazifasini qo'yish demakdir. Ayni paytda u haddan tashqari osonlashtirib yuborilmasligi lozim, chunki bunday bunday vazifani qo'yishdan magsad – bolalarni

fikrlashga, eslashga undashdan iborat. Qanday fikrlash-nutqiy vazifalarini qo'yishiga qarab, savollarni reproduktiv, qidiruv va muammoi savollarga ajratish mumkin.

Subbatda ob'ektlar o'rtaidagi bog'liqlik haqida xulosa bildirishni, to'plangan bilimlardan, taqqoslashlardan foydalanishni hamda Nima uchun? Nega? Nima tufayli? Ular nimasi bilan o'xshash? Nima uchun? Qanday qilib? kabi savollarga javob berishni talab qiluvchi qidiruv va muammo tusidagi savollar etakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Subbatning har bir bosqichida savollarni taxminan quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish zarur: dastlab bolalar tajribasini jonlantirish uchun reproduktiv, keyin yangi materialni hazm qilish uchun oz sonli, biroq murakkab bo'lgan qidiruv savollari va oxirida 1-2 umumlashtiruvchi savollar. Savollar aniq va maqsadli bo'lishi lozim. Noaniq bo'lgan savollar bolalarga javob berishni qiyinlashtiradi – ular javob bera olmaydilar yoki noto'g'ri javob beradilar. Savol aniq, shoshmasdan mantiqiy urg'ular, mazmuniy pauzalarga rioya qilingan holda berilishi zarur. Bolaga javob qaytarishga vaqt berish uchun tarbiyachi pauza saqlab turadi. Agarda savol tez berilsa, bola uning mazmunini tushunishga ulgurmaydi va tarbiyachiga savolni bir necha marta takrorlashga to'g'ri keladi, bu esa bolaga javobni o'ylashda xalaqit beradi, bolani tarbiyachiga qulog' tumaslikka o'rgatib qo'yadi. Bolani savolni birinchi martada qabul qilishni o'rgatish zarur.

Tarbiyachi suhbat jarayonida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

Bolalar tomonidan o'zlashtirilmagan, qo'shma gaplar yoki bir turdagi a'zoldan iborat bo'lgan gaplarning ayrim sintaktik tuzilmalarini aytib turish;

Gapning bolalar o'zlashtirmagan mazmunli bo'laklarining intonatsiyasini aytib berish (masalan, ogohlantirish, hayratlanish, tashvishga tushish, xursand bo'lish intonatsiyasi va h.k.);

Bir o'zaki so'zlarni hosil qilishni aytib turish: suyuq – suyuqlik, sabzavot – sabzavotli va boshq.

Tuslanmaydigan fe'l shakllarini hosil qilishda yordam berish: sepiش – sepiشgan, qo'yish – qo'yilgan.

Suhbat jarayonida bolalarni savol berishga undash, ularning qiziquvchanligini rivojlantirish zarur. Bolaning savol bera olishga qodirligi uning fikrlash faoliyatidan dalolat beradi.

Badiiy asarlar – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni teatrlashtirish usuli - bu bolalarning ularga tarbiyachi o'qib bergan asarlarini o'sha shaxslar nomidan qayta aytib berish usullaridir.

Boshqa shaxslar nomidan qayta hikoya qilib berish uchun dialogik nutqni

o'z ichiga olgan asarlardan foydalangan ma'qul. Ularni qayta hikoya qilib berish bolalarning og'zaki nutqini, xususan, murojbat, sanash, hayratlanish, hayron bo'lish intonatsiyalarini takomillashtirish imkonini beradi; nutq emotsional jihatdan yanada boyiydi – u personajlarning ahvolidan kelib chiqqan holda goh xursand, goh gayer'ui va goh litijonamo jaranglaydi.

Bolalarga og'zaki dialogik nutqni o'rgatish jarayonida teatrlashtirilgan tomosha, qo'g'irchoq teatri kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bolalar ham ijrochi va ham tomoshabin sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Sahnalashtirish o'yini – bu bolalarning badiiy asarni uning qahramonlari obrazlarida qayta hikoya qilib berishlari; bolalarning matnini erkin qayta aytib berishlari va bolalarning syujetli-rolli o'yinlaridir.

Syujetli-rolli o'yinlarda bolalarga birinchi navbatda, o'z nutqida ertak matnidani chetga chiqishga ruxsat beriladi. Tarbiyachi ularni faqat grammatika yoki leksikada adabiy so'zlashuv nutqi me'yorlaridan chekingan hollardagina to'g'riqlaydi; o'yin chog'ida fonetik xatoliklarga yo'l qo'yilganida uni to'g'rilash ahali emas.

Teatrlashtirilgan tomoshalar sahnalashtirish o'yinlaridan shunisi bilan farqlanadiki, unda badiiy asar matnini yoddan bilaigan bolalar ishtirok etadilar, ularning bu chiqishdan ko'zlagan maqsadi – o'z tinglovchi do'stlarining ko'nglini olishdir; bu tomoshada bolalar teatr kostyumlarida (maska qalpoqlar va boshqa kiyimlar) chiqadilar.

Qo'g'irchoq teatri – bu syujetli rejissyorlik o'yining har xil turlaridir: bolalar bir vaqtning o'zida oddiy o'yinchoqlar (o'yinchoqlar teatri), petruskalar (qo'l harmonqlariga kiyiladigan qo'g'irchoqlar, suratlar qirgimlari va h.k.)ni asar qahramonlari rolini o'ynashga majbur qilganliklari holda badiiy asar matnini rollar bo'yicha so'zlaydilar.

Qo'g'irchoq teatri shakli qo'yidagilardir: o'yinchoqlar teatri, petruskalar teatri, «barmoqlar» teatri, soyalar teatri, stol teatri, flanelgraf.

Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar; teatr-kitoblar; panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdadlar.

Yuqorida sanab o'tilgan qo'g'irchoq teatri turlari bolalar bog'chasida bolalar nutqini faollashtiruvchi metodik vositalar sifatida foydalaniladi: bolalar pechog' yordamida, katta guruhlarda esa o'zlari mustaqil ravishda qo'g'irchoqlarga, qirg'ilgan suratlariga rejissyorlik qiladilar, ular nomidan lahtiyovq bilan so'zlaydilar va shu tariqa o'zlarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Sahnalashtirish o'ymii – maktabgacha yoshdagi har qanday bolaning teatrlashtirigan chiqishidir.

Bolalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishining borishiga qarab, ularning savollarga javoblari yanada aniq, mulohazali va mazmunli bo'lib borishi lozim.

Subhat jarayonida bolalar bilan so'zlashuvning jonliligi ko'p jihatdan og'zaki nutqqa va nutqiy mulogotning savol-javob shakliga xos bo'lgan grammatik tuzilmalarining turichaligi bilan bog'liqdir.

Subhatlarda bolalar keng qamrovli fikr bildirishlari va bir-ikkita so'zdan iborat bo'lgan javob berishlari mumkin (Sizga park yoqdimi? – Ha.). Bolalarni keng qamrovli javoblarga savollarni to'g'ri qo'yish orqali yo'naltirish zarur: «Bahorda ob-havo ko'proq qanday bo'ladi? Bu haqda aytib bering».

Bolaga mana bunday ko'rsatma berish mumkin: «qisqa javob ber. Batafsil javob ber (ammo to'liq javob bilan emas)», ulardan so'rash mumkin: «Kim qisqa javob bera oladi (yoki o'rtog'ingizdan chiroylir javob bera oladi)». Zarur holatlarda pedagog qo'yilgan savolga keng qamrovli javob namunasini namoyish qilishi mumkin. Subhat jarayonida bolalarda nutqiy mulogot ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

XULOSALAR:

Ravon nutqning ikki turini rivojlantirish – bolalar bog'chasining asosiy vazifasidir. Monologik nutqning har xil turlarini o'qitish – bu grammatika-sintaksisga o'qitishdir. Dialog erkin nutqiy mulogotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning

talaffuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi.

Subhat – bolalarga dialogik nutqni o'rgatishning asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Subhatni uyushtirish, uning tuzilmasi mavzu, mazmun va bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

Subhada obyektlar o'rnatilgan bog'liqlik haqida xulosa bildirishni, to'plangan bilimlardan, taqqoslashlardan foydalanishni, asosiy narsani aniqlab olishni talab qiluvchi qidiruv va muammo tusidagi savollar etakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Subhatlarda bolalarning keng qamrovli va qisqa javob berishlariga ruxsat etiladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Ravon nutq» tushunchasi nimani anglatadi?
2. Nutq inson faoliyatida qanday vazifalarni bajaradi? Ularning har birini tavsiflang.
3. Kommunikativ tusdagi omillar deganda nimani tushunish lozim?
4. Monologik nutqni shakllantirishda nimalar o'quv va yo'ldosh vazifalar hisoblanadi?
5. Tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritishning nimaligini aniq misollar orqali tavsiflab bering.
6. Bolalarga dialogik nutqni o'qitishning asosiy metodini tavsiflab bering.
7. Subhatdan qaysi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
8. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga oid mashg'ulotlarda pedagog qaybi asosiy metodlardan foydalanishi zarur?
9. Tayyorlangan subhat qanday vazifalarga ega bo'ladi? 10. Reprodukativ va qidiruv savollari nimani anglatadi?
11. Subhat jarayonida pedagog bolalarga nimalarni aytib turishi mumkin va nimani uchun?

NUTQINI SHAKILLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Reja:

1. Monologik nutqini shakllantirish usullari.
2. Bolalarni monologik nutqni o'rgatish ishining mazmuni va vazifalari.
3. Monologik nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlar

Monologik nutqning o'quv vazifasi mustaqilligi, tugallanganligi, qismlari o'rtasida mantiqiy aloqasining mavjudligi bilan tavsiflanadigan ravon fikr bildirishni o'rgatishdan iboratdir, ya'ni bu —qisman (nutqiy) ko'nikmalar va ona tilida fikr bildirish uchun zarur bo'lgan murakkab qobiliyatlarni shakllantirish demakdir.

Ravon nutq ustidagi ishlarning asosiy rivojlantiruvchi vazifasi — bolalarning fikrlashini, o'z fikrini til vositalari yordamida aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, nutqiy fikrlashga oid vazifalarni mustaqil ijodiy hal etish ko'nikmalarini shakllantirish, xotirani, tasavvurni faollashtirishdan iborat.

Vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun pedagog o'ziga quyidagilarni aniq tasavvur qilishi zarur: 1 - ravon nutqni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan til materiali; 2 - ushbu materialda shakllantirish mumkin bo'lgan nutqiy ko'nikmalar va mahoratlar umumiyligi; 3 - ushbu ko'nikmalarni «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida mashq qilishning ketma-ketligi.

Monologik nutq hikoya qilishni o'rgatish jarayonida shakllanadi — bolalar og'zaki monologik nutqning ikki toifasini - qayta hikoya qilish va hikoya qilish, tavsiflovchi hikoyalar, bayon qiluvchi hikoyalar, isbotlovchi hikoyalarni o'zlashtirib oladilar.

Yuqorida qayd etilganidek, ravon nutqning ikki turi mavjud: dialogik (dialog) va monologik (monolog) nutq.

Dialog — ikki yoki bir necha kishining suhbat. Suhbat maqsadi odatda biron narsa haqida so'rash va javob olish, biron-bir harakatga undashdan iborat.

Monolog — bir shaxsning ravon nutqi. Monologning maqsadi — biron-bir fakt haqida xabar berishdir.

Dialog o'z uslubiga ko'ra asosan, og'zaki nutq, monolog esa odatda, kitobiy uslubdagi nutq hisoblanadi.

Dialogik ravon nutqda ko'pincha noto'liq gaplardan foydalaniladi, tushirib qoldirilgan gap a'zolarini so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib tushunib oladi, va og'zaki uslubdagi, standart tuzilishdagi (qolif) to'liq gaplardan ko'proq foydalaniladi: «u kelmay qo'ya olmaydi» -ya'ni, u albatta keladi.

Bunday tuzilishdagi gaplar monologik nutqda qo'llanilmaydi. Bolalar dialogik nutqni har kuni maishiy hayotda uni uchratishlari sababli uni ancha oson o'zlashtirib oladilar.

Biron-bir narsani tavsiflashda, biron narsa haqida bayon qilishda yoki mulohaza yuritishda nutqning monologik shakldan foydalaniladi. Nutqning ushbu ikki turlari o'rtasidagi farq matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaqtli yoki sabab-oqibatli aloqada bo'ladigan (bi-biriga nisbatan) borliq faktarlari haqida xabar qiliadi.

Vaqinchalik aloqa ikki tomonlama bo'lishi mumkin: faktlar haqiqatdan ham bir vaqtdalik yoki ketma-ketlik munosabatlarida bo'lishi mumkin.

Bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladigan faktlar haqidagi xabarlar tavsif deb ataladi. Faktlar ketma-ket keladigan xabar bayon qilish deyiladi. Sabab-oqibatli munosabatlarda bo'lgan faktlar haqidagi xabarlar esa mulohaza deb yuritiladi.

Bolalar monologik nutqni tushunib etishlari va o'z xabarlarini uzatish maqsadida uni o'zlashtirib olishlari uchun ular tegishli sintaktik tuzilmani o'zlashtirib olishlari lozim. Hamonki, bola oddiy keng tarqalgan gaplarni tuzishni o'rganib ololmas ekan, uning nutqi ravon bo'lishi mumkin. Oqibatda — monologik nutqning turlari toifalarini o'qitish — bu eng avvalo grammatika — sintaksisga o'qitishdir.

Bolalarga monologik nutqni o'qitish qiyin, chunki bolalar kundalik hayotda va kattalar nutqida ham monologik nutqni kandan-kam hollarda eshitadilar: bolalar bilan so'zlashganda kattalar ko'pincha dialog shakldan foydalanadilar.

Monologik nutqning dastlabki ko'nikmalarini maktabgacha bo'lgan davrda rivojlantirish lozim, chunki maktabda monologni o'qitishni boshlash uchun kech bo'ladir.

Bolalar bog'chasining pedagogi bolalarga monolog-tavsif, bayon qilish, mulohaza yuritishni o'rgatish uchun maqbul didaktik material topishga harakat qilishi zarur.

Ilk yoshda bola ravon nutqni eshitadi. Dastlab bu unga nisbatan aytilgan laqamlar, so'zgra esa ertalar, hikoyalar, kattalarning monologik nutqlari bo'ladir. Ravon nutqdan til elementlari — tovushlar, morfemalar, so'zlar, gaplarni ajratib olar ekan, bola ravon matnda har bir til elementining o'rini eslab qoladi, bu esa ilk yoshdan boshlab nutqdan oldingi mashqlar boshlanadigan til mazgillarini rivojlantirish jarayonini tashkil etadi.

XULOSALAR:

Ravon nutqning ikki turini rivojlantirish – bolalar bog'chasining asosiy vazifasidir. Monologik nutqning har xil turlarini o'qitish – bu grammatika-sintaksisga o'qitishdir. Dialog erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning talafuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi.

Subbat – bolalarga dialogik nutqni o'rgatishning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Subbatni uyushtirish, uning tuzilmasi mavzu, mazmun va bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

Subbada ob'ektlar o'rnatilgan bog'liqlik haqida xulosa bildirishni, to'plangan bilimlardan, taqqoslashlardan foydalanishni, asosiy narsani aniqlab olishni talab qiluvchi qidiruv va muammo tusidagi savollar etakchi ahamiyatga ega bo'ladi. Subbatlarda bolalarning keng qamrovli va qisqa javob berishlariga ruxsat etiladi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN LUG'AT ISHINI OLIB BORISHNING NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Lug'at ishining vazifalari va mazmuni
2. Bolalar lug'atiga yangi so'zlarni kiritish.
3. Maktabgacha tarbiya muassasasida nutqni rivojlantirish metodikasi.

Dars o'quv maqsadi: Lug'at ishlari mohiyati, mazmuni va vazifalarini o'rganish

Tayanch so'zlar va iboralar: Psixologiya, lingvistika, fiziologiyaga, lug'atni egallash, otlar, fe'llar, sanog so'zlar, old ko'makchilar, sifatlar va boshqa nutq qismlari

Bolalar bog'chasidagi lug'at ishlarning mohiyati – bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo'lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so'zlarning o'zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan o'quv-tarbiya ishlari bir tizimga kelitirishdan iboratdir. Bolalarni ular o'z amaliyotida qiyinchilik bilan o'zlashtiradigan, to'satdan yoki umumiy taninmaydigan, buzilgan shaklda talafuz qiliadigan so'zlar bilan qurullantirish ancha pedagogik sa'y-harakatlarni talab qiladi. Psixologiya, lingvistika, fiziologiyaga oid ma'lumotlar turli yosh bosqichlaridagi bolalar uchun ana shunday so'zlar doirasini aniqlashga yordam beradi.

Bolalar lug'atini boyitish bir vaqtning o'zida ularni atrofdagi borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. Tarbiyachi bolaga bir so'zni ma'lum qilish va uning mahosini ochib berish bilan bir vaqtda uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to'g'ri munosabada bo'lishni o'rgatadi.

Lug'at ishlari o'zbekistonda tarbiyachi bolaning umumiy nutq madaniyatiga ta'sir qiladi, unga umumiy ravishda qabul qilingan adabiy so'zlar va ifodalarni ma'lum qiladi, ularni to'g'ri tovush va grammatik shaklda ifoda qiladi, bunda u bolalarda uchraydigan sheva leksikasini bartaraf qiladi (ta'qiqlaydi), ularni adabiy me'yorlar bilan almashtiradi.

«Lug'atni egallash» atamasi – bu nafaqat so'zni o'zlashtirish, uni tushunish, balki uni albatga qo'llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir. Insonning yuqori nutq madaniyati, lug'atining boyligi haqida u «eshitilgan», insonning joni nutqini bezab turgan taqdiridagina so'z yuritish mumkin.

Lugʻat ishidagi asosiy jihat — bu faqat bolalarga yangi soʻzni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritishir. Bolalar bogʻchasidagi lugʻat ishi — bu bolalarning faol lugʻatini notanish yoki ular uchun qiyin boʻlgan soʻzlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir.

Rus tili lugʻati toʻxtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida boʻladi. Undagi oʻzgarishlar eng avvalo insonning ishlab chiqarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bogʻliqdir. Yangi narsalar va hodisalarning paydo boʻlishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va soʻzlar ham paydo boʻladi. Bundan tashqari, ilgandan mavjud boʻlgan ayrim soʻzlar yangilanadi, ularning maʼnosi oʻzgaradi, koʻp soʻzlar muomaladan chiqib ketadi. Bolalar bilan lugʻat ishlarini oʻtkazishda soʻzning rivojlanuvchi tushga egaigini hisobga olish zarur.

Rus tilining lugʻat tarkibini umumiy qoʻllanishdagi leksika tashkil qiladi. Bu rus tilida soʻzlashayotgan odamlarga qoʻshimcha izohsiz tushunari boʻlgan va muomala uchun zarur boʻlgan soʻzlar guruhidir. U uzoq vaqt mobaynida yaratilgan. Bu leksikaga nutqning turli qismlari kiradi. Bolalar bogʻchasida lugʻat ishining mazmunini asosan umumiy qoʻllanishdagi leksika tashkil etishi turlayli tarbiyachi bolalar nutqini nafaqat otlar bilan, balki feʼllar, sanog soʻzlar, old koʻmakchilar, sifatar va boshqa nuq qismlari bilan ham boyitishi zarur.

Bolalar lugʻatini folklor elementlari (qoʻzim, toychoqʻim, ona qizim) bilan ham boyitish daror, chunki maʼlum hollarda (hikoya ayitish, ertak toʻqish, sahnalashirish mashgʻulotlari, oʻyinlar va boshq.) ular bolalar nutqiga kiritish uchun ataylab taklif qilinadi, soʻngra alohida emotsional jihatlar (erkalash, yupatish, iltimos qilish va h.k.) bolaning maishiy nutqini bezashi mumkin.

Lugʻat ishining oʻziga xosligi adabiy meʼyorlardan chekinish sifatida qaraladigan oddiy soʻzlashuv soʻzlarini, vulgarizmi qoʻllashni taʼqiqlashdan iborat. Bundan tashqari, unutmastik lozimki, tilda ayrim soʻzlarni taʼqiqlash hodisasi mavjud. Bolalar bogʻchasida ham ushbu hodisa bilan yuzma-yuz kelishga toʻgʻri keladi: masalan, odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda biz bolalarga hojajga borishni anglatuvchi soʻzlarni shartlar obrazlar bilan almashirishni oʻrgatamiz.

Rus frazeologiyasining ayrim misollari bilan tanishtirish lugʻat ishining mazmuniga kiradi. Maktabgacha bosqichdagi bolalarga, ayniqsa ushbu bosqichdagi katta yoshli bolalarga

xalq-soʻzlashuv frazeologiyasidan ularning imkoni etadigan, mazmunan oddiy boʻlgan ayrim soʻzlarni, shu jumladan rus folklorining barqaror oborotlari, maqollar va matallarni qabul qilish, tushunish, eslab qolish va kezi kelganda

fovdalanishni oʻrgatish zarur. Biroq ushbu ishni amalga oshirishda unutmastik lozimki, bolalarning soʻzning raqobatchi mazmuniga, uning tarkibiga bogʻliq boʻlmagan butun soʻz birkimasining umumiy mazmunini oʻzlashtirishlari qiyin kechadi (masalan, ogʻzi qulogʻida, etinchi osmonda va boshq.). Shuning uchun tarbiyachi oʻz nutqiga maʼnosi bolalarga muayyan vaziyatlarda tushunarli boʻladigan, yoki tegishli tushunirish natijasida tushuniladigan ifodalarni kiritishi lozim. Bunday ifodalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: «oʻzim, shunchakini», «eng shimarib», «azamat pahlavon» va h.k.

Har bir soʻzda quyidagilarni ajratish mumkin: uning mazmuni yoki unga yaʼshiringan maʼnosi; soʻzning tovush tarkibi (tovush tarkibi), uning morfologik tuzilmasi. Bolalar bilan lugʻat ishlarini amalga oshirishda soʻzning ushbu uchta xususiyatini hisobga olish zarur.

Amaliyotda koʻpincha bolalarning soʻz maʼnosini bilmasliklari yoki uning maʼnosini buzib talqin qilishlarini uchratish mumkin (masalan, langar — bir qoʻngʻizcha. Bu suvga tashlanadigan narsa). Shuningdek, mazmuniga koʻra bolalarga yaxshi tanish boʻlgan soʻzning tovush tarkibini buzish hollariga duch kelish mumkin (tramvay, kutubxona, kottel, kompot va h.k.). Bu buzilishlarni sabr-toqat bilan tuzatish, shuningdek yangi soʻzlarning bolalar talaffuzida toʻgʻri jaranglashini nazorat qilish lozim. Morfologik tizimga oid murakkab holatlarni bilgani holda tarbiyachi bolalarning diqqat-eʼtiborini ataylab ayrim soʻzlarning grammatik jihatiga, ularning soʻz bilan birikishiga qarataishi mumkin. Masalan: «Patoning yogasi qunduzli ekan. Patoning ilgichi ham bor ekan va h.k.

Alohida holatlarda tarbiyachi maxsus usullar bilan baʼzan atrofdagilar nutqida buzib talaffuz qilinadigan soʻzlarda toʻgʻri urgʻu qoʻyilishini mustahkamlashi lozim (masalan, surʼat — surat).

Bolalarga ayrim otlarni tanishtirishda tarbiyachi ularning turini taʼkidlashi, otlar sifatlari bilan birgalikda qoʻllashni, bunda sifating yakuniga eʼtiborni qarataishi zarur: palto — kichik, koʻylak — chiryoʻli, qizil, oq, sichqon — kulrang va h.k.

Bolalar oʻrta turdagi (srednoʻy rod) otlarni qiyinchilik bilan oʻzlashtiradilar, shuning uchun bu soʻzlarni bolalarga muayyan soʻz birkimlarida berish tavsiya qilinadi.

Leksikaning asosiy hajmini znamenatelnoʻe (otlar, sifatar, ravishlar, feʼllar) soʻzlar tashkil etadi. Bular eng toʻla huquqli soʻzlar boʻlib, ular nomlar sifatida xizmat qiladi. Tushunchani ifodalaydi va gapning asosi boʻlib xizmat qiladi (yani, ega, kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol vazifasida ehtiqa). Pirovardida, bolalar nutqini boyitish eng avvalo znamenatelnoʻe soʻzlar sohasida olib borilishi lozim.

Sanog soʻzlarni oʻzlashtirish bolalarga ancha qiyin kechadi.

Bolalar nuqtini sanog soʻzlar bilan boyitish asosan, ularda matematik tasavvurlarni shakllantirishga doir mashgʻulotlarda roʻy beradi, ushbu soʻzlarni faollashtirish va mustahkamlash ona tili mashgʻulotlarida lugʻat ishining maxsus mavzusi boʻlmogʻi lozim.

Maktabgacha yoshda bola shunday lugʻatga ega boʻlishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan mulogot qilish, maktabda muvaffaqiyatli talim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin. Shuning uchun maktabgacha talim pedagogikasi lugʻatni rivojlantirishga nuqtai rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraydi.

Lugʻatni rivojlantirishni xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida toʻplangan lugʻat zahirasini oʻzlashtirishning uzoq davomi etadigan jarayoni sifatida tushunish darkor.

Ushbu jarayonning miqdoriy va sifat jihatlari ajratish mumkin. Eng avvalo bola lugʻatidagi miqdoriy oʻzgarishlarni qayd etish lozim. Chunonchi, 1 yoshda kichiktoy 10-12 ta soʻzni faol biladi, 6 yoshga kelib esa uning faol lugʻati 3-3,5 mingtagacha ortadi.

Lugʻatning sifat xususiyatlari haqida soʻz yuritganda bolalarning soʻzning bilish natijasini aks ettiruvchi jimoiy brikritilgan mazmunini asta-sekin egallab olishlarini nazarda tutish lozim. Ushbu bilish natijasi soʻzda mustahkamlanadi, shu tufayli odamlar tomonidan anglanadi va mulogot jarayonida boshqa odamlarga uzatiladi.

Har bir soʻzning mazmuni tushunchadir. Fikr, soʻz umumiylikni koʻrsatadi. Psixologiyada ham soʻz mazmuni umumlashtirma yoki tushuncha sifatida belgilanadi. «Soʻz mazmuni psixologik jihatdan aynan umumlashtirilgan tushunchaning oʻzidir. Biz soʻz mazmunini fikrlash fenomeni sifatida koʻrib chiqishga haqlimiz» (L.S.Voʻgotskiy). Shuning uchun lugʻatni egallash jarayoni tushunchalar bilan uzviy bogʻliq va shu tufayli u quyidagi oʻziga xos xususiyatlarga ega:

I-xususiyati — bolalar lugʻatining mazmuni. Fikrlashning koʻrganmali-taʼsirchan va koʻrganmali-obrazli tusga egaligi bois bola eng avvalo koʻrganmali taqdim etilgan yoki uning faoliyati uchun mumkin boʻlgan, bolalar lugʻatida ancha keng aks ettirilgan narsalar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarni oʻzlashtirib oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning lugʻatida nisbatan mavhum tushunchalarni belgilaydigan bunday soʻzlarning yoʻqligi yoki ularning maʼnosi buzilishi ham shu bilan izohlanadi.

II-xususiyati — soʻzning maʼnosi, mazmun-mohiyatini asta-sekin egallash.

Maktabgacha yoshdagi bolada tushunchalar asosida fikrlash hali shakllanmaganligi sababli u egallab olgan soʻzlarning maʼnosi ham muayyan yosh bosqichida tushunari boʻlmaydi. Dastlab bola soʻzni muayyan narsa yoki hodisa bilan bogʻlaydi. Bunday soʻz umumlashtiruvchi xususiyatga ega emas, u faqat bolaga muayyan narsa, hodisa haqida signal beradi va ularning obrazini chaqiradi (masalan, bola uchun soat soʻzi faqat uning xonasida osilib turgan soatni anglatadi, xolos.).

Maktabgacha yoshdagi bolaning atrofdagi borligini — narsalar, hodisalar (xususiyatlar, xossalari, sifatlar)ni oʻzlashtirishning borishiga qarab u ularni u yoki bu belgisiga qarab umumlashtirishni boshlaydi. Koʻpincha umumlashtirishlar ahamiyatsiz, biroq bola uchun emosional jihatdan muhim boʻlgan belgilarga qarab qilinadi.

Shunday qilib, maktabgacha bosqichdagi bolalikda soʻz mazmuni bolaning bilish imkoniyatlari rivojlanishiga qarab oʻzgarib boradi.

II-xususiyati — bola lugʻati hajmining kattalar lugʻati hajmidan ancha kamligi. Chunki bolaning bilish tajribasi va pirovardida atrof-olam haqida toʻplagan maʼlumotlari katta yoshli odamning bilimlari hajmidan ancha kam boʻladi.

Lugʻatni rivojlantirishdagi mazkur xususiyatlar bolalar bogʻchasidagi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan lugʻat ishlarining vazifalarini aniqlash imkonini beradi:

Mazmunni mulogot uchun zarur boʻlgan miqdordagi soʻzlar toʻplanishini taʼminlash soʻzlar mazmunini atrof-olamdagi obektlarga taqqoslash, ularning xususiyatlari va munosabatlari asosida egallab olish; narsalar va hodisalarning ahamiyatli belgilarini ajratish asosida soʻzning umumlashtiruvchi maʼnosini oʻzlashtirish; nutqning obrazli qatoriga kirish va undan foydalana olish.

Jimoiy jihatdan mustahkamlab qoʻyilgan soʻzning oʻzlashtirishini taʼminlash. Ushbu vazifani hal etish quyidagilarni koʻzda tutadi:

Lugʻatni faollashtirish, yaʼni nafaqat soʻzlarni bilish, balki ularni mulogot amaliyotiga kiritish.

Bolalar lugʻatining xususiyati va lugʻat ishlarining vazifasini bolalar bogʻchasidagi lugʻat ishlarini dasturi va metodikasining asosini tashkil etadigan huroyillar belgilab beradi:

Bolalar lugʻatini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va taʼsirchan bilishlariga tayyanish.

Lugʻat ishlarini mazmunining bolaning asta-sekin rivojlanayotgan atrof-olamni bilish imkoniyatlari bilan bogʻliqligi.

Lugʻat ishlari dasturi mazmunini murakkablashtirish uchta yoʻnalishda amalga oshirilmogda:

Bolani asta-sekin ortib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lugʻatini kengaytirish.

Atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatni belgilovchi soʻzlarni kiritish.

Lugʻat ishining ushbu yoʻnalishlari barcha yosh guruhlarida roʻy beradi va turli mazmunda kuzatiladi: obektlar va tabiat hodisalari, moddiy madaniyat buyumlari, ijtimoiy hayot koʻrinishlari bilan tanishtirishda va h.k.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Bolalar bogʻchasidagi lugʻat ishlarining mohiyati nimalardan iborat? 2. Soʻzning psixologik jihatdan ahamiyatini tavsiflab bering.
3. Bolalarning lugʻatni egallash jarayoni qanday oʻziga xos xususiyatlarga ega?
4. Barcha yosh guruhlarida lugʻat ishlari dasturi tarkibini qiyinlashtirish qaysi yoʻnalishlarda roʻy beradi?
5. Siz lugʻatni shakllantirish borasida qanday mashgʻulot turlarini bilasiz? Har bir mashgʻulot turini aniq misollarda tavsiflang.

MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALARNING TEVARAK-ATROFNI BILISHDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLIGIYASI

Reja:

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish.
2. Tevarak-atrofini bilishda bolalar nutqini rivojlantirish mashgʻulotlari.
3. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish.

Dars oʻquv maqsadi: Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish, tevarak-atrofini bilishda bolalar nutqini rivojlantirish mashgʻulotlari, tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish haqida maʼlumot berish

Tayanch soʻzlar va iboralar: tevarak-atrof, jarayon, nutq, mashgʻulot, bolalar nutqini rivojlantirish

Maktabgacha talimda bolalar nutqini oʻstirishda soʻz boyligini oshirish, lugʻatni boyitish, soʻzdan foydalanish malakalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri bulib, quyidagilardan iboratdir.

1. Bolalar lugʻatiga yangi soʻz kiritish.
2. Kiritilgan soʻzlarni mustaxkamlash.
3. Bolalar lugʻatidagi soʻzlarni nutqda faollashtirish.

Soʻz boyligini oshirishning ushbu vazifalarini bajarish quyidagi vositalar asosida amalga oshiriladi:

-tevarak-atrof, voqea-xodisalar x hakidagi tasavvurlarni kengaytirish; -soʻz boyligini-lugʻatini boyitish;

-soʻz boyligini oshirishning barcha vazifalarini birgalikda anik va izchil amalga oshirish, -soʻz boyligini oshirish vazifalarini bolalarning turli faoliyatlarida taʼklli etish;

-soʻz boyligini oshirish metodlarini tanlash, xillash va samarali qoʻllash. Mashgʻulotda bolalar lugʻatiga soʻz kiritish ular lugʻatidagi soʻzlarni nutqda qoʻllashga urgatish orqali bolalar nutqiy faoliyatiga raxbarlik kilinadi, mashgʻulot-larda xilma-xil metodlarni qoʻllash orqali nutq uchun zarur bulgan soʻzni topish, oʻyinchoqlar asosida kerakli soʻzni aj-rata bilish, soʻz maʼnosi, mohiyatini tushunish, soʻzni anik eslab kolish faoliyati amalga oshiriladi. Buning uchun esa soʻz boyligini oshirish metodlaridan foydalanish, metodni toʻgʻri qoʻllash talab etiladi.

Soʻz boyligini oshirish metodlari xilma-xil bulib, ular quyidagilardan

iboratdir. Soʻz namunasini berish metodi.

1. Tarbiyachi bolalar lugatiga kiritiladigan, talaffuzi kiyin soʻzni aytib kursatadi, bolalar uning talaffuzini eshitib, tarbiyachidan namuna olib, soʻzni bir necha bor takrorlaydi va soʻzning maʼnosi, kullanishini urganadi. Bu metod soʻz talaffuzini urganish, diktsiya ustida ishlash, soʻz artikulyatsiyasi yaʼni nutq aʼzolarining soʻz talaffuzidagi xarakati, xolatini aniqlash, soʻzning tovush tuzilishini bilish imkonini beradi. Soʻz namunasini berish metodining yana bir xususiyati shuki, tarbiyachi bolalar lugatidagi, talaffuzdagi xatolarni aniqlaydi, soʻzni toʻgʻri anik, etarli oxangda talaffuz qilishga doir mashk utkazadi, soʻz oxangi, ovoz kuchi kabilariga bolalar diqqatini karatadi.

2. Soʻz ifoda etgan narsa, buyum, xarakter, xolatni kur-satish; tarbiyachi soʻz ifodalovchi narsa, buyum, oʻyinchoq, xarakatni kursatadi, uning nima ekanligi, belgisini bolalardan suraydi, maʼnosini, talaffuzini tushuntiradi. Masalan, mana bu oʻyinchokning nomini bilasizmi? Uning nimalari bor? U kanday? kabi savollardan foydalanadi.

3. Soʻzni gap tarkibida aytilish, kaysi soʻz bilan bogʻlanishini tushuntirish, masalan, bu-mashina, mashinaning eshigi bor, gildiragi bor, men mashinani xaydadim. Bunda tarbiyachi mashinaning eshigi, mashinaning gildiragi kabi iboralar orqali soʻzlarning uzaro bogʻlanishini urganadi.

Savol berish, tushuntirish metodi.

Tarbiyachi bolalarga savol berish orqali soʻz boyligini oshiradi. Bolalar savolga javob beradilar, masalan, stol ustida nimalar bor? Kuyonchanning kulda nima bor? Bu kanday mashina, olinaning rangi kanday? kabi savollar beradi. Bolalar javob beradilar. Masalan, kuyonning kulida sabzi bor. Stolda piyola, choynak turibdi. Piyolaning guhi bor kabi.

Oʻyin-mashk, soʻz - mashk usullari xam bolalar lugatiga soʻz kiritish, soʻz boyligini oshirishda muximdir. Masalan, kugirchokning kiyimlarini ayl, choy idishlarni aying, uxshash soʻzni ayl, kim kup soʻz topadi kabi soʻz-mashklardan foydalanish mumkin.

Kuzatish metodi. Bu metod nutq oʻstirishda eng kup kullaniadigan metod bulib, soʻz boyligini oshirishning xam eng kulay metodi xisoblanadi.

Kuzatish metodida guruh xonasidagi oʻyinchoqlar, narsa, buyum, guruh xonalari, tabiat burchagidagi gullar, xayvonlar va kushlar, tevarak-atrofdagi narsa, voqea-xodisalar, uzgarishlar, sayr-ekskursiya jarayonidagi voqea-xodisalarini kuzatish metodi orqali urganiladi, soʻz boyligi oshiriladi.

Kuzatish metodida bolalar narsa, buyum, voqea, xodisa, rasm, tabiatdagi uzgarishlarni kurib kuzatadilar, ularning belgi-xususiyatini shakli, xarakter va xolatini aniqlaydi-lar. Shu asosda bolalar lugatiga soʻz kiritiladi uni nutqda

84

qoʻllash malakasini oshirishga axamiyat beriladi.

Demak, kuzatish metodida bolalar narsa, buyum, joy, voqea-xodisani, kuzatish orqali idrok kiladi, uning belgilarini ajratadi, narsa, buyumni boshkasi bilan kiyoslaydi, solishtiradilar. Kuzatish metodida tarbiyachi-ning bolalarga savol berishi, kursatib berishi, aytib turi-shi, farqlash, kiyoslashga doir topshirik berishi kabi fao-liyati, nutqiy mashklar orqali bolalar fao-liyatini boshka-rishi bolalar bilish fao-liyatini, fikrlash kobilyatini oshiradi. Shu bois kuzatish metodida bolalarning bilish fao-liyatining turi kirralarini shakllantirish, narsa, buyumni kuzatish, kiyoslash, solishtirish kabi jarayonlar namoyon buladi.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil etishda kuzatiladigan narsa, buyum, joy, voqea, tevarak-atrofini oldindan belgila-shi, kanday soʻzlarni urganish, bolalar lugatiga kiritishni xam anik belgilab olishi, guruhlarning xususiyati, bolalar tafakkurini nazarda tutishi zarur.

Katta guruhda kuzatish va ekskursiya uyushtirish yaxshi natija beradi, kuyrok soʻz urganishni ta-minlaydi. Masalan, katta guruhda kucha buylab ekskursiya uyushtiri-ganda kuchaning nomi, ozodaligi, keng-torligi, yul va yulak-lar, transport, piyodalar, baland, uch kavatli, bino, kup kavatli, dukon, koʻnguzma kabi soʻzlar bolalarga kuzatish orqali singdirilishi lozim.

Kuzatish metodi bolalarning kurish, eshitish kobilyatini shakllantiradi, ular soʻz maʼnosini, talaffu-zini oson uzlashitiradilar, soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish, nutqda soʻzdan urini foydalanish, soʻzni tushunishga odatlanadilar. Demak, kuzatish metodi bolalarda kuzatuv-chanlik kobilyatini, akliy fao-liyatini oʻstiradi, bolalar tevarak-atrofdagi voqea-xodisa, buyum, narsalarga diqqat kiladi, ularning muxim tomonlarini ajrata biladi, narsa-ning uziga xos xususiyatlarini, uzgarishlarini tushunadi:

-bolalarda kuzatish kobilyati usadi;

-xodisalar, narsalarning xususiyatlarini bir-biriga takkoslaydi, farki, uxshash tomonlarini aniqlaydi, xulosa kiladi, soʻz boyligi ortadi.

Ayniksa, katta guruhda Oʻzbekistonning tarixiy obidalari, Toshkent shahri, katta shaxarlar xunarmandchilik, kurilish, fermerlar fao-liyatini kuzatish mumkin.

Kuzatish metodida bolalarga rasm, buyum, narsa, tabiiy materiallarni kuratish, kuzatirish orqali soʻz boyligi oshiriladi. Kursatmalilik metodida rasm, illyustratsiya, narsa buyum, voqealarni bolalar kuzatadilar, ular yuzasidan suhbat uyushtiriladi, urganiladigan soʻzni tarbiyachi ayladi, maʼnosi, xususiyati, talaffuzini tushuntiradi, soʻz ishtirokida gap tuziladi. Tarbiyachining asosiy

85

vazifasi bolalarning rasm mazmunini tushunishi va savollarga mos javob berishiga axamiyat berishdan iboratdir.

Kursatmalilik metodida soʻz boʻyligini oshirishning asosiy usuli savol berish, soʻz-mashk, rasm-illyustratsiyalarni kurish, kiyoslash kabildardan iborat buladi. Kursatmalilik metodi kuyidagilarga bulinadi:

rasm-illyustratsiyalarni kursatish
narsa, buyum, oʻyinchoklarni kursatish biror joy, voqea, xodisani kursatish; multfilm, diafilmi kursatish

bolalar kugirchok teatri asarlarini, kinofilmlarni kurish va tavsiflash orqali soʻz boʻyligini oshirishga axamiyat beriladi.

Didaktik oʻyin metodi.

Bolalar soʻz boʻyligini oshirishda didaktik oʻyin metodi xam keng kullaniadi. Didaktik oʻyin soʻz boʻyligini oshirishning eng kulay metodi bulib, xar bir didaktik oʻyin uz mazmuniga egadir. Masalan, "Kim kup soʻz aytdi" "Uxshashini top" "Ajoyib xalacha" "Nimaning urni uzgardi" kabi didaktik oʻyinlar, ayniksa, bolalar faolligini, soʻzni urganishga kizikishini, mashgʻulotdagi faolligini oshiradi.

Maktabgacha taʼlimda bolalar soʻz boʻyligini oshirishga doir didaktik oʻyinlar kichik guruhlardan boshlab kullaniadi. Kichik guruhda "Nima vovullaydi" "Nimaning ovozi" "Kimga nima kerak" didaktik oʻyinlar, urta guruhda "Nima uzgardi" "Bu kimning ovozi" kabi, katta guruhlarda "Ajoyib xalacha", "Uz oʻyigini top" "Bogcha bozori" kabi didaktik oʻyinlarni tashkil etish orqali bolalar soʻz boʻyligini oshiradi.

Maktabgacha taʼlimda bolalar lugatini boyitish, ular nutqidagi soʻzlarni tushunib olishi, nutqda kulay olishga urgatish uchun tarbiyachi yukoridagi metodlarni uz urnida kulay olishi, bolalar faolligini oshirishi zarur. Bu esa bolalar soʻz boʻyligini oshirish boʻyicha davlat meertlarini bajarish inkonini beradi. namuna olib soʻzning tovush tomoni, tuzilishini aniklash

Mavzuni mustaxkamlashga doir testi savollari.

1. Soʻz boʻyligini oshirish metodlari toʻgʻri kursatilgan javobni aniklang.

a) 6 v) 5 s) 4 d) 7 e) 8.

2. Soʻz namunasini berish metodining mazmuni toʻgʻri ifodalangan hukmni aniklang.

a) soʻz talaffuzidagi xarakat, xolarni aniklash

v) soʻzni talaffuz kilib ayitish, uning mahosini tushuntirish

s) tarbiyachi ayilgan soʻzni takrorlash

d) soʻz talaffuzi, diktsiya ustida ishlash, tarbiyachidan e) barcha javoblar toʻgʻri.

3. Savol berish xakidagi toʻgʻri javobni aniklang.

a) tarbiyachi savol beradi, bolalar javob beradi

v) rasm, buyumni kursatadi

s) rasm, oʻyinchoklarni kursatadi

d) bolalar soʻzlarni aytdi va tarbiyachiga savol beradi e) barcha javoblar toʻgʻri

toʻgʻri

4. Kuratish metodining mazmunini ifodalovchi javobni toping.

a) tevarak-atrofdagi narsa, buyum, voqea-xodisalarni kuzatish

v) bolalar faoliyati, xarakatlarini kuzatish

s) guruh xonasi, tabiat burchagi, sayr-ekskursiyadagi voqealarni kuzatish d)

guruh xonasidagi narsalarni kuzatish

e) barcha javoblar toʻgʻri.

5. Kursatmalilik metodi xakidagi toʻgʻri fikrni aniklang.

a) rasm-illyustratsiyani kursatish

v) narsa, buyum, oʻyinchokini kursatish

s) joy, voqea-xodisani kursatish

d) multfilm, diafilmi kursatish

e) barcha javoblar toʻgʻri.

6. Didaktik oʻyin xakidagi toʻgʻri fikrni aniklang.

a) bolalar soʻz boʻyligini oshiradi

v) mashgʻulotda bolalar faolligini oshiradi

s) soʻzni urganishga kiziktiradi

d) a, v, s javoblar

e) barcha javoblar notoʻgʻri.

Adabiyotlar :

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusis». T. 1999

2. "Uchinchi mingyillikning bolasi." Tayanch dasturi. T. 2001

3. M. Gaybullaeva. Tevarak-atrof bilan tanishirish va nutq oʻstirish. T. 1993

4. M. Gaybullaeva. Kichikintoylar nutqini oʻstirish. T. 1993

5. Taʼlim jarayonida soʻz boʻyligini oshirishning asosiy omillari. Oʻzbek

doimiy anjumani 3-yigini tezislari. T. 1995.

6. Bolingiz maktabga tayyormi? Ukv kullanna. T. 2001

TOVUSHLARNING TO'G'RI TALAFFUZI YUZASIDAN OLIB BORLADIGAN ISHLAR MAZMUNI

Reja:
1. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. 2. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish.

3. Talaffuzga o'rganishning asosiy bosqichlari.
4. Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan turli organlarning ahamiyati. 5. Nutqiy mulqot madaniyatini shakllantirish.

Dars o'quv maqsadi: Har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bosqichlarini o'rganish va tahlil qilish

Tayanch so'zlar va iboralar: Nutq madaniyati, tovush madaniyati, ovoz kuchi, ohangdorlik, ritm

Asosiy o'quv materialni qisqacha bayoni

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash tushunchasi

Nutq madaniyati — bu to'g'ri so'zlay olish, ya'ni nutqiy mulqot shartlari va fikr bildirishdan ko'zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zahira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir.

Bola so'zlashni o'rganmoqda. Lekin buning uchun u avval ushbu tilga xos bo'lgan barcha fonemalarni aytishni; tovushlarni va so'zda muayyan pozitsiyada turgan tovushlar birkimasini ananaga muvofiq holda, ya'ni orfoepiya qoidalari bo'yicha talaffuz qilishni; intonatsiyani yaratuvchi prosodemalarni modellashtirishni o'zlashtirib olishi lozim.

Bolalarga ona tilida nutqni o'rgatish tajribasidan ma'lumki, alohida tovushlar artikulyatsiyasini o'zlashtirish bola uchun eng qiyin vazifa hisoblanadi. O.I.Soloveva nutqning tovush madaniyati tarbiyalashga doir ishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi ekan, «pedagog oldida bolalarga so'zlardagi tovushlarni sof, toza talaffuz qilish, so'zlarni rus tilining orfoepiya qoidalari muvofiq holda to'g'ri talaffuz qilish, aniq talaffuz etishni (ya'ni diktsiya) o'rgatish, ularda ifodali nutqni tarbiyalash vazifalari turganligini» ta'kidlaydi.

Bazan tarbiyachining bolalarda to'g'ri nutqni shakllantirish borasidagi faoliyati tovush talaffuzi kamchiliklarini bartaraf etuvchi logoped mehnati bilan taqqoslanadi. Biroq nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash faqatgina

tovushlarni to'g'ri talaffuz etish shakllantirishdan iborat emas. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirish nutqdagi tovush madaniyatini tarbiyalashga oid ishlarning bir qismidir. Tarbiyachi bolalarga to'g'ri nutqiy nafas olish, ona tilidagi barcha tovushlarni talaffuz qilish, so'zlarni aniq ayirish, tovushdan foydalanishni o'rgatadi, bolalarni shoshmasdan ifodali qilib so'zlashga odatlantiradi.

Ayni paytda nutqdagi tovushni shakllantirish jarayonida tarbiyachi ayrim logopedik usullardan foydalanishi, ya'ni xuddi logoped kabi nutq kamchiliklarining oldini olishga qaratilgan ishlar bilan shug'ullanishi mumkin.

Tovush artikulyatsiyasini egallash ancha uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u ko'pincha besh yil, batdan esa etti yilgacha cho'ziladi: bu boradagi ishlar muvaffaqiyatli olib borilgan taqdirda bola besh yoshdan boshlab sof so'zlay boshlaydi. «Bolalar bog'chasida tarbiyalash dasturi» bola hayotining etinchi yiliga kelib — ya'ni, bolalarga o'qish va yozish o'rgatish boshlanadigan davrga kelib uning barcha tovushlar artikulyatsiyasini to'liq o'zlashtirishni ta'minlash vazifasini qo'yadi.

Bolalarga to'g'ri talaffuzni o'zlashtirish vazifasi agarda ular orfoepik talaffuzli shaxslar ichida o'z sayotgan bulsa juda oson hal etilishi (bu holda ularda birinchi kundan boshlab artikulyatsiya bazasi to'g'ri shakllanadi) va ayni paytda u kattalardan shevaga xos yoki xalqona talaffuzdagi so'zlarni eshisha bu jarayon juda qiyin kechishi (aniqrog'i — hech narsani o'zlashtira olmasligi) mumkin.

Til haqidagi fanda turli toifadagi gaplar intonatsiyasi va o'z-o'zidan, prosodemalar, ularning artikulyatsiya organlarini modellashtirishdagi ishtiroki muammasi juda kam o'rganilgan.

Tajribalar shundan dalolat bermog'daki, bolalar barcha prosodemalarni hech bir qiyinchiliksiz o'zlashtirib oladilar, ayniqsa ularga ovoz ohangi moduliyatsiyasini o'zlashtirish juda oson kechadi, ko'pchilik bolalar prosodemalarni deyarli mashqsiz o'zlashtirib oladilar.

Biroq, o'qituvchilar (ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar) o'zlari ona tili intonatsiyasini a'lo ravishda egallaganlari bois buni payqamaydilar. Agarda bola ayrim prosodemalarni «musaqil ravishda» o'zlashtira olmasa, kattalar, odatda nutqdagi bu kamchilikka tezda e'tibor bermaydilar, bu borada bolaga yordam bermaydilar va u shu kamchilik bilan maktabga boradi. U erda esa intonatsiyadagi nuqsonni bartaraf etish nutq tovushlari artikulyatsiyasidagi nuqsonlarni bartaraf etishga qaraganda yanada qiyin kechadi.

Bolalar intonatsiyaning ayrim elementlarini (prosodemalar) gapning yaxlit

intonatsiyasidan ajratib olishni o'rganadilar va buni alohida emas, balki gapning o'zida bajaradilar. Bolalar gapning o'zini (tugallangan fikrni) intonatsiyasiga qarab tushinishni o'rganadilar. Ular ikki tugallangan intonatsiyani, ya'ni: bayon va so'roq intonatsiyalarini o'zlashtiradilar.

Tugallangan intonatsiyalar bilan bir vaqtda bolalarga mantiqiy urg'ular (gapni dolzarb o'qish) ko'rsatiladi va ular yoyiq gapning mazmuniy kesimlarida tugallanmagan intonatsiyani bajarishni mashq qiladilar. Ma'lumki bunday intonatsiyalar oltita (A.N.Gvozdev): sanash intonatsiyasi («I k sarevne nainvoe, molodoe, zolotoe pryamo yabloko letit»), qarama-qarshi qo'yish intonatsiyasi («V trety raz zakinul on nevod, - prishel nevod s odnoy ro'bkoyu, s neprostoyu ro'bkoyu - zolotoyu»), chaqiriq intonatsiyasi («Chego tebe nadobno, starche?», «Svet moy zerkaltse, skaji, da vsyu pravdu rassskaji...»), ogohlantirish intonatsiyasi yoki ikki nuqta intonatsiyasi («Olivechaet zolotaya ro'bka: «Ne pechalsya, stupay sebe s bogom!», «Udivilsya stark, ispugalsya: ro'bachil tritsat let i tri goda i ne slo'xival, chitob ro'ba govorilay»), kirish intonatsiyasi («Vot prishel on k sinemu moyru (pomutilos sinee more), stal on klikat zolotuyu ro'bku...»), alohida ajralish intonatsiyasi («No sarevna molodaya, tixomolkom rastsivelaya, mejdu tem rosila, rosila, podryalas - rastsivelaya, chernobrova, pravu krotkogo takogo»).

Yuqorida bayon qilingan o'zbek tilining fonetik va fonologik vositalari ravon nutqda bir vaqtning o'zida qo'llaniladi. Bolaning ravon nutqi ushbu, uning his-hayajonliligi uning nutq tovushlarini qanday talaffuz etishiga (artikulyatsiyalarni g'ayrat bilan va aniq aytilish yoki sekin va tushnarsiz aytilish) va mavjud prosodemalardan qaysi birini tanlashiga (past-jarangdor, tez-sekin, ovoz tembri bilan ijobiy yoki salbiy hissiyotlarni tasvirlash) bog'liqdir.

L.V.Sherba rus tilida ikkita asosiy talaffuz uslublarining mavjudligiga e'tiborni qaratgan. To'liqlik (yoki kitobiy) ushbu omma oldida nutq so'zlashda - matruzalari o'qish,

yig'ilishda so'zga chiqish, radio va televidenieda diktor bo'lib ishlashda, shuningdek o'quvchi, talabalar uchun va o'zini yaxshi anglashlarini xohlagan hamda tinglovchilarga uni tushunishlarini osonlashtirishga intilayotgan har bir shaxs uchun majburiydir. To'liq ushbu nutqqa aniq talaffuz, o'rta xos bo'lib, ovoz kuchi xona hajmi va ovoz tembriga mos bo'ladi. Nutqda kishining o'z qadriini yaxshi bilishi, ya'ni uni tinglayotganlarga nisbatan hurmat va e'tibori yaqqol ifodalalanadi.

Noto'liq (yoki so'zlashuv) uslub maishiy mulqoqda qo'llaniladi. Bunda so'zlardagi tovushlarni birmuncha past va sust aytilish, va tez aytilish yoki, aksincha, iboralarni sekin aytilish va shivirlash mumkin; so'zlashuv nutqiga ohangiy (his-

hayajonli) ishlov berish ko'rinishlari turlicha bo'ladi: barcha his-tuyg'ular so'zlashuv nutqining jaranglashida to'liq aks etadi.

Etarli darajada madaniy nutqqa ega bo'lgan har bir inson har doim ham vaziyatdan kelib chiqqan holda ikkala nutq uslublarini maxsus tayyorgariksiz qo'llay olishi mumkin. Maxsus tayyorlangan nutq notiqlik nutqi (publitsistik chiqishlarda) yoki badiiy o'qish (aktyorlik faoliyatida) deb ataladi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bir vaqtning o'zida nutqning boshqa qismlarini ham, ya'ni lug'at, bog'lovchi, grammatik jihatdan to'g'ri nutqni rivojlantirgan holda amalga oshiriladi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga oid ishlar bo'limlari

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarni aniq aytilish, ularni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni aniq talaffuz qilish, to'g'ri nutqiy nafas olish, shuningdek ovoz kuchidan etarli darajada foydalana olish qobiliyati, nutqning normal sur'ati va ifodalilikning turli intonatsion vositalari (nutq musiqasi, mantiqiy sukut, urg'ular, nutq sur'ati, ritmi va tembri) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Nutqning tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Bolalarda to'g'ri va yaxshi jaranglaydigan nutqni rivojlantirar ekan, tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal etishi zarur:

- bolalarda tinglash qobiliyatini tarbiyalash, uning komponentlarini, ya'ni: tinglash e'tibori (biron-bir tovushni jaranglashiga qarab qanday tovush ekanligini va uning yo'nalishini aniq aytilish), fonematik tinglash, mazkur nutq sur'ati va ritmini qabul qila olish qobiliyatlarini asta-sekin rivojlantirib borish;
- artikulyatsiya apparatini rivojlantirish;
- nutqiy nafas olish ustida ishlash, ya'ni iboralar bilan erkin so'zlay olish uchun qisqa nafas olish va davomli nafas chiqarishni o'rgatish;
- nutqot qot sharotidan kelib chiqqan holda ovoz balandligini boshqarish qobiliyatini tarbiyalash;
- ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish;
- har bir tovushni, shuningdek so'zlar va iboralarni aniq va tushunari talaffuz qilishga, umuman yaxshi talaffuzga odatlanish;
- so'zlarni o'zbek adabiy tilining orfoepiya qoidalari me'yorlariga mos holda talaffuz qilishni rivojlantirish;
- normal nutq sur'atini shakllantirish, ya'ni so'zlar va iboralarni nutqni tashkil etmay va sekinlashitmay sekinlik bilan hamda shu bilan birga tinglovchiga aniq tushunish imkoniyatini yaratgan holda talaffuz qilishni

o'rgatish;

-nutqning ohangiy ifodaliligini tarbiyalash, ya'ni fikrlar, hissiyotlar va kayfiyatni mantiqiy pauza, urg'u, ohang, sur'at, ritm va tembr yordamida aniq ifodalash qobiliyatini shakllantirish

Tarbiyachi nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va uni mutaxassisga yuborishdan oldin bunday nuqsonlar haqida etarli tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Endi har bir vazifani batafsil ko'rib chiqamiz.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish

Nutqni shakllantirishning dastlabki davrida nutqni tinglashga oid asosiy komponentlarni rivojlantirish bir tekisda bormaydi. Chunonchi, nutqni rivojlantirishning birinchi bosqichlarida tinglash e'tiboriga alohida ahamiyat beriladi. Vaholanki, bunda asosiy mantiqiy vazifa yuqori tovush tinglash qobiliyatini zimmasiga tushadi. Bolalar tovush balandligi o'zgartirishni nutqning his-hayajoni xususiyatiga (jahli qilinsa unga javoban yig'laydilar hamda xushnuomala va mayin munosabatcha javoban jilmaydilar) va tembriga (onasi va boshqa yaqinlarning ovozlardan taniydi) muvofiq holda qarab tanib olishni biladilar, shuningdek so'zning ritmik suratin, ya'ni uning sheva-bo'g'in tarkibini (so'zning bo'g'inlar soni va asosiy urg'uning joyiga bog'liq bo'lgan tovush tuzilishi xususiyatlari) nutq sur'ati bilan birlikda to'g'ri qabul qiladilar.

Kelgusida nutqni rivojlantirishda fonematik tinglash qobiliyatini, ya'ni bir tovushni boshqasidan aniq ajrata olish va buning natijasida ayrim so'zlarni tanish hamda tushunish qobiliyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Yaxshi rivojlangan nutqni tinglash qobiliyatini ona tilining barcha tovushlarini aniq va to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi, so'z aytilishda uning balandligini to'g'ri boshqara olish va uni ohista sur'atda, ohang jihatdan ifodaligi qilib so'zlash imkonini beradi.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish artikulyatsiya apparatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Nutqni tinglash qobiliyatini tarbiyalash bolalarda nutq jarangdorligining turli xil ko'rinishlarini, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni aniq va tushunarli aytilish, ovozni pasaytirish yoki kuchaytirish, nutq balandligi, tezligi, ohisraligi, uni jadalashirish va sekinlashirish, tembral ishlov berish (ilitimos, buyruq va boshq.) kabllarni qabul qila olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilganidir.

Artikulyatsiya apparatini rivojlantirish

Nutqiy tovushlar og'iz bo'shlig'ida shakllanadi, uning shakli va hajmi harakatchan a'zolar: lablar, til, pastki jag', og'zning yumshoq yuqori qismi, qizilo'ngach holatiga bog'liq bo'ladi. Muayyan tovushni talaffuz qilish uchun

92

zarur bo'lgan nutq organlarining to'g'ri holati va harakati artikulyatsiya deb ataladi.

Artikulyatsiya apparati tuzilishidagi buzilishlar, masalan, qisqa tilosti tuguni, noto'g'ri tishlashish, og'iz yuqori qismining haddan tashqari balandligi yoki pastligi va boshqa ayrim kamchiliklar tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga odatlanishga olib keluvchi dastlabki omillar hisoblanadi. Biroq, agarva bolaning artikulyatsiya apparati organlari harakatchan bo'lsa, u yaxshi tinglash qobiliyatiga ega bo'lsa, bu holda ko'pchilik holatlarda uning o'zi tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qodir.

Agarda bolaning artikulyatsiya apparati harakatida nuqsonlar mavjud bo'lsa (masalan, til kam harakatlansa), bu holda u tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, susil, noaniq va tushunarsiz nutqqa olib kelishi mumkin.

Shuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: tilning harakatchanligini rivojlantirish; lablarning etarli darajadagi harakatchanligini rivojlantirish; pastki jag'ni tovushlarni talaffuz qilish uchun muhim bo'lgan muayyan holatda tutib turishni o'rganish.

Nutqiy nafas olishni rivojlantirishga doir ishlar

O'pkadan kekirdak, bo'g'iz, og'iz bo'shlig'i yoki burun orqali chiqayotgan havo oqimini tovush hosil qiluvchi manba hisoblanadi. Nutqiy nafas olish o'z-o'zidan ro'y beradigan nonutqiy nafas olishdan farqli ravishda ixtiyoriy nafas olish hisoblanadi. Nonutqiy nafas olishda nafas olish va nafas chiqarish burun orqali amalga oshiriladi, nafas olish o'zining davomiyligi bo'yicha nafas chiqarishga deyarli teng bo'ladi.

Nutqiy nafas olish og'iz orqali amalga oshiriladi, nafas olish tez, nafas chiqarish esa sekinroq ro'y beradi. Nonutqiy nafas olishda nafas olishdan keyin darhol nafas chiqariladi, so'ngra pauza saqlanadi. Nutqiy nafas olishda esa nafas olingandan keyin pauza saqlanadi, so'ngra asta-sekinlik bilan nafas chiqariladi.

To'g'ri nutqiy nafas olish to'g'ri tovush hosil bo'lishini ta'minlaydi, nutqning tegishli balandlikda bo'lishini ta'minlash, pauzalarga aniq rioya qilish, nutqning asta-sekinligini va intonatsion ifodaliligini saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Nutqiy nafas olishdagi xatoliklar umumiy zairfik, adenoidik o'simlar, turli yurak-tomir kasalliklari oqibati bo'lishi mumkin. Shuningdek, muktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nafas chiqarishdan oqilona foydalana olmaslik, nafas olayotib so'zlash, o'pkani etarli darajada havo bilan to'ldirmaslik kabi nutqiy nafas olishdagi

93

nomutanosibliklar noto'g'ri tarbiya, kattalarning bolalar nutqiga etarli darajada e'tibor bermaganliklari oqibatida ham yuz bergan bo'lishi mumkin.

Zaif nafas oladigan va nafas chiqaradigan maktabgacha yoshdagi bolalar odatda, past ovozdada so'zlaydilar, uzun iboralarni talaffuz qilishda qiyinaladilar. Nafas chiqarishda havodan nooqilona foydalanilganida nutqning izchilligi buziladi, chunki bolalar iboraning o'rtasida nafas olishga majbur bo'ladi.

Ko'pincha bunday bolalar so'zlarni oxirigacha aytmaydilar va ba'zan ibora so'ngida ularni shivirlab aytadilar. Ba'zida bolalar uzun iborani nihoyasiga ekazish uchun nafas olib so'zlashga majbur bo'ladi, buning natijasida nutq noaniq bo'ladi, bolalar xuddi tiqilib qolgandek so'zlaydilar. Chunki, tezlashtirilgan nafas chiqarish iboralarni mantiqiy pauzalarga rioya qilmasdan jadal sur'atda so'zlashga majbur qilinadi.

Shuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat edi: maxsus o'yinli mashqlardan foydalanilgan holda erkin, bir tekis va uzaytirilgan nafas chiqarishni o'rgatish; pedagog nutqiga taqlid qilgan holda undan to'g'ri, oqilona foydalanishni (kichik iboralarni uzoq nafas chiqarish bilan talaffuz qilish) tarbiyalash.

Ovoz ustidagi ishlar

Ovoz apparati vositasida balandligi, kuchi va temбри turlicha bo'lgan tovushlar chiqariladi: ularning umumiyligi aynan inson ovozinani aniqlaydi.

Har bir ovoz xususiyatlarini alohida ko'rib chiqamiz.

Ovoz balandligi – ohangning ko'tarilishi va pasayishi, yuqori ovozdan past ovozga o'tish va aksincha.

Ovoz kuchi – tovushlarni muayyan balandlikda talaffuz etish, shuningdek tovushni bor ovozi bilan talaffuz eta olish qobiliyati.

Ovoz temбри – ovozga sifat jihatidan ishlov berish (jarangdor, ma'nosiz, titroq, bo'g'liq va boshq.)

Ovoz ovozi tugunchalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Uning sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Yuqori nafas yo'llarining turlicha tebranishlari, surunkali shamollash, adenoid o'simatlari va hokazolar ovozdagi buzilishlarning yuz berishiga yordam beradi. Ko'pincha maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz buzilishi undan noto'g'ri foydalanish: doimiy ravishda baqirib so'zlash, ayniqsa yilning sovuq davrida ko'chalarda baland ovozdada so'zlash orqali ovoz tugunchalarini zo'rqtirish, bola ovozi diapazoniga mos kelmaydigan ohangda so'zlash (masalan, bolalar anchaga yosh bolalarning chiyilloq nutqiga taqlid qiladilar yoki «adasi nomidan» past ovozdada so'zlashga urinadilar) oqibatida yuz beradi.

94

Ovozdagi buzilishlar burun-tomoq yoki yuqori nafas yo'llariga oid kasalliklarni boshidan kechirgan hamda kasallik paytida yoki sog'ayganidan so'ng darhol ovoznani asrash rejimiga rioya qilmagan bolalarda ham vujudga kelishi mumkin.

Ovoz imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanish bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari (juda uyatchan bola ko'pincha past ovozdada so'zlaydi; tezda g'ayratga keladigan bolalar baland ohanglarda so'zlaydilar); noto'g'ri tarbiyaga (agarda atrofdagilarning o'zlari baland ovozdada so'zlashar bolalar ham noiloj shunga o'rganadilar); agarda xonada doimiy shovqin-suron bo'lsa (radio, televizor, bolalar bog'chasi guruhidagi doimiy shovqin-suron va h.k.) bolalarning baland ovozdada so'zlashga majbur bo'lishlariga bog'liqdir.

Tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: o'yinlarda, o'yinli mashqlarda ovoznining asosiy sifati – kuchi va balandligini rivojlantirish; bolalarni zo'rqtirmasdan so'zlashga o'rgatish, ularni ovozdan turli vaziyatlarga mos holda foydalanishga odatlantirish (past-baland).

Ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu ishlar bolalar bog'chasida nihoyasiga ekazilmog'i lozim.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni faqatgina bolalarda artikulyatsiya apparati organlarining harakatchanligi va tez o'zgarishi, nutqiy nafas olishi etari darajada rivojlangan, ular o'z ovozlarni boshqarishni uddalay olgan taqdirdagina shakllantirish mumkin. To'g'ri talaffuzni shakllantirish uchun yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyatiga ega bo'lish ham juda muhimdir, chunki u o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi, o'z-o'zini nazorat qilish esa doimo o'z ustida ishlashga undaydi.

Tovushni talaffuz qilishdagi kamchiliklar nutqiy apparatdagi nuqsonlar (og'zning yuqorigi qatiq va yumshoq qismlaridagi nuqsonlar), tish-jag' tizimi buzilishdagi xato'liklar, til osti tugunchalarining qisqaligi, artikulyatsiya organlarining etari darajada harakatchan emasligi, fonematik tinglay olish qobiliyati (bir tovushni boshqasidan farqlay olmaslik) etari rivojlanmaganligi oqibatida yuz berishi mumkin. Jismoniy tinglay olish qobiliyatining susayganligi, o'z nutqiga beparvarlarcha munosabada bo'lish (o'zini ham, boshqalarni ham tinglay olmaslik), atrofdagilarning noto'g'ri nutqlarini o'zlashtirib olish ham talaffuzda kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bolalarning tovushni noto'g'ri talaffuz qilishlari tovushlarni tashlab ketishda, bir tovushni boshqasi bilan almashtirishda va tovushni buzib talaffuz

95

qilishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tovushlarni almashirib yoki buzib talaffuz qilish holatlari aniqlangan bolalar bilan ishlashni o'z vaqtida boshlash juda muhimdir, chunki tovushlar o'rni almashirish keyinchalik yozma nutqda ham paydo bo'lishi mumkin (bir harfni boshqasi bilan almashirish), buzib talaffuz etilayotgan hamda o'z vaqtida tuzatilmagan tovushlar keyinchalik uni bartaraf etish uchun logoped va bolaning birgalikda ko'p vaqt va mehnat sarflashlarini talab qiladi.

Bundan tashqari, unutmastik zarurki, tovush talaffuzidagi kamchiliklar ko'pincha bolaning o'zi nutqda xatolikka yo'l qo'yishi emas, balki faqat maxsus davolash va ta'lim berishni talab qiluvchi nisbatan murakkab nutq buzilishlarining (ataliya, dizartriya va boshq.) bir belgisi hisoblanadi.

Tarbiyachi quyidagilarni amalga oshirishi lozim: bolalarga har qanday pozitsiyada (so'z boshida, o'rtasida va oxirida) va so'z tarkibi turlicha bo'lganida (har qanday undosh birkimlari va bo'g'inlar soni istalganicha bo'lganida) barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish; nutqda kamchilik bo'lgan bolalarni o'z vaqtida aniqlash va zarur hollarda ularni o'z vaqtida maxsus bolalar muassasalariga yuborish.

Diktisiyaga oid ishlar

Yaxshi diktisya, ya'ni har bir tovushni, shuningdek so'zlar va iboralarni alohida va aniq, tushunari qilib talaffuz etish bolada bir vaqtning o'zida artikulyatsiya apparatini rivojlantirish va takomillashirish bilan bir qatorda asta-sekin shakllanadi. Diktisiyaga oid ishlar ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirishga doir ishlar bilan uzviy bog'liqdir.

Bola nutqning barcha tomonlari jadal rivojlanayotgan 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan davrda uning so'zlar va iboralarni aniq va tushunari talaffuz etishga e'tiborni qaratish, bolalarda so'zlardagi barcha tovushlarni aniq aytgan, iboralardagi barcha so'zlarni tushunari qilib talaffuz qilgan holda ohista sur'atda taqdid qilish nutqini tarbiyalash zarur. Biroq har doim ham faqat taqdid qilish orqali yaxshi diktisiyaga erishib bo'lmaydi. Bunga nutqni tinglash qobiliyatining etarli darajada rivojlanmaganligi, artikulyatsiya apparatini organlarining etarlicha harakatchan emasligi, o'z ovozi boshqara olmaslik va boshqa kamchiliklar to'g'ri bo'lishi mumkin.

Ko'pincha noaniq diktisya so'zlovchilarning nutqini diqqat-e'tibor bilan tinglay olmaydigan va o'z-o'zini nazorat qilish etarli darajada rivojlanmagan, e'tiborini bir narsaga jamlay olmaydigan va salga jahli chiqadigan bolalarda yuz beradi. Bunday bolalar nutqi noaniq, aralash bo'ladi, ular har doim ham so'zlar, iboralarni oxirigacha aytmaydilar.

Asta-sekin atrofdagilar va o'z nutqini diqqat bilan tinglashni o'rganishi, nutqiy nafas olish, artikulyatsiyani rivojlantirishi, ovozi boshqarishni o'rganishi natijasida bolaning diktisiyasi ham yaxshilanib boradi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga grammatik jihatdan to'g'ri nutqni, yaxshi diktisyani o'rgatishi, ularni atrofdagilar nutqini diqqat bilan tinglash va o'z talaffuzining aniqligini kuzatib borishga odatlantirishi zarur.

Orfoepiyaga doir ishlar

Kishilar bir-birlarini tushunishlari uchun ular og'zaki nutqning tovush qismi bir xil bo'lishi darkor. Shuning uchun tarbiyachilar nafaqat o'zlar og'zaki nutq goidalari rivojlanishini, balki ular bolalarni ham shunga odatlantirishlari kerak.

Biz bir necha bor bolalarning o'z nutqida mahalliy shevani, jaydari so'zlarni qo'llayotganini, urg'uni noto'g'ri qo'llayotganliklarini, so'zlarni harfiga qarab aylayotganliklariga (masalan, rus tilidagi «cht» so'zini «sh») deb emas, balki «cht» deb ayitish) duch kelamiz.

Tarbiyachi bolalarning adabiy talaffuz goidalari rivojlanishini ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi. Bu o'rinda tarbiyachining vazifasi quyidagilardan iborat bo'lmoq: lozim: ona tilining orfoepik me'yorlarini o'zlashtirib olish yo'li bilan o'z nutqning talaffuz madaniyatini oshirish, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda muntazam ravishda turli qo'llanmalar, lug'atlardan foydalanish.

Nutq sur'atiga doir ishlar

Nutq sur'ati deganda, nutqning vaqt bo'yicha davom etish tezligi tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar sekin so'zlashdan ko'ra ko'proq tez sur'atda so'zlaydilar. Bu nutqning tushunarligi, aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, tovush artikulyatsiyasi yomonlashadi, ba'zan alohida tovushlar, bo'g'inlar va hatto so'zlar tushib qoladi. Ayniqsa bu nuqsanlar uzun so'zlar yoki iboralarni talaffuz qilishda ko'p uchraydi.

Tarbiyachining faoliyati bolalarda so'zlar juda aniq jaranglaydigan ohista nutq sur'atini shakllantirishga yo'naltirilishi zarur.

Intonatsion ifodalilikka oid ishlar

Intonatsiya — bu nutqdagi barcha ifoda vositalarining murakkab majmui bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:
musiqiylik - iborani aytishda ovozning kuchayishi va pasayishi, bu nutqqa turli buyuqdar baxsh etadi va birxillikdan qochish imkonini beradi. Musiqiylik jaranglayotgan nutqning har bir so'zida ishtirok etadi. Balandligi va kuchiga qarab o'zgarigan holda unliqlar unga ishlov berishni nihoyasiga etkazadilar.

surat – nutqiy kesimlar oʻrtasidagi pauzalarni hisobga olgan holda nutqning aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda jadallashishi va sekinlashuvi;

ritm – urgʻuli va urgʻusiz boʻlgʻinlarning bir tekis oʻrin almashishi (yaʼni, ularning quyidagi sifatlari: uzozqlik va qisqalik, ovozni balandlatish va pasaytirish);

iboraviy va mantiqiy urgʻular – aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda pauzalar, ovozni balandlatish, soʻzlarni talaffuz qilishdagi zoʻrliq va uzozqligi bilan ajratish;

nutq tembr – (tovush tembr va ovoz tembr bilan aralashirib yuborilmasin) tovushning ekspressiv-emosional buyoqlari (qaygʻuli, quvnoq, hazin tembr).

Ifodalilikning ushbu vositalari yordamida mulqot jarayonida fikrlar va iboralarni, shuningdek emosional-iroda munosabatlarini aniqlashirish amalga oshiriladi. Intonatsiya tufayli fikr tugallangan tushga ega boʻladi, aytilgan fikr asosiy mahoni oʻzgartirmagan holda qoʻshimcha maʼnoga ega boʻlishi mumkin. Shuningdek, aytilgan fikr mazmuni ham oʻzgartirishi mumkin.

Ohang jihatidan ifodali boʻlmagan nutq odatda, tinglash qobiliyatining susligi, nutqni tinglash qobiliyatining etarli darajada rivojlanmaganligi, notoʻgʻri nutqiy tarbiyalash, nutqdagi turli nuqsonlar (dizartriya, rinolaliya va boshq.) oqibatida yuz berishi mumkin.

Bola oʻz nutqida turli his-hayajon va kechimmalarini tinglovchiga etkazish uchun ifoda vositalarini toʻgʻri qoʻllashni bilishi lozim. Tarbiyachi nutqi his-hayajonga toʻliq boʻlishi hamda intonatsion ifodalilik namunasi boʻlib xizmat qilishi lozim.

Intonatsion ifodalilikka doir ishlar asosan taqlid yoʻli bilan amalga oshiriladi. Tarbiyachi sheʼrlarni yod olishda, hikoya qilib berishda oʻzi ham nutqning ifoda vositalaridan foydalanadi va bola nutqning ifodaliligiga eʼtiborni qaratadi. Bolalar tarbiyachining toʻgʻri, ifodali nutqini eshitgani sayin asasa-sekin mustaqil nutqda zarur intonatsiyalarni qoʻllay boshlaydilar.

Nutqning tovush madaniyatiga doir barcha ishlar boʻlinlari oʻzaro bir-biriga bogʻliq boʻladi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir oʻyinlar va mashgʻulotlarni muntazam hamda izchil ravishda amalga oshirish uchun unga «jonli» ovoz usidagi ishlar asos qilib olinishi lozim. Har bir yosh bosqichida materialga majburiy ravishda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir boʻlinlarni kiritgan holda uni murakkablashtirib borish darkor.

Bolalar nutqini rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – bu 1 yoshu 6 oydan to 3 yoshgacha boʻlgan davr. Ushbu

bosqichda (ayniqsa, uning boshida) faol lugʻat jadal rivojlanadi. Ilgari shakllanib ulgurgan artikulyatsiya harakatlari yaxlit soʻzlarni talaffuz qilishda ishtirok etgani holda unga ayrim oʻzgartirishlar kiritiladi, yaʼni bunda aniqlashirish yuz beradi, u yanada barqarorlashadi. Bolaning yaxlit soʻzni ayitishga ongli ravishda taqlid qilish qobiliyati rivojlanadi, shu tufayli tarbiyachi bola nutqning tovush jihatiga sezilarli taʼsir koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻladi. Turli tovush taqlidlaridan foydalanish nutqning tovush madaniyatiga doir ishlarining asosini tashkil qiladi.

Ishning samaradorligi ortadi, chunki ushbu yoshdagi bolalar bilan mashgʻulotlar kichik guruhlarda olib boriladi.

Ikkinchi bosqich – 3 yoshdan 5 yoshgacha boʻlgan davr. Bu yoshda soʻzning fonetik va morfologik tarkibini shakllantirish jarayoni boradi. Eng qiyin artikulyatsiya harakatlarni takomillashirish davom ettiriladi. Bu bola uchun oraliq, affrikat va sonor tovushlarini chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ushbu bosqichdagi ishlar bolalarning soʻzning tovush jihatiga nisbatan sezilarli ravishda ajralib turadigan ongli munosabatga tayanadi va u ona tilining barcha tovushlarini izchil ravishda mashq qilish asosiga quriladi.

Uchinchi bosqich – 5 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan davr. Bu bosqich goʻyoki bolalar bogʻchasida maktabgacha yoshdagi kichiktoylar nutqning tovush tomonini shakllantirishdagi yakunlovchi davr hisoblanadi. Davr boshida eng qiyin artikulyatsiya harakatlari shakllanib boʻladi, biroq bunda shu narsa muhimki, artikulyatsiya yoki akustik belgilari boʻyicha yaqin boʻlgan (s-sh, z-z, s-z va boshq.) tovushlar bir-biridan aniq farqlanishi (talaffuzda ham, nutqni tinglash orqali qabul qilishda ham) lozim. Bunday tovushlarni taqqalashirish, farqlashni takomillashirishga oid maxsus ishlar bolalarda fonematik tinglash qobiliyatini yanada rivojlantirishga, fonemalarni mazmun farqlovchi tovushlar sifatida oʻzlashtirishga yordam beradi (surat – surat, olma – olma va boshq.).

Mazkur davrda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash asosiy tovushlar juttligini taqqalashirish asosiga quriladi va bir vaqtning oʻzida diktsiya, surat, intonatsion ifodalilik va h.k. larni oʻz ichiga oladi.

Tarbiyachi har bir bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarining asosiy mazmunini nazarda tutgani holda ayri paytda bolalar nutqini rivojlantirishning oʻziga xos xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

Har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash

1-bosqich – 1 yil 6 oydan boshlab to 3 yoshgacha boʻlgan davr

Bir yarim yoshdan 3 yoshgacha boʻlgan bolalarda nutqni tushunish tez

rivojlanadi, lugʻat boyligi keskin ortadi, soʻz tarkibi takomillashadi. Ular dastlab tovush birliklarini, soʻngra esa oddiy iboralar, kichik sheʼrlarni oson takrorlaydilar. Agarda ikki yoshda bola ikki-uchta soʻzdan iborat boʻlgan iboralarni qoʻllayotgan boʻlsa, u uch yoshga kirganida uch-besh va undan ortiq soʻzlar ishtirokida murakkab iboralarni tuzadi. Ushbu davrda nutq nafqat kattalar bilan, balki tengdoshlar bilan ham mulogot vositasi sifatida shakllanadi. Bu davrda bolalarda nutqning tovush tomoni, yaʼni: ovoz va artikulyatsiya apparati, tovush talaffuzi, tinglash qobiliyati jadal rivojlanadi. Yaxshi, aniq va intonatsion jihatdan toʻgʻri boʻlgan ifodalni nutqqa erishish uchun ilk yoshlardan boshlab bolalar bilan nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga doir ishlarni amalga oshirish zarur.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning kattalar bilan muntazam ravishda mulogotda boʻlish orqali amalga oshirilishi lozim. Ushbu davrdagi asosiy vazifa — tinglash qobiliyatini doimiy rivojlantirish, artikulyatsiya apparati aʼzolarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun muayyan tovushlar guruhlari tanlab olinadi va bolalar tovushga taqild qilish asosida ularni mashq qiladilar. Asosan bu eng oddiy tovushlar guruhlaridir: unliqlar — a, i, o; lab-labliqlar — p, b, m; orqa tillilar — k, g, x; lab-tilshliqlar — v, f; old tillilar — t, d, n. Ikki yildan keyin asta-sekin artikulyatsiya jihatidan nisbatan murakkab boʻlgan old tili tovushlar ham beriladi — hushaksimonlar — s, z, s; shuvillovchilar — sh, j, ch, h; sonorlar — l, r, ammo bu 3 yoshdan boshlab bolalarning toʻgʻri talaffuz qilishlariga erishish zarur, degani emas. Bolalar ushbu tovushlarni muntazam mashq qilish natijasida asta-sekin, 5-6 yoshlarga toʻgʻri talaffuz qila boshlaydilar.

Tovushga taqild qilishni turli ish shakllariga qoʻshish bolalarning nafqat turli koʻrinishdagi tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishlarini aniqlash va mustahkamlashga yordam beradi, balki yaxshi diktsiyaga erishishda, yaʼni ularning tovushlar hamda soʻzlarni aniq va tushunarli qilib talaffuz etishlariga erishishda ham koʻmaklashadi. Aynan bir xil tovush taqildlarini bir necha marta qoʻshib talaffuz qilish nutqiy nafasning rivojlanishiga yordam beradi, ularning turli balandlikda talaffuz qilish bolaning ovoz apparatini rivojlantiradi.

Tovush taqildlari bola tomonidan koʻp marta amalga oshirilgani bois u bola uchun namunaga aylanib qoladi hamda akustik va artikulyatsiya koʻnikmalarini orttirish uchun yaxshi material boʻlib xizmat qiladi.

Dastlab ikki yoshgacha shunday tovush taqildlarini berish kerakki, toki ular bolaning tinglash-nutq koʻnikmalarini rivojlantirishga mos kelsin, masalan: u, mu, av, ga-ga, tu-tu, bay-bay va h.k. Bolaning fonetik inkonyatlariga va uning oddiy soʻzlari, tovushga taqild qilish shakllariga moslashish tovush

talaffuzini aniqlash imkonini beradi. Bu nutqiy harakat tahlilchisiga normal rivojlanish va «pishib etilish» imkoniyatini, bolaga esa — ayrim tovushlarga quloq tutish imkonini beradi, bu esa oʻz navbatida tinglash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

2-3 yoshli bolalar bilan ishlashda tovushga taqild qilish murakkablashadi, xususiyatlariga koʻra turlicha boʻlgan tovushlarni oʻz ichiga oladi, masalan: pish-pish, qu-qu va h.k. Bu tovushga taqild qilishda ham, mustaqil nutqqa ham tovushlarni aniq, tushunarli qilib talaffuz qilishga yordam beradi, shuningdek nutqiy tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, tovushga taqild qilishga maktabgacha yoshdagi bolalar noaniq talaffuz qiladigan yoki umuman aytolmaydigan tovushlarni asta-sekin qoʻshib borish tovush talaffuzini yaxshilashga yordam beradi. Bolalarda mavjud tovushlar aniqlashitiradi, yangilari paydo boʻladi.

Shunday qilib, mashgʻulotlarda va undan tashqari turli tovush taqildlarini muntazam ravishda qoʻllagan holda tarbiyachi bir vaqning oʻzida nutqning tovush madaniyatini ham shakllantiradi. Talaffuz uchun osonlashtirilgan nutqiy materialda bola nutqning tovush madaniyatiga oid qator boʻlimlarni mashq qiladi hamda shu bilan nutqni tinglash va nutqiy harakat tahlilchilarini nisbatan murakkab akustik-artikulyatsiyaga tayyorlaydi.

Ishlarning ushbu bosqichida bolalarning yoshiga qarab ularga oʻzida turli tovush taqildlarini jamlagan oʻyinlar, qoʻshiq, sheʼrlar, sanog sheʼrlar va hikoyalari beriladi.

Tarbiyachi tovushga taqild qilishni oʻyin-mashqlar, nutqni rivojlantirish va airof-muhit bilan tanishtirishga oid mashgʻulotlar, didaktik oʻyinli mashgʻulotlar, musiqiy mashgʻulotlar tarkibiga kiritadi.

2-bosqich — uch yoshdan besh yoshgacha boʻlgan davr

3 yoshdan 5 yoshgacha boʻlgan davrda bolalarning nutqi rivojlanishda davom etadi. Ushbu yoshda lugʻat yigʻiladi, aniqlashitiradi va takomillashitiradi. Bolalar soʻzlarni mazmuniga qarab aniqroq aytib boshlaydilar. Ular grammatik shakllardan toʻgʻri foydalana boshlaydilar, kichik eʼrtaklar, hikoyalarni mantiqiy izchilikka hikoya qilish va sanolar mazmunini aytib berishga qodir boʻladi. Nutqning tovush tomoni ham jadal rivojlanadi. Bolalar ona tilining koʻpgina tovushlarini oʻzlashtirib oladilar va toʻgʻri talaffuz qiladilar, soʻzlar va iboralar sof va aniqroq aytib boshlaydilar, oʻz nutqining surʼatiga eʼtibor bera boshlaydilar.

Mazkur bosqichda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishdagi asosiy vazifa bolalarda fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish hamda soʻzlar va iboralarni aniq va tushunarli qilib talaffuz qilgan holda ona tilining

barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bu yoshda asosiy vazirani hal etish bilan bir qatorda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashning boshqa bo'limlariga oid ishlarni ham amalga oshirish, ya'ni: ovoz balandligini vaziyatga qarab moslashtirish, so'zlarni ulardagi urg'ularni aniq qo'ygan holda shoshmasdan, to'g'ri va aniq qilib aytilish qobiliyatini tarbiyalashga doir ishlarni ham amalga oshirish zarur.

Ikki yoshdagi bolalar bilan ishlashda tovushga taqld qilish keng qo'llaniladi. 3-4 yoshi bolalar uchun nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash tovush talaffuziga oid ishlarni olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Uni shakllantirish bolalar bog'chasida nihoyasiga etkazilishi lozim, nutqning tovush madaniyatiga oid qolgan bo'limlarni takomillashtirish esa maktabda davom ettiriladi. Ayni paytda tovush talaffuzi ustidagi ishlarni nutqni tinglash qobiliyatini, nutqiy nafas olishni, artikulyatsiya apparati, diktsiya va intonatsiyani rivojlantirish bilan qo'shib olib borish osondir.

To'g'ri tovush talaffuzini tarbiyalash ona tilining barcha tovushlarini izchil mashq qilish jarayonida amalga oshiriladi. Bunda natqat u yoki bu tovushni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish, balki bolaning tinglash va talaffuz qilish imkoniyatlarini shakllantirish, ya'ni tinglash va artikulyatsiya nazorati o'rtasidagi bog'liqlikni ham shakllantirish zarur, zero ularsiz tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish mumkin emas.

Agarda 3 yoshli bolalar - s, z, sh, ch, h, r, l kabi tovushlarini etari darajada yaxshi talaffuz eta olmasalar, darhol ularni mashq qilishga kirishish kerak emas, chunki bu bolalarning ularni noto'g'ri talaffuz qilishga odatlanib qolishlariga olib kelishi mumkin. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga oid ishlarning barcha bo'limlari bo'yicha ishlarni olib borish zarur. Nutqni tinglash qobiliyatini va talaffuz imkoniyatlarini takomillashtirish bu tovushlarning bola nutqida paydo bo'lishi hamda ularning to'g'ri talaffuz etilishiga yordam beradi.

Masalan, 3 yoshli bolalar bilan talaffuz uchun nisbatan oson bo'lgan - «f», «v» tovushlarini mashq qilishda tarbiyachi yangi tovushlar guruhini - ya'ni artikulyatsiya apparati organlarining «i» tovushiga yaqin bo'lgan muayyan joylashuvi xos bo'lgan, shuningdek «f», «v» tovushlarini mashq qilishda hosil bo'ladigan maqsadli havvo to'liqini mavjud bo'ladigan shuvillovchi - «ss», «zz», «s» tovushlarining paydo bo'lishi uchun shart-sharoitlarni yaratadi. Bir tovushlar guruhi uchun ishlab chiqilgan ko'nikmalarning boshqasiga o'tish imkoniyati shu tariqa yaratiladi.

Tovushlarni ketma-ket mashq qilish nutqning tovush madaniyatini shakllantirish va uni yanada takomillashtirish borasidagi ishlarni muntazam

raviylikda o'kazib borish imkoniyatini yaratadi.

Ona tilining barcha tovushlarini mashq qilish bir-birini ketma-ket almashtiruvchi to'ri ish turini ko'zda tutadi: artikulyatsiya apparati organlarini tayyorlash, ajratilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashtirish (bo'g'limlarda) va ushbu tovushni boshqa tovushlardan ajrata olish, so'zlarida tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash, iborali nutqda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash.

So'nggi uchta ish turiga nutqiy tinglash qobiliyatini rivojlantirish ham kiradi. Bu ish turlari mashq'ulotlarda ham va ayni paytda undan tashqarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu barcha ishlar turlarini bitta mashq'ulotda amalga oshirish tavsiya etilmaydi, chunki tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'zlashtirish jarayoni - bu muayyan ko'nikmaga ega bo'lishdan iborat, uni yaratish esa izchillik va dolomylilikni talab etadi. Yuqorida sanab o'tilgan ishlar turlarini 3-6 kun oralig'ida bajarish bolalarga artikulyatsiya apparati organlarining muayyan joylashuvi va harakatini o'zlashtirish hamda mustahkamlash imkonini beradi va tovushni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish hamda uni yaxshi tinglay olishga yordam beradi.

Tovush talaffuziga oid ishlar nutq tovush madaniyatining boshqa bo'limlariga doir ishlar (nutqni tinglash qobiliyatini, artikulyatsiya, nutqiy nafas olish, ovozlar, diktsiya, nutq surati, uning intonatsion ifodaliligini rivojlantirish,) bilan birgalikda olib boriladi. Endi har bir ish turini batafsil ko'rib chiqamiz.

1-ish turi - artikulyatsiya apparati organlari harakatini aniqlashtirish. Tarbiyachi harakatlarni rivojlantirish yoki aniqlashtirish, tovushning to'g'ri artikulyatsiyasiga yordam beradigan muayyan holatlarni ishlab chiqish uchun o'yin mashqlarini beradi. Bunda nutq tovush madaniyatining navbatdagi bo'limlariga oid ishlar ajratiladi: aniq va to'g'ri artikulyatsiyani, og'izdan uzog muddat davomida bir tekis nafas chiqarishni o'rgatish, tovush balandligini rivojlantirish.

2-ish turi - ajratib qo'yilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashtirish va nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish. Tarbiyachi ajratib qo'yilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashtirish yoki uni taqld asosida atash uchun o'yinlarni yoki o'yinli mashqlarni beradi. Bolalarning diqqat-e'tibori ushbu tovushni talaffuz etilishda artikulyatsiya apparati organlarining holatiga va uning jaranglashiga qaratiladi. Ushbu tovushni tovushlar guruhi ichidan ajratib olish uchun o'yinlardan foydalaniladi.

Bu ish turi nutqni tinglash, ovoz balandligini taqqoslay olish qobiliyatlarini

tarbiyalash, artikulyatsiya apparatini, nutqiy nafas olishni rivojlantirishga yordam beradi.

3-ish turi — soʻzlarda tovushni toʻgʻri talaffuz qilishni tarbiyalash va fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

Tarbiyachi soʻzlarda tovushlarni aniq va toʻgʻri qoʻllashga yordam beruvchi turli materiallarni (asosan, didaktik oʻyinlar) beradi. Dastlab mashq qilinayotgan tovush urgʻu boʻlgʻinda turgan soʻzlar beriladi. Bolalar uni yanada aniqroq, choʻzib talaffuz qilishni oʻrganadilar, yaʼni tovushni ovozd yordamida ajratish koʻnikmasini mashq qiladilar, keyinchalik esa ularni nafaqat ajrata olish, balki uning boʻlgʻindagi joyini aniqlashni oʻrganadilar. Bir vaqtning oʻzida fonematik tinglash, soʻzlarni orfoepiya meʼyorlariga muvofiq holda talaffuz qilish vazifalari hal etiladi.

4-ish turi — tovushlarni iborali nutqlarda toʻgʻri talaffuz qilishni tarbiyalash va nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

Pedagog maxsus tanlab olingan nutqiy materiallar, yaʼni: soʻzi oʻyinlar, tez aytishlar, topishmoqlar, sheʼrlar, va hikoyalarni beradi. U mazkur tovushning yuqorida sanab oʻtilgan materialda toʻgʻri qoʻllanishini kuzatib boradi. Mustaqil nutqda tovushni toʻgʻri talaffuz qilishni tarbiyalash nutqni tinglash va nutqiy nafas olish qobiliyatlarini rivojlantirish, nutqning ohista surʼati va intonatsion ifodalitigidan foydalana olish qobiliyatini shakllantirish bilan birgalikda olib boriladi.

3-bosqich — besh yoshdan etti yoshgacha boʻlgan davr

Katta yoshdagi bolalar koʻp hollarda ona tilidagi barcha tovushlarni oʻzlashtirib oladilar va toʻgʻri talaffuz qiladilar. soʻzlar va iboralarni aniq va toʻgʻri talaffuz qilishni, nutq balandligini vaziyatdan kelib chiqqan holda oʻzgartirishni, ifoda qilishning intonatsion vositalardan foydalanishni biladilar, etari darajada rivojlangan tinglash qobiliyatiga ega boʻladilar. Biroq bu yoshda hali ham ayrim tovushlar va murakkab soʻzlarni, ayniqsa bir necha undoshlar ishtirokidagi soʻzlarni unchalik aniq talaffuz qila olmaydigan bolalar ham uchraydilar. Ular har doim ham ohista nutq surʼatlaridan foydalana olmaydilar, ancha baland yoki past ovozdagi soʻzlaydilar va h.k. Ayrim bolalar esa tovushlarni toʻgʻri talaffuz etgani holda ularni tinglash jarayonida ajratib olishni qiyinaladilar, bu esa kelgusida savod chiqarishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bolalar odarda bolalar bogʻchalariga turli yoshlarda kelishi va nutq tovush madaniyatining barcha boʻlimlarini har xil oʻzlashtirishlari tufayli uni shakllantirishga doir ishlar katta guruhlarda davom ettirilishi lozim. 5-7 yoshli bolalar nutqida tovush madaniyatini shakllantirishning asosiy vazifasi

nutqni tinglash qobiliyatini yanada takomillashtirish, aniq, toʻgʻri va intonatsion ifodalni nutq koʻnikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Ushbu bosqichda nutq tovush madaniyatini shakllantirishni bolalar tomonidan koʻpincha aralashitirib talaffuz qilinadigan tovushlarni tabaqalashitirish ishlari bilan bogʻliq holda amalga oshirish mumkin: shippilovchi va chiyillovchilar tovushlar — sh-s, j-z, ch-ts, h-s; jarangli va jarangsiz tovushlar — v-f, z-s, j-sh, b-p, d-t, g-k; «d» va «r» tovushlari; qatiq va yumshoq tovushlar — d-d, l-l va boshqalar.

Zarur hollarda koʻpincha bolalar tomonidan aralashitirib yuboriladigan boshqa tovushlar juftliklarini ham tabaqalashitirish mumkin, masalan: ch-t, s-ts va boshq.

Tovushlarni tabaqalashitirishga doir ishlar tovushlarni farqlash bir vaqtning oʻzida ularning akustik va artikulyatsiya xususiyatlariga qarab oʻtkazilgan hollardagina toʻgʻri tashkil etilishi mumkin. Bu xususiyatlar bolalar tomonidan ancha ilgari, tovushlarni mashq qilish chogʻida ajratilgan. Masalan, «a-sh» tovushlarini mashq qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga ushbu tovushlarning asosiy akustik va artikulyatsiya xususiyatlarini ajratgan holda ularni bir-biriga taqqoslashga undaydi: sovuq havo nasosdan chiqadi va hushak chuladi: ssss...-biz «s» tovushini talaffuz qilganimizda til pasiki tishlar ortida turadi; yoritib ketgan shinadan shuvillab issiq havo chiqmoqda: shshshsh...-biz «sh» tovushini talaffuz qilganimizda til yuqori tishlar ortiga koʻtariladi.

Tovushlarning farqlovchi xususiyatlarini amaliy oʻrganishga qaratilgan bunnaduy tizimi ish bolalar bogʻchasi ga kechroq qatnay boshlagan bolalarga oʻz tovush talaffuzini aniqlashitirib olishda yordam beradi, fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish va artikulyatsiya apparatining tovushlarni farqlashga xos boʻlgan tabaqalashitirgan nozik harakatlarini oʻzlashtirishda koʻmaklashadi. Bolalarning barchasi ona tili muvaffaqiyatli oʻqitishni davom ettirishning zarur sharti hisoblanadi.

Ajratib qoʻyilgan tovushlarni tabaqalashitirish bilan bir qatorda soʻzlar va iborali nutqlardagi tovushlar ham tabaqalashitirishi bir vaqtning oʻzida bolalarda nafas olishni, diksiyani, intonatsion ifodalitkni, yaʼni takomillashitirish ishlarni ham olib borish imkonini yaratadi.

Har qanday tovush juftligini tabaqalashitirish uch xil turdagi ishlarni amalga oshirishni koʻzda tutadi.

1-ish turi — ajratib qoʻyilgan tovushlarni tabaqalashitirish. Tarbiyachi tovushlarni ularning akustik va artikulyatsiya xususiyatlariga qarab farqlashga doir ishlarni bajaradi. Bunda u «obrazli» suratlardan foydalangan holda,

yani tovushni hayvonlar, narsalar va harakatlar chiqaradigan muayyan tovushlar bilan shartli ravishda taqqoslashni amalga oshiradi.

Bir vaqtning o'zida ushbu ish turi fonematik tinglash qobiliyatini takomillashtirish, tovushlarni aniq talaffuz qilishni o'rganishga yordam beradi.

2-ish turi – so'zlardagi tovushlarni tabaqalashirishdan iborat. Tarbiyachi nomlarida tabaqalashiriladigan tovushlar ishitorak etadigan turi suratlari, narsalar, o'yinchoqlarni tanlab oladi hamda bolalarga ularni farqlashni o'rgatadi. Dastlab tabaqalashiriladigan u yoki bu tovush mavjud bo'lgan so'z olinadi, so'ngra esa faqat bir dona tabaqalashiriladigan tovush mavjud bo'lgan so'zlar, keyin esa har ikki tabaqalashiriladigan tovushni o'z ichiga olgan so'zlar tanlanadi. Bolalar ularni aniq, to'g'ri talaffuz qilishlari va ularning farqlarini ko'rsata olishlari lozim. Bir vaqtning o'zida ushbu ish diktsiyani yaxshilashga yordam beradi, so'zlarni talaffuzning orfoepik me'yorlariga muvofiq holda to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi.

3-ish turi – nutqda tovushlarni tabaqalashirish. Tarbiyachi so'zli o'yinlar, hikoyalar, syujetli suratlari, she'rlar, tez aytilishlar, topishmoqlar, maqollar, matallar hamda tabaqalashiriladigan tovushlar bilan boyitilgan boshqa nutqiy materiallarni tanlab oladi. Ayni paytda u bolalarning ushbu tovushlarni to'g'ri qo'llashlarini va ularni o'z talaffuzlari bilan aralashirib yubormasliklarini nazorat qiladi.

Pedagog she'rlar, hikoyalarda tovushlarni tabaqalashirish uchun materiallar berar ekan, u bir vaqtning o'zida bolalar bilan nutq sur'ati, diktsiya, ovozdanda to'g'ri foydalanishni mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi hamda so'zlarni talaffuz etishning adabiy me'yorlarini hisobga olgan holda ularning to'g'ri talaffuz qilinishini kuzatib boradi.

Endi ko'rsatib o'tilgan ish turlaridan har bir yosh bosqichida foydalangan holda talaffuz ko'nikmalari, nutqning tovush madaniyatini amaliyotda qanday ishlab chiqish (shakllantirish) zarurligini ko'rib chiqamiz.

1 yili 6 oydan 3 yoshgacha bo'lgan davr «A» tovushi

«Mehmonlar»

Maqsad: tovush tinglay olish va tovush taqildilarini to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash. Bir vaqtning o'zida ovozdanda o'racha balandlikda foydalanish mashq qilinadi.

Mazmuni: Pedagog bolalarga ularning mehmonlarni kutib olishlari lozimligini ma'lum qiladi. Tarbiyachi bolalardan biri bilan xonadan chiqar ekan, unga kuchuk surati tasvirlangan qalpoqchani kiydiradi. So'ngra ular «aqa-taq» deb, eshikni ochishadi. Bolalar so'raydilar: «kim u?». Bola javob beradi: «vov-vov». Tarbiyachi bolalarga murojaat qiladi: «Bizga kim mehmon bo'lib

kelibdi?». Bolalar javob beradilar: «kuchukcha». Tarbiyachi: «kuchukcha qanday vovullaydi?». Bolalar: «vov-vov». Pedagog bolalarga g'oz, qurbaqa, tovuq, echki va boshqa jonzorlar tasvirlangan qalpoqchalarni kiydirgani holda o'yinni takrorlaydi.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalar tovush birkimallarini aniq va etarli darajada baland talaffuz etishlarini nazorat qiling.

«Oo'g'irchoqni allalashi»

Maqsad: artikulyatsiya apparatini rivojlantirish va tinglash qobiliyatini shakllantirish. Bir vaqtning o'zida uzoq muddat mobaynida nutqiy nafas chiqarish va ovoz balandligini o'zgartira olish qobiliyatini mashq qilinadi.

Mazmuni: Pedagog bolalarga qo'g'irchoq tarqatadi va «a» tovushini uzoq vaqt mobaynida cho'zib aytilish – aaaa – orqali ularni allashni taklif qiladi. Dastlab bolalar «a» tovushini baland ovozda talaffuz qiladilar. So'ngra tarbiyachi qo'g'irchoqlar uxtlab qolayotganini aytadi va bolalardan sekinroq allalashni so'raydi. Bolalar «a» tovushini past ovozda aytish boshlaydilar.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalar «a» tovushini ancha uzoq vaqt mobaynida, bir nafasda aytilishlarini nazorat qiling; ovozdanda unchalik yaxshi foydalana olinmaydigan bolalarni yaxshiroq nazorat qilish uchun ularni kichik guruhlariga ajratilg.

«U» tovushi

«Bu kimligini (nimaligini) top»

Maqsad: Tinglash qobiliyatini tarbiyalash (talaffuz etilgan tovush taqildilarning turli balandliklarini tinglash orqali aniqlash qobiliyati)

Mazmuni: Tarbiyachi turi tovush birkimallarini narsalar va hayvonlar bilan taqqoslagan holda talaffuz qiladi. Bolalar buning nimaligini yoki kimligini aniqlashlari zarur. Masalan, tarbiyachi parovozning chinqirig'iga, sigirning mo'rtashiga, xo'rozning qichqirig'iga, nay tovushiga taqild qiladi. Takroriy o'yinda pedagog bolalardan narsa yoki jonzorlarning uzoq yoki yaqindaligini aniqlashni so'raydi.

Metodik ko'rsatmalar: Tegishli narsalar, jonzorlar tasvirlarini tanlash; tovushga taqildilarni baland ovozda jiro etish.

«Hay-huylash»

Maqsad: Artikulyatsiya apparatini organlarining aniq harakatlarini mashq qilish. Mazmuni: Pedagog bolalarga ular boqqa gul terгани kelganligini ma'lum qiladi. Ayrim

bolalar uzoqqa ketib qo'lishdi, ularni hay-huylab chaqirish lozim (Kafllarini og'ziga kamay qilib qo'yadi va qanday qilib «hay-huylash» kerakligini

ko'rsatadi). Bolalar ikki kichik guruhga bo'linadilar. Bir guruh pedagog yonida qoladi (ular past ovozda «hay-huylaydilar»), boshqa guruh esa ajratilgan joyga yo'l oladi (ular baland ovozda chaqiradilar).

Metodik ko'rsatmalar: Past ovozda so'zlaydigan bolalar baland ovozda «hay-huylaydigan» guruhga kiritiladi. Barcha bolalar har ikki tovushni bir tekisda talaffuz etishlari, ovoz balandligidan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilish dardkor.

«V» tovushi

Bo'ri va it

Maqсад: Tinglash qobiliyatini va «v» tovushini aniq talaffuz qilishni tarbiyalash. Bir vaqtning o'zida og'izdan uzun nafas chiqarishni, ovoz balandligini o'zgartirishni mashq qilish.

1-variant: Tarbiyachi bolalarga bo'rining qanday uvillashini tinglashni taklif qiladi (sekin ovozda: uvvvv..., so'ngra itning qanday hurishini tinglashni taklif qiladi (baland ovozda: vov-vov). Uning ko'rsatmasi bo'yicha bolalar ovoz balandligini oshiradilar, bo'rining uvillashi va itning hurishiga taqlid qiladilar.

Metodik ko'rsatmalar: Taqlidning to'g'ri talaffuz etilishini nazorat qiling. Bo'rining uvillashi past ovozda, itning hurishi baland ovozda.

2-variant: Tarbiyachi bolalarga bir nafasda bo'rining uvillashi, itning hurishi va yana bo'rining uvillashini ko'rsatishni taklif qiladi. Bolalar bu jonzotlar ovoziga ketma-ket taqlid qiladilar: past-baland-past.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning ovozi pasaytirish va kuchaytirishni boshqa nafas olmasdan bir nafasda amalga oshirishlari, past ovozdan baland ovozga ohisa o'tishlarini nazorat qiling.

3 yoshdan 5 yoshgacha. «S» tovushi

Maqсад: Artikulyatsiya apparati organlarining aniq harakatlari va ularning to'g'ri holatini mashq qilish.

«Farruxning qanday jahli chiqishi va uning qanday quvonishini ko'rsat»

Mazmun: Tarbiyachi bolalarga Farruxning jahli chiqqanida uning lablarini mana bunday qilib cho'chhaytirishini (lablarini shishiradi), Farrux xursand bo'lganida esa uning jilmayishini (lablarini cho'zadi, yuqori va pastki tishlarini ko'rsatadi) aytadi.

Tarbiyachi: «Endi esa men sizga Farrux haqida hikoya qilib bermoqchiman. Uning jahli chiqqanida siz labaringizni cho'chhaytirasiz (lablarini shishirib ko'rsatadi), u xursand bo'lganida esa siz jilmayasiz... Farruxning oyisi unga mashina olib berdi. Farrux xursand, u jilmaymoqda... U mashinasini ko'tarib, ko'chaga o'ynagan chiqdi, tashqarida esa yomg'ir yog'moqda, u nima qilishini

bilmay qoldi. Alisher Farruxdan mashinasini o'ynash uchun berib turishni iltimos qildi. Farruxning mashinani bergisi kelmasdi, u lablarini cho'chhaytiradi. Ko'p o'tmay bulutlar tarqab, quyosh chiqdi. Farrux jilmaydi va Alisherga dedi: «Keldik, mashinamni birga o'ynaymiz».

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning jilmayish uchun lablarini qiyalmasdan cho'zishlarini va old tishlarini ko'rsatishlarini nazorat qiling. Lablar oltinga cho'zilganida ular bir-biriga tegib turishi lozim.

«Sayrda»

Mazmun: Pedagog bolalarga qarab, deydi: «Bizning tilimiz sayr qilishga qaror qilibdi. U o'z o'yini ochdi (og'zini ochadi), dastlab chappa, so'ngra o'ngga qaradi, keyin yana chappa, o'ngga qaradi, qarasa hech kim yo'q. Shuning uchun panjaraga yotib, quyoshga toblamoqchi bo'ldi (tilini pastki tishlari ustida qo'yadi)».

Bu vaqtda bolalar tarbiyachi harakatiga taqlid qiladilar.

Metodik ko'rsatmalar: Keng tilning pastki old tishlar ustida bemaol yotishini nazorat qiling.

«Qorcha uchqunlamogda»

Mazmun: Bolalarga «qor uchqunlari» – ipga terilgan paxta tutamchalari turqutladi. Bolalar, shamolni tasvirlaganlari holda shoshmasdan «qor uchqunlarini» puflaydilar.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning yuzlarini shishirmagan holda uzoq vaqt mobaynida bir tekis puflashlarini nazorat qiling.

2-ish turi:

Maqсад: Artikulyatsiya apparati harakatlarini aniqlash, alohida ajratilgan «S» tovushini to'g'ri talaffuz etish. Nufqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish, uzoq vaqt davomida og'izdan nafas chiqarishni mashq qilish.

«Nasos»

Mazmun: Tarbiyachi deydi: «Bolalar velosipedda sayr qilishga qaror qilishgan edi, lekin uning g'ildiragining dami chiqib ketibdi. Ular nasoslarni olib, g'ildiraklarni damlashga kirishdilar. Nasosdan chiqayotgan havo huushak chalmogda: ssss...sss...Barchamiz birgalikda g'ildiraklarni damlaymiz. Bolalar ana shu harakatlarga taqlid qiladilar, tarbiyachi bilan birgalikda «s» tovushini cho'zib aytadilar.

Metodik ko'rsatmalar: Bolalarning tovushni aniq, to'g'ri va cho'zib aytishlarini nazorat qiling.

3-ish turi:

Maqсад: so'zlarda «s» tovushining to'g'ri talaffuz qilinishini

mustahkamlash, fonematik tinglashni rivojlantirish, soʻzlarning adabiy meʼyorlarga muvofiq holda aniq talaffuz etilishiga erishish.

«Blasanni?»

Mazmuni: Tarbiyachi: «Bolalar, men sizlarga bir nechta savollar beraman, ularga javob berishingizda har biringizning stolingizda yotgan suratlardan foydalanishingiz mumkin. Toʻgʻri javobni topgan bola yoki qiz bu yoqqa chiqadi va suratda tasvirlangan narsa nomini aytib beradi». Keyin savollar boshlanadi: «Nimani minib yurish mumkin?» (Bolalarda samokal, samolyot, avtobus, trolleybus va boshqa narsalarning suratlari mavjud.);

«Doʻkonda nimalar bor?» (sariyogʻ, mineral suv, issiq non); «Hayvonot bogʻida kimlar yashaydi» (sirtlon, yoʻlbars, boʻrsiq, sarlochin va boshq.). Bolalar narsalar nomini toʻgʻri aytilganlardan soʻng, tarbiyachi ushbu soʻzlarda qaysi tovush takrorlanayotganligini soʻraydi.

Metodik koʻrsatmalar: Soʻzlarning aniq talaffuz qilinishini, soʻzlarda «s» tovushining toʻgʻri talaffuz qilinishini nazorat qiling. Agar bolalar tovushni aniqlashda qiyinalsalar, bu holda tarbiyachining oʻzi bir nechta soʻzlarni aytaadi va ularda «s» tovushini ajratib talaffuz qiladi.

4-ish turi:

Maqsad: Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish, yaxshi diktsiyani mashq qilish, «s» tovushini iboralarda bir nafasda aytilishini mustahkamlash, intonatsion ifodalilik bilan ohisa surʼatda soʻzlash qobiliyatini tarbiyalash.

«Pochtalon»

Mazmuni: Pochtalon bolalarga syujetli suratlarini targʻatadi. Har bir bola suratga olgach, uni boshqa bolalarga koʻrsatadi va unda nimalar chizilganligini aytaadi. Masalan, mana bunday suratlar turkumi foydalaniladi: bogʻda skameyka turibdi, samolyot oʻrmon ustidan juda balandda uchib oʻtmoqda, it shoʻrva ichmoqda va h.k.

Metodik koʻrsatmalar: Bolalarning aniq, baland va bir nafasda soʻzlarni nazorat qiling. 5 yoshdan 7 yoshgacha.

1-ish turi:

«V-f» tovushlari.

Maqsad: «v» va «f» tovushlarini farqlash, ularning toʻgʻri talaffuz qilinishiga erishish. Ogʻizdan davomli nafas olish, ovozni ixtiyoriy ishga sola olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

«Yozni yoki qish?»

Mazmuni: Tarbiyachi: «Yozda quyosh nur sochadi, mayin va iliq shamol esadi. U shunday esadi: ff... Qishda sovuq boʻlib, kuchli shamol

esadi, u shunday ovoz chiqaradi: vvv...». Tarbiyachi dastlab bolalarga mayin shamol qanday esishini, soʻngra esa – kuchli shamol qanday esishini koʻrsatib berishni taklif qiladi.

Soʻngra tarbiyachi «f» tovushini, keyin – «v» tovushini davomli talaffuz qiladi, bolalar esa qaysi fasl ekanligini, yaʼni qishni yoki yozligini aniqlashlari lozim.

Metodik koʻrsatmalar: Bolalar «f» va «v» tovushlarini bir nafasda toʻgʻri va davomli talaffuz qilishlarini nazorat qiling. «f» va «v» tovushlarini talaffuz qilishda pastki lab yuqori qatoridagi tishlar bilan birga darcha hosil qilishi va undan havo chiqishini, ayni paytda «f»ni talaffuz qilishda havo sekin chiqishi, «v» tovushini aytishda esa kuchli bosim ostida chiqishini koʻrsating.

2-ish turi:

Maqsad. Soʻzlarda «f» va «v» tovushlarining farqlanishiga, ushbu tovushlar qatnashadigan soʻzlarning aniq talaffuz qilinishiga erishish. Fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

«Koptokni uzat»

Mazmuni. Bolalar doira hosil qiladilar. Koptok tarbiyachida turibdi. Bolalarga koptokni bir-biriga uzatishda «v» yoki «f» tovushini aytish vazifasi qoʻyiladi. Koptokni olayotgan bola esa ushbu tovushlardan biri ishltirok etadigan soʻzni aytishi zarur.

Metodik koʻrsatmalar. Oʻyinlarni oʻtkazishda bolalarga zarur soʻzlarni esga olishlari uchun vaqt berish zarur.

3-ish turi:

Maqsad. Bolalarga iborali nutqda «v» va «f» tovushlarini aralashitirib yubormasdan, toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrgatish.

«Kimga nimani berish kerak?»

Mazmuni. Tarbiyachi bolalarga oʻgʻil bolalar va qizlarning «f» yoki «v» tovushli ishltirok etadigan ismlarini aytishni taklif qiladi. Soʻngra u deydi: «Valida va Farrux xonani yigʻishtirmoqdalar. Valida nomida «v» tovushli ishltirok etadigan narsalarni yigʻishtiradi, Farrux esa nomida «f» tovushli qatnashadigan narsalarni yigʻishtiradi». Tarbiyachi bolalarga «v» yoki «f» tovushli narsalar tasvirlangan suratlarini targʻatadi (vaza, kofa, fartuk, samovar va h.k.). Har bir bola narsaning nomini aytaadi va uni kim olishi lozimligini aytaadi. Masalan: «Mening suratimda kofa tasvirlangan. Kofani Farrux yigʻishtiradi».

Metodik koʻrsatmalar: Bolalarning «v» va «f» tovushli suratlarini toʻgʻri tanlashlarini hamda soʻzlarni aniq va baland ovozda aytilishlarini nazorat qiling.

XULOSALAR:

«Nutq madaniyati» atamasi ko'p qirralidir. 1-uni keng ma'noda tushunish mumkin, unda u «nutq madaniyati» sinonimiga ega bo'ladi (bu o'rinda u namunaviy husnixat matnlarini va umuman olganda, til tizimining potentsial xususiyatlarini ko'zda tutadi); 2-tor ma'noda, nutq madaniyati — bu kundalik, og'zaki va yozma mulqot sharoitida til xususiyatlari hamda imkoniyatlarini aniq yuzaga chiqarishdir; 3-nutq madaniyati — bu mustaqil lingvistik fanidir.

Nutq madaniyati — og'zaki va yozma adabiy nutq me'yorlarini (talaffuz, urg'u, grammatika, so'zni qo'llash qoidalari va boshq.), shuningdek nutq maqsadi va tarkibiga muvofiq holda til vositalaridan foydalana olish qobiliyatini o'zlashtirish.

Lingvistik adabiyotlarda odatda, adabiy tilni o'zlashtirishning ikki bosqichi haqida, ya'ni: nutqning to'g'riligi va nutqiy mahorat haqida aytilish qabul qilingan.

Maktabgacha yoshda nutqda tovush madaniyatini tarbiyalash vazifasi bu — bolalarda so'zdaagi tovushlarni sof va tushunarli qilib talaffuz etishni, so'zlamni o'zbek tili orfoepiyasi me'yorlariga muvofiq holda to'g'ri talaffuz qilishni, aniq talaffuz qilishni (yaxshi diktsiya) hamda nutq ifodaliligini tarbiyalashdan iborat.

Bolalarning tovush artikulyatsiyasini o'zlashtirish jarayoni ancha davomli bo'lib, u 5-7 yilga cho'zilibadi.

Agarda bolalarga o'z vaqida va muntazam ravishda o'rgatilsa ular hech bir qiyinchiliksiz barcha prosodemalarni (intonatsiyalarni) o'zlashtirib olishlari mumkin. Intonatsiyalarning 6 ta turi mavjud: sanash intonatsiyasi, qarana-garshi qo'yish, chaqirish, ogohlantirish (yoki ikki nuqta), kirish, ajratib qo'yish.

O'zbek tilining fonetik va fonologik vositalari ravon nutqda bir vaqtning o'zida foydalanilmoqda.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash nutqning boshqa jihatlari ham, ya'ni: lug'at, ravon, grammatik to'g'ri nutqni rivojlantirish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Nutqiy rivojlantirishning dastlabki bosqichida tinglash qobiliyatiga alohida o'rin beriladi (garchi asosiy mazmun yuki yuqori tovushni tinglay olish qobiliyati zimmasiga tushsa ham).

Yaxshi rivojlantirilgan nutqni tinglash qobiliyati ona tilining barcha tovushlarini aniq, tushunarli va to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlaydi, so'zni talaffuz qilish balandligini to'g'ri boshqara olish, ohista sur'atda, imonatsion ifodali so'zlash imkoniyatini beradi.

Artikulyatsiya apparati organlarining yaxshi harakatchanligi, yaxshi tinglash qobiliyati bolaning tovush talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish

imkonini beradi.

To'g'ri nutqiy nafas olish normal tovush vujudga kelishini ta'minlaydi, tegishli nutq balandligiga, pazualarga aniq rioya qilishni ta'minlash, nutqning bir tekisligini va imonatsion ifodalilikni saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

O'voz sifati nafas olish, o'voz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. 7 yoshgacha bola ona tilning barcha tovushlarini adabiy til me'yorlariga muvofiq holda talaffuz qilishni o'rganib olishi shart.

Diktsiya (tovushlar, so'zlar, iboralarni to'g'ri talaffuz qilish) artikulyatsiya apparati faoliyatini rivojlantirish va takomillashirish bilan bir vaqtda asta-sekin shakllantiriladi.

Pedagog (bola atrofidagi kattalar) bolalarning adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshirishlari, barcha xatoliklarni to'g'ri talaffuz namunalari ko'rsalgan holda bartaraf etishlari lozim.

Maktabgacha yoshda barcha bolalarda so'zlar ancha tiniq talaffuz etiladigan ohista nutq sur'atini shakllantirish darkor.

Intonatsiya — bu jaranglayotgan nutqqa oid barcha ifoda vositalarining murakkab majmui bo'lib, uning yordamida mulqot jarayonida fikrlar va ifodalarni, shuningdek emosional-iroda munosabatlarni aniqlashirish amalga oshiriladi.

Bolalar nutqning imonatsion ifodaliligi usidagi ishlar asosan taqjld yo'li bilan amalga oshiriladi.

Nutqni rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni 3 ta bosqichga bo'lish mumkin: 1-bosqich — 1 yili 6 oydan 3 yoshgacha; 2-bosqich — 3 yoshdan 5 yoshgacha; 3-bosqich — 5 yoshdan 7 yoshgacha.

1-bosqichda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish katalarining bolalar bilan muntazam mulqoti orgali amalga oshiriladi. Asosiy vazifa — tinglash qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borish, artikulyatsiya apparati organlarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat. Bunda har xil tovush taqjdlarini o'zida jamlagan o'yinlar, sh'rlar, qo'shiqlar, hikoyalardan foydalanish mumkin.

2-bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash tovush talaffuziga doir ishlarni olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy vazifa — bolalarda

fonematik tinglash va ona tilning barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni aniq hamda tushunari qilib talaffuz etish; ovoz balandligini vaziyatdan keilib chiqqan holda boshqarish qobiliyatini tarbiyalash, so'zlarni ulardagi urg'ularga aniq rioya qilgan holda to'g'ri va aniq talaffuz qilishdan iborat. Ayni paytda tovush taqdidan foydalanish darkor. Ona tilidagi barcha tovushlarni mashq qilish navbati bilan bir-birini almashiruvchi to'g'ri turmi ko'zda tutadi: artikulyatsiya apparati organlarini tayyorlash, ajratilgan tovushni talaffuz qilishni aniqlashirish va ushu tovushni boshqalari ichidan ajrata olish, iborati nutqda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash.

3-bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashni bolalar tomonidan ko'p hollarda aralashirib yuboriladigan tovushlarni (shuvillovchi, hushstaksimon, jarangli, jarangsiz va boshq.) tabaqalashirishga doir ishlar bilan bog'liq holda amalga oshirish lozim. Bunda asosiy vazifa nutqiy tinglashni yanada takomillashirish, aniq, to'g'ri, intonatsion ifodalii nutq ko'nikmalarini mustahkamlash.

Tabaqalashirish ajratib qo'yilgan tovushlar bo'yicha ham va ayni paytda so'zlar hamda iborali nutqlar bo'yicha ham amalga oshiriladi. Bu esa bir vaqtning o'zida bolalarda nutqiy nafas olish, diktsiya, intonatsion ifodalilik, ya'ni nutq tovush madaniyatining barcha qirralarini takomillashirish imkonini beradi.

Har qanday tovush juftligini tabaqalashirish uch turdagi ishni amalga oshirishni ko'zda tutadi: ajratib qo'yilgan tovushlarni tabaqalashirish; so'zlarda tovushlarni tabaqalashirish; nutqda tovushlarni tabaqalashirish.

Tovushlarni tabaqalashirish uchun materiallarni she'rlar, hikoyalar, tez aytilishlar orgali berish va bir vaqtning o'zida bolalar bilan nutq sur'ati, diktsiya, ovozdan to'g'ri foydalana olish, so'zlarni adabiy me'yorlarni hisobga olgan holda talaffuz qilishni mashq qilish lozim.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Nutq madaniyati» atamasi nimani anglatadi?
2. Bolalar bog'chasida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash borasidagi vazifalarni aniq misollar orgali tushuntirib bering.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarining qaysi bo'limlarini bilasiz?
4. Bolalarning nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirishga doir ishlar mazmunini aniq misollar yordamida tavsiflab bering.
5. Artikulyatsiya apparati harakatlanligini qanday qilib rivojlantirish

mumkin?

6. Nutqiy nafas olishni rivojlantirish borasidagi ishlar nutq uchun qanday ahamiyatga ega? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?

7. Ovoz ustidagi ishlarni qanday amalga oshirish lozim?

8. Ona tilning barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish qanday ahamiyatga ega? O'z javobingizni aniq misollar yordamida asoslang.

9. Diktsiya ustidagi ishlarni qanday qilib amalga oshirish lozim? 10. Orfoepiya ustidagi ishlar nimani anglatadi?

11. Bolalar bilan nutq sur'atiga doir ishlarni amalga oshirish shartmi? Qaysi maqsadda va qanday qilib?

12. Nutqning intonatsion ifodaliligi nimani anglatadi? U mulogotda qanday ahamiyatga ega?

13. 1-bosqichda (1 yil) 6 oydan 3 yoshgacha) nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash jarayonida qaysi metod va usullardan foydalanish lozim?

14. 2-bosqichda (3 yoshdan 5 yoshgacha) qo'llaniladigan ishlar turlarini tavsiflab bering.

15. 3-bosqichda (5 yoshdan 7 yoshgacha) nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga doir ishlar mazmunini va metodini tavsiflang.

16. Nutqning tovush madaniyati ko'nikmalarini amaliyotda qanday qilib tarbiyalash lozim?

BOLALAR LUG'ATINI BOYITISHDA TA'LIMIV O'YINLAR.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy o'yinlar va ularning ahamiyati.
2. Lug'atni boyitish uchun yordam beradigan ta'limiy o'yinlarning turlari.
3. Bolalar lug'atini boyitishda ta'limiy o'yinlarni tanlash, o'qkazish va tahlil qilish.

Bolalarning lug'ati ularga atrofdagi olamni tanishtirish bilan bir vaqtda o'sib boradi. Lug'atni shakllantirish jarayonida tarbiyachi bolalarning psixologik jarayonlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini: sezgi, diqqat-e'tibor, xotira, fikrlash, (kuzatish) kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Umumiy pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish bilan birgalikda bolalarning hissiyotlari va xulq-atvori, madaniy-gigienik ko'nikmalari, axloqiy tasavvurlari va hatto-harakatlari, estetik tuyg'ulari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ushbu vazifalari lug'at ishlarini o'qkazishda nazarda tutiladi. Kelgusida lug'at ishlarining muayyan usullari va metodlarini ko'rib chiqqan holda biz bu umumpedagogik masalalarga to'xtalib o'tirmaymiz.

Lug'at ishlarining metodi – bu:

Lug'atni boyitish metodlari: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo'lgan yoki juda kam tanish bo'lgan suratlarni ko'rsatish; badiiy asarlarni o'qish, diafilmlar va kinofilmlar (ilmiy-ommabop va hujjati filmlar) ko'rsatish.

Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish: bolalarga tanish mazmundagi o'yinchoqlarni, suratlarni ko'rib chiqish, didaktik o'yinlar.

Har bir bolaning leksik zahirasi to'ldirish uni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ro'y beradi: so'z bolaning o'zi belgilagan (nuxsa ko'chirgan) narsa yoki harakati tasavvur qilishi bilan bir vaqtga xo'ziraga kiradi.

Bolaning ona tilidagi so'zni o'zlashtirish jarayoni ushbu so'zlarga mos keluvchi narsalarni «adqiq qilish» bilan bir vaqtda ro'y beradi: bola narsalarni ko'zdan kechiradi, qo'l tekizadi, ushlab ko'radi, siypalaydi, uning qanday ovoz chiqarishiga quloq tutadi, ta'mini ko'rmoqchi bo'ladi, hidlab ko'radi. Bola o'z diqqat-e'tiborini jamlagan narsa uning ongiga barcha beshta sezgi – ko'rish, tinglash, hidlash, ta'm, ushlab ko'rib, sezish orqali kiradi. Dunyoni bu kabi sezgilar orqali anglash bolaning emosional dunyosini rivojlantiradi; u nafaqat keskin holatlarni («ajoyib») - «rasvo») boshdan o'qkazishga, balki barcha

oraliq his-tuyg'ularni sezishga qodir bo'ladi.

Narsani sezgi bilan qabul qilish so'z yordamida bola xo'zirada ushbu narsa haqidagi tasavvur sifatida muhrlanib qolganidan so'ng uning nomini atovchi so'z bolada eng avvalo u mazkur narsa bilan bevosita to'qnash kelganida boshdan o'qkazgan his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Masalan, archa so'zi. Bola bu so'zni eshitishi bilan uning ilgari his qilgan barcha his-tuyg'ulari darhol jonlanadi: u o'z xayolot dunyosida muayyan archani, uning yashni barglarini ko'radi, deyarli uning hidini tuyadi va h.k.

So'zni bu tarzda qabul qilish sherry qabul qilish deyiladi. Agarda tarbiyachi bolaga ilk yoshdan boshlab ona tilidagi so'zlarni ularning butun sherry ifodasida o'rgatib kelgan bo'lsa (ya'ni, ularni qabul qilishning his-tuyg'uni negizi haqida qayg'ursa), bu holda bolada insonga nafaqat o'zi ijod qilishi uchun, balki shoiriarning ijodini tushunish uchun ham zarur bo'lgan shoirlik qobiliyati rivojlanadi.

Bola so'zning «his-tuyg'uni asosini» o'zlashtirib olganidan so'ng u uning umumlashtiruvchi ahamiyatini tushunishga qodir bo'ladi.

Aynan shuning uchun ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atini boyitish ularni atrofdagi maishiy hayot, tabiat, kishilar mehnati, ularning ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish jarayonida uyushtirilishi zarur. Ayni paytda tarbiyachi (va bola atrofdagi barcha kattalar) bola bilan grammatik jihatdan rasmiylashtirilgan ravon nutqda (ya'ni oddiy nutqda, chunki bir-biriga bog'lanmagan so'zlar to'planini nutq deb bo'lmaydi) mulqotot qilishlari lozim. Pirovardida, bola kattalar nutqidan eshitgan ayrim so'zlarni o'zi ajratadi.

Bola hayotning 3-yilida bolalar «birinchi savollar davri» boshdan kechiradilar. Bunda ularning atrofda ko'rgan barcha narsalar nomlarini bilib olishga intilishlari paydo bo'ladi: «Kim bu?», «Ismi nima?», «Bu nima?», «Nima uchun?».

Ushbu yoshda bolaning qiziquvchanligi eng avvalo «lingvistik» tushga ega bo'ladi: bunda bolani ushbu so'zlar bilan ataladigan narsalar mohiyati qanchalik qiziqirsa, so'zlar ham shu darajada qiziqtiradi. Bola bilan erkin mulqotot chog'ida uning savollariga javob qaytarish uchun tarbiyachi bolaga uchragan va e'tiborini o'ziga jalb qilgan narsa nomini aytilish orqali bola lug'atini boyitadi. Chunonchi, narsa belgilari (sifat) nomlarini; harakat va holatni (fe'llar, sifatioshlar, sifatiosh va ularning ravishlik belgilari) bilib oladi va esda saqlab qoladi.

Bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan narsalar nomlarini bolalar ular tasvirlangan suratlarni ko'rish orqali bilib oladilar. Insonning narsani uning

tasviri (modeli) bilan oson taqdoslashga qodirligi - lugʻma qobitilaydi.

Bola juda erta yoshdan boshlab ishliyoq bilan oʻz koʻrib turgan narsalar rasmlarini chizishni boshlaydi, bunda u chizgan rasmlari koʻrgan narsasiga oʻxshashiga ich-ichidan ishonadi (ayni paytda uning oʻzi aytgan dastlabki soʻzning tovush tarkibi u kattalardan eshitgan soʻzlar tovushiga oʻxshashligiga ishonchi komil).

Shunday qilib bola oʻz nutqini kattalar bilan jonli nutqiy mulogorda boyitadi, shu bilan birga u mazkur mulogot orqali haqiqatda kuzatayotgan yoki suratlar asosida tasavvur qilayotgan narsalari nomlarini bilib oladi. Pirovardida, lugʻat ishlari real obyektlar yoki suratlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Ushbu metod barcha yosh guruhlarda qoʻllaniladi. Narsalar bilan oʻynash chogʻida bolalar ularning joylarini oʻzgaritadilar, har tomonga tashlaydilar, suradilar, ushlab koʻradilar, yurgʻizadilar, narsalarni kuzatadilar va ularning sifati, harakatini aytib beradilar. Ayni paytda tarbiyachi bola bilan unga yoʻnaltiruvchi savollar bergan holda soʻzlashishi lozim. Bola javob qaytarar ekan, tarbiyachi oʻz savoli orqali aytib berayotgan soʻzlarni takrorlaydi. Shu tariqa bolaning leksikasi kengayadi. Ayniqsa, syujetli-rolli «rejissyorlik» oʻyinlarida, sahnalashirish jarayonida nutqni rivojlantirish uchun juda koʻplab qulay vaziyatlar yuzaga keladi.

Rolli oʻyinda bola oʻzi kuzatgan yoki hikoyalar orqali bilgan va esda saqlab qolgan kattalarning turli vaziyatlarini takrorlaydi. Bola kattalarning ana shunday vaziyatlardagi harakatidan va shu bilan birga ularning nutqidan koʻchirib oladi.

«Rejissyorlik» oʻyinida bola oʻziga rol olmaydi, aksincha u ushbu syujetda rollarni oʻyinchoqlar oʻrtasida taqsimlaydi: syujetlar — bolalar bogʻchasi, hayvonot bogʻi va boshq. Tarbiyachi bolaning mavjud hayotiy tajribasini hisobga olgan holda aytib, yordamlashib turadi.

Sahnalashirish oʻyinida bola oʻziga tanish erak qahramonlaridan biri rolini oʻynaydi, oʻyin jarayonida u qahramon soʻzlarni takrorlaydi va shu tariqa oʻz nutqini boyitadi.

Syujetli oʻyinlar oʻzlashirilgan til materialini mustahkamlashda bolalarga ajabiy mashq sifatida xizmat qiladi. Bolalar ataylab oʻz oldiga muayyan hayotiy vaziyatlarda kattalardan eshitgan nutqini yoki erak qahramoni nutqini aniq berishni maqsad qilib qoʻyadilar.

Harakatchan oʻyinlar, qoʻlda asosidagi oʻyinlar yod olingan sanogʻ shertlar, qoʻshiqchilari bilan bolalar nutqini boyitadi. Yod olish tarbiyachi nutqiga taqrid qilish jarayonida roʻy beradi, bu oʻyinlarni tarbiyachi bolalar bilan birga

oʻynaydi va dastlab oʻzi qiziqarli, sanogʻ shertlarni aytadi, qoʻshiq kuylaydi.

Bola u yoki bu narsa nomini belgilovchi soʻzni (baʼzan, bir marra eshitib) tez va mustahkam (umrbod) esda saqlab qoladi, ammo bu faqat tarbiyachi soʻzlarni talaffuz qilishning metodik qoidalarga rioya qilgan taqdiridagina roʻy beradi. Yarni, u:

etari darajada baland ovozda soʻzlashi;

aniq talaffuz qilishi, yaʼni artkulyatsiya organlarini gʻayrat bilan va toʻgʻri ishlatishi; orfoepiya qoidalarga rioya qilishi, bunda u yoki bu soʻz komponentini boʻrtirib

yuboruvchi surʼiy talaffuzdan qochishi lozim.

Soʻzni gapga uning grammatik shakllari imkoniyatlari koʻrinadigan darajada qoʻshish kerak.

Masalan, Bizga ayiqcha mehmon boʻlib keldi. Ayiqchani koʻzlari qora, panjalari katta. Bolalar ayiqcha bilan oʻynashni juda yoqtiradilar.

Bola bu gapni eshitir ekan, «Ayiqcha» soʻzi nutqda oʻzgarayotganini sezib qoladi. Albatta, tarbiyachi kichikintoyga grammatik atamalarini maʼlum qilmaydi, ammo bir vaqtning oʻzida unda lugʻat boyishi bilan birga grammatik sezgi ham rivojlanadi.

Biroq, bolalar har doim ham atrofdagi narsalarga qiziqish bildiravermaydilar, va har doim ham ularning nomlarini soʻrayvermaydilar. Tarbiyachi bolalar diqqat-eʼtiborini narsalarga, ularning sifatlarga, harakatlarga jalb qilishi zarur. Buni muntazam ravishda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Hafta davomida bolalar quyidagi miqdordagi soʻzlarni oʻzlashirishlari mumkin:

3 yoshda	-5 ta soʻz
4 yoshda	-10 ta soʻz
5 yoshda	-15 ta soʻz
6 yoshda	-20 ta soʻz
7 yoshda	-30 ta soʻz

Bolalarda lugʻatni shakllantirishga doir mashgʻulotlar turlari

Lugʻat ishlarga oid dasturlarni amalga oshirish mashgʻulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim uch xil koʻrinishdagi mashgʻulotlardan tashkili topadi:

Lugʻat ishlari atrof-olamdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va hodisalar doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan mashgʻulotlar (ekskursiya, narsalarni namoyish qilish va h.k.);

Lugʻat ishlari bolalarning atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga tayyanadigan mashgʻulotlar (sifatlar, xususiyatlar,

o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish);

Umumlashtirishlar jarayonida lug'at ishining hal qiluvchi vazifasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat bo'lgan mashg'ulotlar.

Ushbu barcha mashg'ulot turlarida lug'atni rivojlantirish bilish faoliyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladi. Bundan mashg'ulotlar o'kazishni tashkil etish va ularning metodikasiga oid umumiy talablar kelib chiqadi:

Lug'atni rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan yagonaligi (qabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash).

Nutqiy va bilish faoliyatining aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil etilishi.

Nutqiy va bilish faoliyatini tashkil etish uchun asos sifatida ko'rganaviylikning mavjudligi.

Lug'at ishining barcha vazifalarini hal etish har bir mashg'ulotda yagonaligi.

Bolalarni predmetli olam bilan tanishtirishga oid mashg'ulotlarda ish vazifasi qanday hal etiladi? Mazkur mazmun uch xil turdagi mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

1. Predmetlar bilan birlamchi tanishtirishga doir mashg'ulotlar

Mazkur mashg'ulotlarda tartyachi predmetlar va ularning tasvirini, ular bilan bajariladigan harakatlarni namoyish qiladi, «Sayrga chiqish uchun qo'g'irchoqni kiyintiramiz», «Ayiqchaga choy ichiramiz» toifasidagi o'yin mashg'ulotlarini o'kazadi va h.k.

Ushbu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi — bolalar nutqiga narsalar va ular bilan bajariladigan ayrim harakatlar nomlarini kiritishdan iborat. Ushbu vazifani faqat qabul qilishni ko'g'ir tashkil etish orqaligina hal etish mumkin.

Tartyachi bolalar diqqat-etiborini narsalar bilan bajariladigan harakatlarga jalb qilar ekan, bolalarning ularning nomlarini aytishlariga zo'r berib harakat qiladi: takrorlashni, savollarga javob bershni taklif qiladi, so'zlovchilarni rag'batlantiradi, bolalarni birgalikda va alohida-alohida holda so'zlashga undaydi.

Bu turdagi mashg'ulotlarda o'yin usullaridan keng foydalaniladi: narsalarning kutilmagan holatda paydo bo'lishi, ular bilan o'yin harakatlari, shuningdek, o'yin aksessuarlari: «mo'jizali qopcha», «sehrli qalpoqcha», jo'nama, o'yinchoqlar yashaydigan uycha, harakatlar bajariladigan televizor va h.k.

Bolalarning narsalar va ular bilan bajariladigan harakatlar nomlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun ularning har birining faolligi talab etiladi, shuning uchun bolaning yoshi ganchalik kichik bo'lsa, bunday mashg'ulotlarni shunchalik ko'p tashkil qilish va ularni bolalarning kichik guruhlari bilan

o'kazish zarur.

2. Bolalarning predmetlarning xususiyatlari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga oid mashg'ulotlar

Predmetlarni ko'zdan kechirish mashg'ulotlari (birinchi mara mazkur mashg'ulotlar E.I.Tixeva tomonidan ishlab chiqilgan). Ushbu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi qismlar, detallar va narsalarning vazifasini ajratib ko'rsatish, ularning sifat va xususiyatlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Ko'zdan kechirish mashg'ulotlari metodikasining asosini bolalarning qismlarni ajratib ko'rsatish, ularning vazifasi va foydalanishga yo'naltirilgan faol harakatlarni yo'lga qo'yish tashkil etadi. Jadal faoliyat narsalar haqidagi bilimlarni bolalar uchun ahamiyatli qiladi va so'zni narsa qismi, uning detallariga aniq qiyoslashni ta'minlaydi.

Bunday mashg'ulotlar uch, to'rt va besh yoshli bolalar bilan o'kaziladi. Ushbu mashg'ulotlardagi narsalar to'plamni turlicha bo'lishi mumkin, biroq narsa: bolaning atrof-olamda yo'l topa olishi uchun uning faoliyati uchun ahamiyatli bo'lishi; bola harakat harakat qilishi lozim bo'lgan qismlarga ega bo'lishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning borishiga qarab bunday turdagi mashg'ulotlar harakat faolligini qisqartirish va ko'rish tahlilchisiga tayanishni kuchaytirish hisobiga qiyinlashtirib boriladi, bu esa mashg'ulotlar ishtirokchilarining sonini butun boshli bir guruhgacha oshirish imkonini beradi.

Bolalar lug'atini rivojlantiruvchi mashg'ulotlarning boshqa bir turi narsalar sifati bilan tanishtirish mashg'ulotlaridir.

Mazkur mashg'ulotlarni o'kazishda pedagog quyidagi qoidalarini hisobga olishi lozim: Lug'at ishlari narsalarning sifat va xususiyatlarini ajratishga tayanadi, shuning uchun

tartyachi ularni sinchiklab sensor tekshiruvdan o'kazishni tashkil qilishni bilishi lozim. Bolalarda tekshiruv usullari ushbu mashg'ulotlarda o'qitish jarayonida shakllanadi.

Tekshiruv usullarini shakllantirish tartyachining tekshiruv harakatlardan foydalanishga nisbatan ajratib olinayotgan sifarga mos bo'lgan aniq ko'rsatmalarini talab qiladi (masalan — bosib ko'ring — qattiqlikni ajratish uchun, siliab ko'ring — yumshoqlikni ajratib olish uchun va h.k.).

Har bir sifat va xususiyatni ajratib olish, uni yo'lidosh xususiyatlaridan xalos qilishga uni qarama-qarshi xususiyat bilan taqqoslash orqali nisbatan samarali erishiladi. Masalan: qattiq-yumshoq, og'ir-engil, shaffof-no-shaffof. Bu qattiqlikni sifat sifatida yo'lidosh temperatura sezgilaridan nisbatan aniq

ajratib olish, qabul qilinayotgan narsa yuzasining silliqligini yoki g'adir-budurini his qilish imkonini beradi.

Narsaning sifat va xususiyatlari bolalar tomonidan anglanishi hamda o'zlashtirilishi uchun ularni ahamiyati qilish lozim, ya'ni ularni mahsuldor-mazmunli faoliyatga qo'shish zarur, buning muvaffaqiyati mazkur sifatlarni hisobga olishga bog'liq bo'ladi. Bu natijaga erishish boladan izlanayotgan sifat yoki xususiyatni ajratib olish va uni hisobga olishni talab qiladi.

Mashg'ulotlarda lug'at ishlari vazifasini muvaffaqiyatli hal etish ko'rgazmali materialni tanlashga bog'liq bo'ladi. Shunday narsalarni tanlash zarurki, toki unda ajratib olinayotgan sifatlari yorqin tasvirlansin, chalg'ituvchi sifatlari esa (yorqin ranglarga bo'yash, harakatlanuvchi qismlarining mavjudligi, o'yin borasida qiziqarliigi va boshq.) iloji boricha kamroq bo'lsin.

Bunday turdagi mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolaning bilish mantig'ini talab qiladigan muayyan tuzilmaga ega bo'ladi:

I-qism — U yoki bu faoliyatga oid vaziyatda narsa sifatini ajratib olish.

II-qism — Bolalarga tekshirish harakatlarini o'rgatish, har bir bola tomonidan zarur sifatlarni ajratib olish. Uning asosida mazkur sifatni belgilovchi yangi so'z kiritiladi.

III-qism — Bolalarga turli-tuman narsalar sifatini ajratish va yangi so'zlardan foydalanishni mashq qildirish. Bolalar olgan bilim va ko'nikmalar keyingi mashg'ulotlar hamda kundalik hayotda mustakamlanadi.

Ushbu turdagi mashg'ulotlarni murakkablashtirish ajratilayotgan sifat va xususiyatlar to'plamini oshirish yo'lida olib boriladi. Eng turlicha to'plam bolalarga turli xil materiallarni tanishtirishda ro'y beradi. Bunday mazmundagi mashg'ulotlarga nisbatan metodik talablar shundayligicha qoladi, biroq ularning murakkabligi shundaki, bunda sifatga u yoki bu xususiyatlar belgilari sifatida qaraladi.

Narsalarni taqqoslashga oid mashg'ulotlar bolalar lug'atini narsalar, ularning sifatlari va xususiyatlari haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish asosida shakllantirish mashg'ulotlari tizimida yakunlovchi hisoblanadi.

Bunday mashg'ulotlar narsalarning qismlari, detallarini ko'rish, ularning sifat va xususiyatlarini ajrata olish borasida shakllantirilgan qobiliyatga tayanganlari tufayli ular katta guruhda va maktabga tayyorlanayotgan guruhlarda o'qkaziladi.

Lug'at ishining vazifalarini hal etish borasida ushbu mashg'ulotlarning maqsadi narsalar ajratishni tavsiflash uchun nisbatan aniq so'zlarni tanlash qobiliyatini shakllantirishdir. Mashg'ulotlar muvaffaqiyati, ularning

samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarga bog'liq:

Taqqoslash uchun narsalarni tanlash. Ular etarli miqdorda taqqoslanayotgan belgilarga ega bo'lmog'ini lozim: farqlilik va umumiylik belgilari (rang, shakl, miqdor, qismlar, detallar, materialning vazifasi va h.k.);

Taqqoslashning rejaliligi. Tarbiyachi bolalarni narsalarni umumiy taqqoslashdan (vazifasi, rangi, shakli, miqdoriga qarab) asta-sekin dashtab farqlariga qarab, so'ngra esa o'xshashligiga qarab qismlarga ajratish va taqqoslashga yo'naltiradi. Taqqoslash umumlashtirish bilan nihoyasiga etadi, bunda har bir narsaning farqlovchi belgilari ajratiladi.

Narsalarni tanlash. Bunday mashg'ulotlarda tarbiyachining taqqoslashlarni izchil qurish; bolalarning o'zlarini payqamaydigan o'ziga xos xususiyatlarini ko'rish, javobni iloji boricha aniq shakllantirish va zarur so'zlarni tanlashda bolalarga yordam beruvchi savol va ko'rsatmalari ta'limning asosiy usullari hisoblanadi.

Tarbiyachi va bolalarning nutqiy faolligini taqqoslash. Bu erda bolalar ham iloji boricha ko'proq nutqiy faollik ko'rsatishlari zarur. Tarbiyachi o'zining o'z so'zini aniq savollari, ko'rsatmalari bilan ularning aqily va nutqiy faolligini uyg'otadi.

Shunday qilib, narsalar va materiallarning qismlari, sifatlari va xususiyatlari bilan tanishtirishga doir mashg'ulotlar bolalar nutqiga o'zida turli nutq qismlarini: otlar (narsalar va ularning qismlari nomlari), fe'llar (narsalar bilan harakatar nomlari, narsalardan foydalanish, qidruvchilik harakatlari), sifatlarni (sifatlarni nomlari) jamlagan so'zlarning ancha keng va xilma-xil zahirasini kiritish imkonini beradi.

3. Lug'at ishlari vazifasini tushunchalarni umumlashtirish, shakllantirish jarayonida hal etuvchi mashg'ulotlar

Hajmi hamda chalg'itish va umumlashtirish darajasiga qarab turlicha bo'lgan tushunchalar mavjud. Bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bois maktabgacha yoshdagi bolalar faqat sezilarli belgilari etarli darajada aniq ifodalangan hamda ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli fikrlash usullari uchun imkonli bo'lgan tushunchalarnigina o'zlashtiradilar, xolos.

Bolalar bog'chasida tarbiyalash dasturi tur va toifaga oid umumlashtirmalarni shakllantirish talabini o'z ichiga oladi. Toifali umumlashtirishlar dasturda sezilarli belgilarini ajratish va ular bo'yicha umumlashtirishni amalga oshirishni talab qiladi, ammo bu belgilar xususiyatlari, ularning soni cheklangan.

Chunonchi, ko'pincha narsalarning tashqi xususiyatlari turli

umumlashtirmalarning sezilari belgilari bo'lishi mumkin. Xususan: qismlar, shakllar, miqdorlar va h.k. masalan, kreslo stuldan tirsakqo'ygichlari borligi bilan farqlanadi; golf, paypoq uzunligi bilan, dastro'mol, durra – shakli bilan farqlanadi va h.k.

Toifali tushunchalar uchun tashqi belgilar ham, ichki belgilar ham va ayni paytda nisbatan yashirin belgilar yoki ularning guruhleri ham sezilari bo'lishi mumkin.

Masalan, «o'yinchoq», «kiyim» kabi toifali tushunchalarning asosida tashqi belgilarga ko'ra turlicha bo'lgan narsalardan foydalanish usuli yotadi: «sabzavotlar», «mevalar» tushunchalarining asosini esa bir nechta belgilar, ya'ni ulardan foydalanish, ularni inson tomonidan etishtirish usullari va h.k. tashkil etadi.

Tur va toifaga oid tushunchalarni shakllantirish jarayonida narsalar turlari va guruhlarini aniq ifodalovchi yangi so'zlarni kiritish amalga oshiriladi, shu tufayli so'zni aniq qo'llash, narsalarning nomlarini aniq aytilish ta'minlanadi. Bu nutilq mulloqotda qisqalik, aniqlik va o'zaro bir-birini tushunishni ta'minlaydi.

Tushunchalarni va ularga mos keluvchi lug'ani shakllantirishga bag'ishlangan mashg'ulotlar bolalardan narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni: qismlari, shakli, miqdori va vazifasini ko'ra olishni talab qiladi. Shuning uchun ular maktabgacha yoshdagi bolalarning predmetlar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish amalga oshirilgan mashg'ulotlarda olgan bilim va ko'nikmalariga tayanadilar.

Shunday qilib, ushbu mashg'ulotlar lug'ani rivojlantirish ishlarining umumiy tizimiga kiradi va ular boshqa mashg'ulot turlari bilan uzviy bog'liqdir.

Anchayin umumiylik mavjudligiga qararasdan tur va toifa tushunchalarini shakllantirishga oid mashg'ulotlar o'zlarining metodik xususiyatlariga egadirlar, ular tushunchalar mazmuni bilan izohlanadi va asosan to'rt yoshli bolalar bilan o'tkaziladi.

Ushbu mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasida tartibiyachi quyidagilarni hisobga olishi zarur:

Mashg'ulot ko'rgazmali materialga quriladi. Narsalar to'plami ahamiyatsiz belgilari bilan farqlanadigan bir turdagi narsalar va yaqin turlardagi narsalarni o'z ichiga olishi lozim: rangi, shakli, hajmi bo'yicha turlicha bo'lgan daslali piyola, shuningdek stakan, bokal, krujka va h.k., bolalar daslali piyolani shulardan farqlashlari lozim.

Bola o'xshash narsalar guruhidan predmetni tanlab olish zarurati oldida qoldiriladi. U tanlashga sabab bo'lgan belgini ajratgani holda o'z qarorini

asoslashi lozim.

Tanlash zarurati bolaga tushunari bo'lishi lozim. Shu munosabat bilan tanlash vazifasi bola uchun qiziqari bo'lgan faoliyatga, ko'pincha o'yiniga qo'shildi.

Bunday turdagi mashg'ulotlar uchun qo'g'irchoqli o'yin-mashg'ulotlardan foydalanilishi mumkin. Turga oid umumlashtirmalar va tegishli lug'ani shakllantirishga bag'ishlangan mashg'ulotlar metodikasi ham belgilar guruhidan otlarni ajratib olishga yo'naltirilgan. Ammo bu holda turli xildagi narsalar guruhi umumlashtirilishi tufayli, bunday mashg'ulotlar alohida tuzilmaga ega bo'ladi:

I-qism. Bolalarga tanish bo'lgan, mashg'ulot uchun tanlab olingan barcha to'plamni ajratish.

II-qism. Belgilarini umumlashtirish uchun otlarni ahamiyatsizlardan ajratish, narsalar guruhlarini sezilari belgilarga qarab umumlashtirish va ushbu guruhi belgilovchi so'zlarni kiritish (tushuncha ustidagi ishlar).

III-qism. Sezilari belgilarini hisobga olish asosida bolalarning narsalar turlarini tushuncha ostiga olib kelishlarini masbu qildirish.

Bu erda mashg'ulotning turi qismlari uchun ko'rgazmali materiallarni tanlash ham o'ziga xos xususiyatiga ega bo'ladi. Birinchi va ikkinchi qismlar uchun ahamiyatsiz belgilari bo'yicha bir-biridan yaqqol farqlanib turadigan uch-to'rt turdagi narsalar tanlab olinadi.

Mashg'ulotning uchinchi qismi uchun narsalar to'plami ushbu tushunchaga kiruvchi boshqa turlar va nimasi bilandir bir-biriga yaqin bo'lgan, ammo boshqa tushunchalarga kiruvchi bilan to'ldiriladi. Masalan, «sabzavot» tushunchalarini shakllantirishga doir mashg'ulotlarning birinchi ikki qismi uchun shakli, tarmi va rangi bo'yicha farqlanadigan sabzi, piyoz, bodringni olish mumkin. Uchinchi qismi uchun qo'shimcha ravishda kartoshka, karam, qizilcha, pomidor va boshqalar olinadi, farqlash uchun sholg'om nok, qo'ziqorin, mevalar, limon va h.k. beriladi.

Tushunchalar va tegishli so'zlarga bag'ishlangan mashg'ulotlarda birinchi qisim tushirib qoldirilishi mumkin. Bunda birdaniga ikkita ilgari shakllantirilgan tushunchalar bilan ish olib boriladi (masalan, sabzavot va mevalar, kiyim va poyabzal, mebel va idish-ovozqlar va h.k.). Ushbu o'rinda natfagat surat va narsalardan, balki «uchadi-uchmaydi» kabi so'zli o'yin mashqlaridan ham foydalaniladi.

Tushunchalar ustidagi keyingi ishlar ularni tabaqalashtirish, qismlarga ajratish yo'nalishi bo'yicha olib boriladi. Masalan, «transport» tushunchasi tabaqalashtiriladi, va shu asosda yangi so'zlar kiritiladi: transport –havo, suv, er

ustki, er oski transporti; kiyim – qishki, yozgi, mavsumiy kiyimlar; idishlar – choy, emakxona, oshxona idishlari. Bu mazmun maxsus mashg'ulotlarda amalga oshiriladi, biroq bu o'rinda asosiy sezilarli belgini ajratish va uni tushunchaga olib borishdan iboratdir.

Shunday qilib, mashg'ulotlar jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda so'zning tushunchaviy xususiyati shakllanadi, ularning fikrlashi rivojlanadi.

Lug'atni faollashtirish va mustahkamlash maxsus mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar va kundalik mulogot jarayonida tashkil etiladi.

Lug'atni mustahkamlash borasida maxsus ish olib borilayotgan mashg'ulot narsalarni tavsiflash, topishmoqlar aytilish va ularni topish o'rganiladigan mashg'ulotlar hisoblanadi.

Narsalarni tavsiflashga doir mashg'ulotlardan besh, olti, etti yoshli bolalar bilan o'kaziladigan amaliy ishlarda keng foydalanish lozim. Ularni bolalarga tanish bo'lgan «Mo'jizali qopcha» o'yini shaklida o'kazish lozim. Bolalarning diqqat-e'tiborini ko'p sonli belgilar ajratishga yo'naltirish uchun «Kim ko'p ko'radi va aytdi?» ko'rinishidagi o'yin shaklidan foydalanish tavsiya etiladi.

Topishmoq topishni o'rganishga doir mashg'ulotlar alohida o'rin egallaydi. Ushbu mashg'ulotlarning lug'at ishining vazifalarini hal etishdagi qimmatli natijalar ularda narsalar xususiyati haqidagi bilimlar va tegishli lug'atni mustahkamlash ishlari amalga oshirilishida, balki ular bolaga rus tilining obrazli ifodasiga kirib borishda yordam berishidir.

Har bir topishmoq narsaning, uning o'ziga xos xususiyatlarining surati, obrazli tavsifidir. Ayni paytda ko'pincha bunday tavsiflar boshqa narsa orqali beriladi. Shu sababli bola topishmoqni topishi uchun u narsalarning xususiyatlarini bilishi, narsalarni taqqoslay olishi, ulardagi umumiylikni ko'rishi zarur. Topishmoqli mashg'ulotlarni bolalar narsalarning xususiyati bilan tanishganidan so'ng kiritishning sababi ham mana shunda.

Bunday mashg'ulotlarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi imkoniyatlaridan eng yuqori darajada foydalanish uchun ularni o'kazishda quyidagi metodik qoidalarni hisobga olishi zarur:

Topishmoqlar tamlash. Topishmoqlar mazmuniga ko'ra bolalar uchun imkonli bo'lishi lozim, ya'ni u o'ziga xos xususiyatlari bolalarga yaxshi tanish bo'lgan narsalar haqida bo'lmog'i darkor. Shakliga ko'ra eng imkonli topishmoqlar ikki turdagi topishmoqlardir: narsaning nomina aytmagan holda uning o'ziga xos xususiyatlarining bevosita tarifi sifatida qurilgan topishmoqlar (qishda ham, yozda ham bir xil rangdax) va metaforik topishmoqlar, bunda bita

narsaning o'ziga xos xususiyatlari boshqa narsa orqali beriladi (masalan, tipralkan haqidagi topishmoq: «Daraxtlar ostida, archa ostida, yuguray yostiqcha igna ostidax»).

Mashg'ulotlarda bolalarga topishmoqlar javoblarini eslab qolmasdan, obrazli tavsiflar oridan real narsalar va ularning xususiyatlarini ko'ra olishni o'rganishni maqsad qilib qo'yish lozim. Bu quyidagi zaruriyatlarni keltirib chiqaradi: birinchidan, bunday mashg'ulotlarga ko'rganmali materiallarni kiritish, ikkinchidan, so'zli obrazni narsaning aniq xususiyatlari bilan taqqoslashni o'rganish, uchinchidan, javobni obraz talqiniga oid dalil-ishbotlar bilan asoslash.

Topishmoq topishga bag'ishlangan mashg'ulotlar odatda, ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismida narsalarni taqat topishmoqda aks etgan belgilarini ajratilgan holda ko'rib chiqish tashkil etiladi. Ayni paytda o'ziga xos xususiyatlarini belgilash uchun topishmoq elementlaridan foydalaniladi.

Mashg'ulotlarning ikkinchi qismi topishmoq topishga bag'ishlanadi. Bu o'rinda tarbiyachi bolaning topishmoq javobini qanday qilib topganligini so'raydi.

Dastlab turli materialda ikki-uchta ana shunday mashg'ulot o'kaziladi, so'ngra keyingi mashg'ulotlar qiyinlashtirishi lozim.

Tanish narsalar haqidagi topishmoqlarning yangi variantlarini namoyish qilish orqali va namoyishsiz topish ham qiyinlashtirish hisoblanadi. Biroq barcha holatlarda topishmoq topish motivatsiyasi bo'lishi shart. Aynan shu mashg'ulotlarda bolalarga tanish bo'lgan topishmoqlar ham beriladi, eski topishmoqlar takrorlanadi, lekin ular ko'rganmavijiksiz amalga oshiriladi.

Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish maxsus mashg'ulotlardan tashqari mashg'ulotlarga qo'shingan yoki kundalik hayotda o'kaziladigan qator didaktik o'yinlar va o'yin mashqlari jarayonida ham amalga oshiriladi. Lug'atni faollashtirish uchun ayniqsa, maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalar guruhlarida keng foydalaniladigan «Teskarisini ayb», «Buyoqlar», «Bog'bon», «Davom et» kabi so'zli didaktik o'yinlar juda foydalidir. Bitta narsaning turiga oid umumlashtirilmalarga kiruvchi turli qismlari yoki sifatlari nomini aytish bunday davom etish mazmuni bo'lishi mumkin.

Mashg'ulotlardan va didaktik o'yinlardan olingan turli xildagi lug'atdan mustaqil foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning maishiy mulogotida amalga oshiriladi. Bu erda tarbiyachining tungan o'rni mazmuni muhobati yo'lga qo'yish, tarbiyachi nutqiga, uning lug'at tarkibiga nisbatan bolalarning diqqat-e'tibori hamda bolalarning to'plangan lug'atning butun

boyliqidan foydalanishlarini tashkil etishdan iboratdir.

Yuqorida ko'rib chiqilgan narsalar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda lug'atni shakllantirish tartibi dasturiy talablarni amalga oshiradi hamda maktabgacha yoshdagi bolani aqlan va nutqiy rivojlanishni birgalikda amalga oshirishni ko'zda tutadi.

XULOSALAR:

Lug'at ishlarining mohiyati – bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo'lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so'zlarning o'zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan o'quv-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir.

Lug'atni rivojlantirish – bu xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida to'plangan lug'at zahirasini o'zlashtirishning uzoq davomi etadigan jarayonidir.

Lug'atni egallash jarayoni tushunchalarni egallash bilan uzviy bog'liqdir va shu tufayli u o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi: bolalar lug'ati tarkibi; so'zning mazmuni, mohiyatini asta-sekin o'zlashtirish, kattalar lug'atiga qaraganda lug'at hajmining ancha kamligi. Lug'at ishining vazifasi – bu lug'atni boyitish; so'zning ijtimoiy-mustahkamlangan mazmunini o'zlashtirish; lug'atni faollashtirishdir.

Lug'at ishining tamoyillari bu - bolalar lug'atini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va ta'sirchan bilishlariga taylanish; lug'at ishlari mazmunining bolaning asta-sekin rivojlanayotgan atrof-olamni bilish imkoniyatlari bilan bog'liqligidir. Lug'at ishi barcha yosh guruhlarida quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmog'i lozim: Bolani asta-sekin o'rtib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lug'atini kengaytirish; narsalarni sezilari belgilariga qarab farqlash va umumlashtirish asosidagi oddiy tushunchani belgiloovchi so'zlarni o'zlashtirish; atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatlarni belgiloovchi so'zlarni kiritish.

Lug'at ishining etakchi vositasi – ta'limdir. Lug'atni boyitish metodlari bu: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo'lgan yoki juda kam tanish bo'lgan suratlarni ko'rsatish; badiiy asarlarni o'qish, diafilmlar va kinofilmlar (ilmiy-ommabop va hujjati filmlar) ko'rsatishdan iboratdir. Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish metodlari bu – o'yinchoqlar, rasmlarni ko'zdan kechirish, didaktik o'yinlar, so'zli mashqlar va boshq.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Bolalar bog'chasidagi lug'at ishlarining mohiyati nimalardan iborat? 7.
2. So'zning psixologik jihatdan ahamiyatini tavsiflab bering.
3. Bolalarning lug'atni egallash jarayoni qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
4. Barcha yosh guruhlari lug'at ishlari dasturi tarkibini qiyinlashtirish qaysi yo'nalishlarda ro'y beradi?
5. Siz lug'atni shakllantirish borasida qanday mashg'ulot turlarini bilasiz?
6. Har bir mashg'ulot turini aniq misollarda tavsiflang.

SUHBAT TURLARI VA UNING MAZMUNI.

Reja:

1. Suhbat turlari. Suhbat qismlari. Suhbatga tarbiyachining tayyorlanishi va o'zbeki.
2. Suhbatda asosiy o'rgatish usuli orqali savollar berish.
3. Suratlar orqali suhbatlar o'rgatish usullari.

Dars o'quv maqsadi: Talabarga suhbat va uning turlari turli yosh guruhlarida suhbat o'rgatishning maqsadi, suhbat uchun mavzu tanlashga qo'yilgan talablarni o'rgatish

Tayanch so'zlar va iboralar: Suhbat, diologik nutq, kirish suhbat, asosiy va yakuniy suhbat, so'zlashuv, savol-javob, aytib turish, yullovchi savol, tinglash, tushunish, kobitilyat.

Pedagogikada suhbat metodi og'zaki metodlar majmuasiga kiritilgan bulib, barcha ta'lim shakllarida keng kullanuvchi eng samarali metod xisoblanadi. Suhbat metodi anik mavzu yuzasidan bilim va tarbiya berishga yo'naltirilgan savol-javobdan iborat bulib, diologik nutqni o'stirishning eng kulay metodidir. Suhbat metodida bolalar tarbiyachining, tengdoshlarining savollarini tinglab tushunishlari, savolga mos javobni uylashi, fikrni ifodalovchi gapni grammatik jixatdan to'g'ri tuza olishi, gapga mos so'zlarni tanlay bilishi talab etiladi.

Suhbat metodi kadimiy metodlardan biri bulib, Shark komusiy olimlari tomonidan sinalgan, ishonchli metod sifatida talkin etilgan.

Shark mutafakkiri Burxoniddin Zarnuji dars meyorlari, ta'lim berish usullari xakida fikr yuritib kursatmalilik, tajriba metodlari bilan birga suhbat metodini tavsiya etadi. Uning fikricha narsa, buyum, voqea-xodisalar xakida suhbat qilish uning mazmunini tezrok tushunishga imkon yaratadi.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino bolalarni guruhlarda ukutish xakida fikr yuritib, bolalarning yosh xususiyatlarini xisobga olgan xolda suhbat, tushunirish metodidan foydalanish lozimligini, suhbatning ukutish, ta'lim berishda samara berishini talakidlaydi.

Abu Nasr Farobiy fikricha inson tabiatan doimo uziga yakin kishilar davrasida bulish, uzaro suhbatlashish orqali ma'naviy, axlokiy kamolotga erishadi. Bu urinda Farobiy suhbat metodining jamiyat xayotidagi urni, ma'naviy xususiyatini talkin etmokeda.

Suhbat metodida bolalar berilgan savollarni tezda tushunadilar, unga

javobni topish va aytrishda faollik kursatadilar, bolalar uzaro bir-birlarining nutqidagi kamchiliklarni tez paykay oladilar, xatolarni tuzatish imkoniga ega buladilar.

Demak, suhbat biror mavzuga yo'naltirilgan ikki va undan ortik kishilar urtasidagi diologik nutq bulib, u bolalar tafakkuri, xotirasi, diqqati, so'z boyligi, nutqning grammatik tomonini bilishi bilan boglik bulib, nutqiy mulqot vositasi xisoblanadi.

Suhbat metodining asosiy maqsadi berilgan savolni tushunish, unga javob berishga urgatish, shu asosda diologik nutqni o'stirishdan iboratdir. Demak, suhbatni tashkil etish uchun savol tuzish zarurdir.

Suhbat metodining asosiy vazifasi diologik nutqni shakllantirishdan iborat bulib, suhbat uchun mavzu tanlash, u yuzasidan savollar tuzish, savolga beriladigan javobni oldindan uylash kabi jarayonlarni takozga etadi, suhbatga bolalarni tayyorlashni talab etadi.

Suhbat metodi quyidagi turlarga bulinadi.

1. Kirish suhbat.
2. Asosiy suhbat.
3. Yakuniy suhbat.

Kirish suhbat mashg'ulotlarni tashkil etishdan oldin, kuzatish, ekskursiyaga chikishdan oldin tashkil etiladi.

Kirish suhbatining asosiy maqsadi bolalarni mashg'ulot, sayr, ekskursiya, kuzatish jarayonidagi topshiriklarni bajarishga kiziktirish, ular diqqatini jalb etish, ukuv faoliyatini tashkil etishdan iborat buladi. Yarni tarbiyachi kirish suhbatida bolalarning motivatsion-ichki bilish faoliyatini tashkil etadi, kirish suhbatidagi bu faoliyat asosiy suhbatga yul ochadi.

Asosiy suhbat yangi bilim berishga mujjallangan bulib, mashg'ulotning asosiy kismini tashkil etadi, bolalar mavzu bo'yicha bilimlarni suhbat orqali epgallaydilar.

Asosiy suhbat tarbiyachidan suhbat uchun savollarni to'g'ri, anik tuzishni, savollarga bolalar beradigan javobni oldindan uylashni, asosiy suhbatni tashkil etish uchun bolalar tajribalari, tasavvurlarining, mavzuni yoritish dolir ma'lakatlarining etarli bulishini nazarda tutishni talab etadi.

Asosiy suhbatda savol-javob yakka tartibda bulishi muximdir, chunki bunda bolalarning javoblari, fikrlarini aniklash imkonini yaratiladi.

Shuningdek, yakuniy suhbat bolalarning olgan bilim-tajribalarini umumlashtirishni xam nazarda tutadi. Yakuniy suhbat mashg'ulot oxirida yoki chorak oxirida, katta bilim materiallarini urganilgach, bilim-malakalarni umumlashtirish maqsadida tashkil xam tashkil etiladi. Suhbat

mashg'ulotlarini uyushirishda bir kancha usullardan foydalaniladi, bunda eng muxim usul savol berish bulib, barcha suhbat turida eng kup kullaniyadi. Suhbat mashg'ulotlarida ko'rgazmali qurullardan keng foydalaniladi. Chunki ko'rgazmali bolalarning kuzatuvchanligini ortiradi, diqqatini faollashtiradi, bilim va malakalarini mustaxkamlaydi, bu esa Prezidentimiz I.A. Karimov. aytganlaridek "Yuksak akl-zakovat saxoiyatini shakllanirishni maktabgacha ta'lim tizimidan boshlash lozim"ligini tula isbotlaydi.

Mavzuuni mustaxkamlashga doir test savollari.

1. Suhbat metodi xakidagi to'g'ri xukmi aniklang
a) tushuntirish, bayon qilish, xikoya qilish
v) savol-javob, so'zlashish, so'zlab berish
s) savollarga javob berish, ukib berish
d) mavzuga doir savol-javobdan iborat bulgan dialogik nutq
e) barcha javoblar noto'g'ri.
2. Suhbat metodini tavsifa etgan buyuk mutafakkirlarni aniklang.
a) Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino
v) Ibn Sino, A. Navoiy, Z. Bobur
s) Burxoniddin Zamruji, Ibn Sino, Farobiy d) Farobiy, Al Xorazmiy
e) b va d javoblar.
3. Suhbat metodining turleri to'g'ri berigan javobni aniklang.
a) kundalik xayoiy voqealar xakida suhbat
v) kuzatish, sayr, ekskursiyaga chikishdan oldingi suhbat
s) kirish suhbat, asosiy suhbat, yakuniy suhbat
d) badiy-adabiy asar, sayr xakida suhbat
e) a va s javoblar.
4. Kuyidagi xukm suhbatning kaysi turi xakida ekanligini aniklang.
Bolalarni mashg'ulot, sayr, ekskursiya, kuzatish jarayoni-dagi topshirklarni bajarishga jalb etadi.
a) savol-javob tashkil etish.
v) kirish suhbat
s) asosiy suhbat
d) yakuniy suhbat
e) barcha javoblar to'g'ri
5. Kuyidagi xukm kanday suhbat xakida ekanligini aniklang.
Bolalarning oldingi bilim-tajribalari asosida tash-kil etiladi, bolalarning savolga anik, lunda tartibli javob berishi talab etiladi.

- a) oddiy savol-javob, so'zlashish.
- v) yakuniy suhbat
- s) kirish suhbat
- d) asosiy suhbat
- e) a, v va s javoblar.

6. Kuyidagi fikr muallifi to'g'ri berigan javobni aniklang.

"Siz buxbarda xayrixoxlik talablariga rioya qilgan xolda ish kursangiz, yuldan adashmaysiz."

- a) B. Zamruji
- v) A. Farobiy
- s) A. Navoiy
- d) Ibn Sino
- e) a va b javoblar.

Adabiyotlar :

1. Ibn Sino. Tib konuni. T. 1981. 17-bet.
2. Kobusnoma. Pedagogika tarixi xrestomatiyasi. T. 1987. 43-bet.
3. A. Navoiy "Xayratul ahror". Pedagogika tarixi xrestomatiyasi. T. 1987. 43-bet.
7. "Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturi. T. 2001.
4. M. Gaybullaeva. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T. 1991. 7-8 betlar.
5. K. Shodiyeva. Urta guruh bolalari nutqini o'stirish. T. 1992. 79, 169, 195-betlar.

HIKOYA QILIB BERISH TURLARI VA METODLARI.

Reja:

1. Hikoya qilishga o'rgatish mashg'ulot turlari.
2. Bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniadigan usullar haqida tushuncha berish.

Dars o'quv maqsadi: Hikoya qilishning maqsad va vazifalari hikoya o'rgatish metodlari to'g'risida tushuncha hosil qilish

Tayanch so'zlar va iboralari: Monologik, tasavvur, kommunikativ, xabar, xikoya, faktik, jiodiy, tasviriy, mazmunli, rasm, buyum, o'yinchoq, kuzatish, boshlab berish, xikoya namunasi, berilgan mavzu, reja berish, xikoya tukish, jamoa bulib xikoya tuzish, kismga bulib xikoya tuzish.

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni

Maktabgacha ta'limda bolalarni xikoya tuzishga urgatish ularning bog'lanishi ya'ni monologik nutqini o'stirish demakdir. Bu vazifa bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish va maktabga tayyorlashni takozga etadi. Chunki nutq tafakkurning rivojlanishi bilan bog'likdir.

Maktabgacha ta'limda bolalar tafakkuri ularning tevarak-atrof xakidagi tasavvurining kengayishi, bilish, fikrlash jarayonlarining takomillashib borishi, nutqni egallash kumikma va malakalarining shakllanishi tufayli rivojlanadi.

Bolalarning kattalar bilan so'zlashishi, nutqiy mulqoti natijasida fikrlash, mulqot mazmuni boyib boradi, ularda uzaro mulqot exiyoji vujudga keladi.

Natijada nutqning kommunikativ vazifasi kengayadi, diologik nutq monolog shaklini egallay boshlaydi, bolalar uz nutqi, tengdoshlari nutqiga diqqat bilan karaydi, uni eshitish, tinglash bilan birga uz fikrini bayon qilishga xarakat kiladi. Demak, nutqning xabar, monolog xikoya shakllari rivojlanadi, bolalarning bog'lanishi nutqni egallashi, mustakil fikrlashi uchun asos buladi.

Shuni xam aytish joizki, bog'lanishi nutq murakkab jarayon bulib, uni egallash uzok muddatni talab etadi. Bog'lanishi nutqni o'stirish maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab shakllantiradi. Buning uchun tarbiyachi bolalar nutqini kundalik faoliyati davomida, nutq o'stirish mashg'ulotlarida shakllantirishi, ular nutqini doim kuzatib borishi talab etiladi. "Bog'lanon" (2012) tayanch dasurida monologik nutq, ya'ni bolalarni xikoya tuzishga urgatish vazifalari belgilab berilgan, davlat talablari ishlab chikilgan.

Maktabgacha ta'limda bolalarni xikoya qilishga urgatish deyarli nutq o'stirish mashg'ulotlarida amalga oshiriladi, bolalar uz fikrini, kungan-kuzatganlari, eshitganlarini tartibli tushunari, xikoya kilib berishga urgatiladi, bolalarda mustakil tarzda ma'lum mavzu bo'yicha fikmi izchil bayon kilingan xikoya tuzish kumikmasi shakllantiriladi. Shu asosda bolalar nutqini tihning leksik-grammatik, fonetik jixatdan to'g'ri shakllantirishga erishiladi. Bolalarda nutqda o'voz kuchi, sifati, talaffuz, nutq mezonlariga rioya qilish kabi nutq odobi shakllanadi. Shuning uchun xam nutq o'stirish metodikasida "Bog'lanishi nutq o'stirish" bulimi bulib, unda bolalar og'zaki nutqni shakllantirish, monologik nutqini o'stirish, xikoya tuzishga urgatishning uziga xos xususiyatlari, xikoya turlari, xikoya tuzishga urgatish moyiyati, xikoyani ifodali bayon etish malakalarini shakllantirish vazifalari belgilab berilgan. Chunki xikoya tuzishga urgatish bolalarda mustakil, erkin fikrlash kumikmasini o'stiradi, monologik nutqni shakllantiradi.

Monologik nutq xotira, diqqatning rivojlanishi bilan bog'lik bulib, mazmunan bog'langan nutqdir. Bog'lanishi nutqning tinglovchiga tushunari bulishi uchun anik, ravon gaplardan tuzilishi, so'zlar ma'no jixatdan tushunar-li va uzaro bog'langan bulishi zarur. Vogea-xodisalarining izchil, mazmunli va o'brazi bayon etilishi bolalar bilish faoliyatining maxsulidir.

Bolalar xikoyalari ularning tafakkuri, xotirasi bilan bog'lik bulib, nutqdagi so'zlar ularning leksik xususiyat-lari, talaffuzi bolalarga tushunari tarzda kullaniyadi, xikoya uchun bolalar yosh xususiyatiga mos keladigan, ularning xayotiy tajribalari asosidagi mavzular tanlanadi. Bu esa bolalarda monologik nutqni urganishga kizikish uyg'otadi.

Yani xar bir mutabiy-tarbiyachi, ota-ona jamiyat oldidagi "mustakil fikrlovchi erkin shaxsni shakllanti-rish"dek asosiy vazifani bajarishga erishadi. Chunki биринчи Президентimiz I.A.Karimov aytganlaridek, bugungi kunda "Kishilik tarakkuyoti shunday boskichga kirganki, engi xarbiy kudrat emas, balki intellektual salohiyat, akl-idrok, ilg'or texnologiyalar xal kiluvchi axamiyat kash etadi, bino-batin, xalkaro maydonda biz boshka mamlakatlar bilan sog'lom fikr musobakasiga, jiodiy rakobatga kirishmog'imiz lozim buladi".

Buning uchun maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarni xikoya tuzishga urgatish muximdir. Bolalarni xikoya tuzishga urgatish, bolalar tafakkurini, xotirasi va eslash kobiliyatini rivojlantiradi, bolalar u yoki bu narsa, vogea, xodisalar, kurgan-kuzatganlari xakida xikoya kiladilar, yoki ukib berilgan, so'zlab berilgan vogecalarni kayta xikoya kiladilar.

Shuning uchun xam tarbiyachi xikoya qilishga urgatish mashg'ulotlarida, avvalo, bolalarning nutqiy mulqot, suhbagga kirisha olish

kobilyatini rivojlantirishga axamiyat berishi, ya'ni bolalarning nutqni eshitish, tinglash, tarbiyachi savollariga javob berish kobilyatlarini rivojlantirishi zarur. Bu esa bolalarning narsa, buyum, o'yinchokni tasvirlash yoki kurgan-kuzatganlari, narsa, buyum xakida, uzlari ishtirok etgan voqealar xakida ijodiy xikoya tuzish malakalarini shakllantiradi, ular monologik nutqni egallab oladilar. Shu bois bolalar xikoyalari bir necha turga bulinadi.

1. Xikoya mazmuniga kura faktik va ijodiy xikoyaga bulinadi. Faktik xikoya biror narsa, voqea-xodisa xakidagi, xotira asosida yoki uz tajribasi asosida xikoya tuzish bulib, bunda faktlar asosida xikoya tuziladi. Bolalar o'yinchok, rasm, buyumni, uzlari bajargan xarakatni, xolani, voqea-larni xotirlash, tasvirlash orqali xikoya tuzadilar.

Ijodiy xikoya, asosan, bolalarning xayotiy tajribalari, voqea-xodisalarini eslash, xotirlashi, ya'ni tafakkuri yorda-mida tuziladi. Bunday xikoyalalar bolalarning xikoya tukish, ijodiy fikrlash kobilyati, fantastik xayotiga boglik buladi. Bolalarda so'z ijodkorligi, anik voqea-xodisalar asosida xikoya tukish malakalari shakllanadi.

2. Bolalar xikoyalari shakl jixatdan tasviriy xikoya va mazmunli xikoyaga bulinadi.

a) tasviriy xikoya narsa-buyum, o'yinchok, xayvon, sabza-vot, voqea-xodisalarining eng muxim belgi, xususiyatlarini tasvirlash asosida tuziladi. Tasviriy xikoyada narsa-buyum, o'yinchok nomi, uning tashki kurinishi, belgilari (shakli, rangi, mazasi, ta'mi va xokazo) tasvirlanadi.

Tasviriy xikoya bolalarning narsa, buyum xakida, biror voqeani tinglovchiga tushuntirishi, u xakda ma'lumot berishi, tasvirlashi bulib, bunda voqea-xodisalarining iz-chilligi, ketma-keligi muximdir.

Tasviriy xikoya kuyidagi turlarga bulinadi

1. Narsa-buyumni tasvirlash.
2. O'yinchoklarni tasvirlash.
3. Meva, sabzavot, daraxt, usimlikni tasvirlash.
4. Voqea-xodisa, turli faoliyatni tasvirlash.
5. Asar kaxramonlarini tasvirlash.

Tasviriy xikoya uzining tuzilishi xususiyatiga egadir. Bunda narsa, buyum nomi aytiladi; uning rangi, xajmi yoki tashki kurinishi, uning kismalari, nimaga ishlatilishi, nimadan yasalishi, xarakati va xolati kabililar tasvirlanadi.

Mazmunli xikoya biror voqea-xodisa, narsa-buyum, rasm va xakozo xakida xikoya tukish bulib, bu xikoyada, albatta, obraz ishtirok etadi. Mazmunli xikoya ijodiy tarzda tuziladi, bolalar ijodiy xikoya tukiydi, obraz yaratadi. Mazmunli xikoya kuyidagi turlarga bulinadi:

1. Rasm, buyum, o'yinchok xakida xikoya tukish.
2. Kuzatgan voqea-xodisalar xakida xikoya tuzish.
3. Uzi ishtirok etgan, eshitgan voqealari xakida xikoya tuzish.
4. Berilgan mavzu asosida xikoya tukish.
5. Boshlab berish, reja berish asosida ijodiy xikoya tukish.

Ijodiy yoki mazmunli xikoya urta, katta, tayyorlov guruhida urgatiladi, u kuyidagi talablariga javob berish lozim.

1. Bolalar xikoyalarning kiska, anik, lunda bulishi.

2. Narsa-buyum, voqea-xodisa, uning belgilarining anik ifodalaniishi.

3. Xikoyaning mazmunan bog'langan, bolalarga tushunarli bulishi.

Mazmunli xikoya ijodiy xususiyatga ega bulib, bunday xikoyani tuzishda kuyidagi metodlardan foydalaniladi.

Xikoya namunasini berish metodi asosida xikoya tuzish.

Tarbiyachi bolalarga xikoya namunasini aytib beradi, bolalar undan urgantib, namunaga taklid kilgan xolda xikoya tuzadi. Masalan, tarbiyachi urta guruhda kuyidagi xikoya namunasini aytishi mumkin. Guzalning oyisi kugirchok olib berdi. Kugirchokning atlas kuylagi, kamzuli bor. Uning boshida duppisi bor. Duppisi chiroyli. Oyogida kizil tulfisi, oppok paypogi bor. Guzal kugirchogini yaxshi kuradi. Uni urtoklari bilan uynaydi, kabi xikoya namunasini beradi, bolalar shu xikoyaga uxshash xikoya tuzadilar. Nodirning tugilgan kuni buldi. Men Nodirga mashinacha sovg'a kildim. Nodir xursand buldi. Menga raxmat dedi. Men Nodir bilan mashinani uynadim kabi. Katta guruhda tarbiyachi xikoya namunasini berish metodidan foydalanganda, bolalarga xikoyani tulk aytib bermaydi, balki xikoyaning rejasini beradi. Bolalar berilgan reja asosida xikoya tuzadi, tarbiyachi bolalarga yullovchi savollar berish, aytib turish usullaridan foydalanadi. Masalan, katta guruhda tarbiyachi "Bizning kucha" mavzusida xikoya tuzdirish uchun kuyidagi rejani berishi mumkin.

1. Sen yashaydigan kuchaning nomi nima?
2. Kuchangda kandy binolar bor?
3. Bolalar kuchada kandy o'yinlar uynaydi
4. Kuchangdan kandy transportlar katnaydi. Bolalar kuyidagicha xikoya tuzadilar.

Men yashaydigan kuchaning nomi Tolzor. Kuchamizda uch kavayli maktab, turt kavayli uylar bor. Kuchamizda bolalar bekinnachok o'yinini uynaydilar. Maktab sport maydonida futbol uynaymiz. Kuchamiz keng, katta. Kuchamizdan avtobus, engli mashinalar katnaydi.

Tayyorlov guruhida "Bizning maxalla" mavzusidagi xikoya tuzish uchun kuyidagi reja beriladi:

1. Sen yashaydigan maxalla kanday?
2. Maxalla bolalari kanday o'yinlar uynaydi.
3. Maxallada kanday binolar bor.
4. Maxalladagi obodonchilik ishlarida katnashasanni?

Bizning maxallamizning nomi Sandiksoz. Maxallamizda kup xonadonda, dukonlarda sandik kilinadi. Maxallamizda kup kavlati uylar, maktab, bolalar o'yingoxi bor. Biz o'yin-goxda futbol uynaymiz. Maxallamizda tozalash, daraxtlarni oklash, kuchat ekishda katnashaman.

Xikoya rejasini berish yoki namunasini berish metodi bolalarning xikoya tuzish, xikoya mazmunini uylash, xajmini aniklash, xikoya uchun so'z tanlash kobilyatini o'stiradi.

Xikoya rejasini berish metodida tarbiyachi xar bir rejaga 1-2 bolaning javob berishini talab etadi, barcha savollarga berilgan javoblar tarbiyachi tomonidan tartibga solinadi, sung tarbiyachi xikoyani bayon kiladi, bolalarning xikoyani takrorlashlari xam muximdir. Yani kushimcha savollar berish, bolalar tomonidan tuzilgan xikoyani gaplarga ajratib taxli qilish mumkin.

Xikoya rejasini berish orqali xikoya tuzishga urgatish xikoya qilishning murakkab shaklidir. Shu bois tarbiyachi xikoya rejasini bolalarning tushunib olishi, esda saklab kolishiga aloxida axamiyat beradi. Chunki xikoya rejasini bir yula beriladi va xikoya tuzish talab etiladi.

Shuning uchun tarbiyachi xar bir reja bo'yicha yullovchi, kushimcha savollar berishi zarur. Masalan, "Guruhimiz xonasi" mavzusida tasviriy xikoya tuzishga urgatishda tarbiyachi kuyidagi rejani beradi.

1. Guruhimiz xonasi nechanchi kavatta?

2. Xonamiz kanday, xonamizda nimalar bor? 3. Xonada biz nimalar kilamiz?

Bolalarning savollarga javob berishi, gap tuzishni osonlashtirish maksadida tarbiyachi yullovchi savollar beradi. Masalan, guruhimiz xonasi kanday? savoldan keyin guruhimiz xonasi nechta? Biz turgan xona kanday, bu xonada biz nimalar kilamiz? kabi savollarni berish urini buladi, bolalar savolga javobni tez topa oladilar.

Ba'zan xikoya rejasini jamoa bulib muxokama qilish, taxli qilish orqali xam xikoya tuzishga urgatiladi. Bunday xikoya tuzishda mazmunning tulik bulishi, fikrning va gap-larning ketma-ketligi, uzaro bog'likligini bilishga urgatiladi, xikoyani bolalar bilan birgalikda tuziladi. Xikoya rejasini berish metodi narso, buyum, berilgan mavzu asosida xikoya tuzish uchun kulaydir. Yani bolalar reja savollariga javob berish orqali xikoya tuzadi, fikr uchun so'zni uzi tanlaydi.

Xikoyani jamoa bulib tuzish metodi. Bu metodda tarbiyachi xikoya

tuzishga doir savollarni oldindan tuzadi va bolalarga savollarni aytadi. Xar bir savolga bir nechta bola javob beradi. Tarbiyachi barcha bolalarning javoblari-ni eshitadi, ularning fikrlarini bolalar bilan birgalikda taxli kiladi va eng to'g'ri, savolga mos bulgan gaplarni aj-ratib olib eslab koladi, ularni uzaro bog'lab, xikoyani tuzib, bolalarga aytib beradi. Bolalar tuzilgan xikoyani takrorlaydilar, xikoyani eslab kolish uchun uni gaplarga ajratadilar. Bu metodda xikoya tuzishda bolalar faolligi oshadi, uzlari xam xikoya tuzishga kizikadilar, asta-sekin kurgan-kuzatganlari, eshinganlari asosida mustakil xikoya tuzishga urganadilar, tengdoshlari xikoyasini tinglaydilar ularning noto'g'ri joylarini to'g'rilashga xarakat kiladilar.

Xikoyani kism-larga bulib tuzish metodida bolalar uz tengkurlari fikrini diqqat bilan tinglaydi, uning fikrini davom ettirish uchun mazmunga mos gaplarni uylaydi. Yani xikoya kism-larga ajratilgan xolda bir nechta bola tomonidan tuziladi. Masalan, tayyorlov guruhida "Ikki urtok" rasmi asosida xikoya tuzishda tarbiyachi bolalarga rasmi kursatib, u asosida xikoya tuzishni aytadi, uning bir kismini aytib beradi, kolgan kismini bolalar tuzadilar.

Tarbiyachi: Baxtiyor bilan Anvar chin urtok. Ular birga uynaydilar. Baxtiyorning tugilgan kunida unga akasi mashi-na sovg'a kiladi. Baxtiyor mashinasini uynayotgan edi, Anvar ayikchasini uynab kelib koldi (Keyin nima bulganini uylab kuring).

Bolalar: Anvar Baxtiyorga karab turdi. Keyin ayikcha-sini mashinaga almashtirmokchi buldi. Baxtiyor mashinani akasi sovg'a kilganini aytdi.

Tarbiyachi: bolalar, xikoyaning oxiri nima buldi, kim davom etiradi.

Bolalar: Baxtiyor Anvarga mashinani birga uynashni tak-lif kiladi. Ular mashinani birga uynashdi. Anvar dustidan xursand buldi.

Xikoyani bu metodda tuzish bolalar fikrlash kobilyatini oshiradi, voqea-xodisa xakidagi fikrni uzaro bog'lashga urganadi, xikoyani birgalikda, uzaro xamkorlikda tuzadilar, ularning monologik nutqi usadi.

Xikoya tukish metodida bolalar biror mavzu, o'yinchoq, narso, buyum, kurgan -kuzatganlari yuzasidan xotira asosida xikoya qilish yani xikoya tukishga urgatiladi. Xikoya tukish bolalarning eslash, xotirlash, tafakkuri bilan bog'lik bulib, ular uzlari ishtirok etgan, kurgan-kuzatgan voqealari asosida xikoya tuzadilar. Bunda bolalar mavzuni tanlaydi, mazmunni xam uzlari tuzadilar, Xikoyani baholash. Tarbiyachi bolalar tuzgan xikoyani tinglab uning mazmunini, to'g'ri tuzilganligi, xikoyaning ifodali bayon kilinganini baholashi lozim, bu esa bolalarning xikoya tuzish, unda so'zlarni to'g'ri qo'llash, xikoyani ifodali bayon qilishga urgatish, urtoklari nutqiga talabchan bulish kabi nutqiy

barkamollikni tarbiyalaydi

Mavzuni mustaxkamlashga doir test savollari.

1. Xikoya tuzishga urgatishning mazmunini ifodalovchi to'g'ri javobni aniklang.

- a) narsa buyum, o'yinchoq xakida xikoya tuzish
- v) kurgan-kuzatganlari asosida xikoya tuzish
- s) eshitganlari asosida xikoya tuzish
- d) ukib berilgan asarni xikoya qilish
- e) barcha javoblar to'g'ri.

2. Xikoyaning mazmun jixatdan turini aniklang.

- a) faktik xikoya
- v) ijodiy xikoya
- s) xotirash asosidagi xikoya
- d) tasvirlash asosidagi xikoya
- e) a va v javob.

3. Tasviriy xikoya xakidagi to'g'ri javobni aniklang.

- a) narsa, buyum, o'yinchoqni tasvirlash
- v) meva, sabzavot, xayvon, kushlarni tasvirlash
- s) voqea-xodisalarni tasvirlash
- d) asar kaxramonlari, obrazlarni tasvirlash
- e) barcha javoblar to'g'ri.

4. Mazmunli xikoya xakidagi to'g'ri javobni aniklang.

- a) ijodiy tarzda xikoya tuzish
- v) narsa-buyum, rasm xakida xikoya tukish
- s) kuzatgan voqealar xakida xikoya tukish
- d) uzi ishtirok etgan yoki eshitgan voqealar xakida xikoya tukish
- e) barcha javoblar to'g'ri.

5. Mazmunli xikoya tuzish metodlari to'g'ri berilgan javobni aniklang.

- a) xikoya namunasini berish
- v) xikoya rejasini berish
- s) xikoyani jamoa bulib tuzish
- d) xikoyani kismmlarga bulib tuzish
- e) barcha javoblar to'g'ri.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. 1997
2. Nutq o'stirish. Tevarak-atrof bilan tanishtirish va badiiy adabiyot. Bolalar

bog'chalari uchun dastur. T. 1996

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga kuyi-ladigan davlat talablari. T. UZPFTI. 2000.

4. Kichkinoylar og'zaki nutqini o'stirish. T. 1994. Tuzuvchilar: M Gaybullaeva. R. Urozova.

5. Kata guruhlarda nutq o'stirish mashg'ulotlari. T. 1994. Tuzuvchilar: M Gaybullaeva va boshkalar.

6. K. Shodieva. Urtta guruh bolalari nutqini o'stirish. T. 1993.

MUNDARIJA

1. Bolalar nutqini rivojlantirish fanning tashkil topishi va rivojlanishi	3
2. Bolalar nutqini rivojlantirish faning maqsad va vazifalari	12
3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy asoslari	17
4. Maktabgacha kichik, o'rta va katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning vazifalari, metodlari va vositalari	
5. Maktabgacha kichik, o'rta va katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning vazifalari, metodlari va vositalari	22
6. Grammatik qurilishni shakllantirish metodikasi	40
7. Ravon nutqni rivojlantirish	63
8. Dialogik nutqning mazmuni va vazifalari	66
9. Nutqni shakllantirishning nazariy asoslari	74
10. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug'at ishini olib borishning nazariy asoslari	77
11. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak atrofini bilishda nutqni rivojlantirish texnologiyasi	83
12. Tovushlarning to'g'ri talaffuzi yuzasidan olib boriladigan ishlar mazmuni	88
13. Bolalar lug'atini boyitishda ta'limiy o'yinlar	116
14. Subbat turlari va uning mazmuni	130
15. Hikoya qilib berish turlari va metodlari	134

M.D. Tursunboyeva, L.K. Narimbayeva, N.H. Maripova, N.A. Xidoyatova

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR NUTQINI O'STIRISH

O'quv q'ollama

Muharrir: X. Taxirov
Tehnik muharrir: S. Melikuziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84^{1/16}, "Times new roman" garniturasini, kegli 14.
Offset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog 'i 9.
Adadi 100 dona.

Book tarde 2022 MCHJda chop etildi.
Manzili: Toshkent viloyati, Qibray tumani

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIONALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI